**O’ zbekiston Respublikasi**
**Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi.**

**Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat**
**Pedogogika Universiteti.**

# *MEHNAT VA UNI O’QITISH METODIKASI.*

O’quv qo’llanma

**Tuzuvchilar:** Prof. Mavlonova R.A.
P.f.n dotsent Sanaqulov.H.R.
O’qituvchi Xodieva.D.P

**Taqrizchilar:** Nizomiy nomli TDPU p.f.n. dotsent S.Boltaboev
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Toshkent viloyati xalq ta’limi pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti “Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim” kafedrasi mudiri M.G’ulomov.

Toshkent-2007

Annotatsiya.

Qo'llanma bakalavriyat yo'nalishi 5141600 – Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish uchun mo'ljallangan bo'lib, unda talabalarga mehnatga pedagogik va psixologik asosda bilim berish, mahnaviy va mahrifiy madaniyatni takomillashtirish, mehnat tarbiyasi asosida o'quvchilarda kasb-hunarga qiziqishini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bundan talabalar mustaqil ravishda mehnat va uni o'qitish metodikasidan nazariy va amaliy bilimlar mavzusiga tayyorlanish jarayonida talaba bajarish lozim bo'lgan topshiriq va metodik ko'rsatmalardan foydalanish mumkin.

Mazkur qo'llanma 2007 yil 29 martda 9 sonli qarori bilan tasdiqlandi.

# KIRISH.

Bugungi kunda jamiyatimiz uchun har tomonlama rivojlangan fan texnika taraqqiyotini hayotga tadbiq eta oladigan yetuk malakali kadrlar tayyorlash masalasi turibdi.

Maktab ta'limining hozirgi bosqichida o'quvchilarni mehnatga tayyorlash, o'sib kelayotgan avlodning tahlim va tarbiyasidagi eng zarur masalalardan biridir.

Ayniqsa boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni mehnatga tayyorlash ularning qiziqishlari, moyilliklar va imkoniyatlariga asoslangan qo'l mehnati hisoblanadi. Shu munosabat bilan mehnat ta'limi jarayoni o'quvchilarda ushbu yosh uchun bilim, mehnat, axloqiy, estetik iqtisodiy-ekologik va aqliy imkoniyatlarni aniq mehnat jarayonlarida rivojlantirishga qaratilgan, natijada ularni mehnatga tayyorlashni qo'l mehnati jarayonida bolalar asosan ishlab chiqarish texnologiyalar chiqindilari (qog'oz,karton,sim, yog'och,gaz mol va boshqalar) bilan tabiiy va sun'iy xom ashyolar (maxsus loy,yog'och va plastmassalar, plastilin, yelim va boshqalar) bilan ishlash keyingi sinflarda davom ettirilishi uchun zarur aloqadorlik hosil qiladi.

Mazkur o'quv metodik qo'llanma pedagogika institutlarining talabalari uchun "Mehnat va uni o'qitish metodikasi" fani bo'yicha mo'ljallangan bo'lib, unda yangi pedagogik texnologiya yutuqlari asosida, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun talablarini bajarish maqsadida o'quvchilarning tafakkurlarini yuqori darajada rivojlantirishga erishish umumiy tahlim maktablari oldida turgan eng muhim vazifalarini amalga oshirishda, Davlat ta'lim standartlarini bosqichma-bosqich amalga oshirilishida, yo'nalishi Bakalavr: 142000 -Boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ishlar metodikasi mutaxassisliklarn uchun o'quv metodik qo'llanmadir.

O'quv qo'llanma talabalarning mehnat ta'limi bo'yicha boshlang'ich ta'lim metodikasidan nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida bajaradigan ishlarning namunalariga yo'llanmani o'z ichiga oladi. Har bir nazariy, amaliy mashg'ulotlarning mavzusi, unga tayyorlanish jarayonida talaba bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar, metodik ko'rsatmalar va eng muhim nazariy manbalar keltirilgan. O'quv qo'llanma talabalarning mashg'ulotlarga tayyorlanishida foydalanishlari uchun, ularning mustaqil ishlarini tashkil etish uchun mo'ljallangandir.

## 1- BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MEHNAT TA'LIMIDAN NAZARIY BILIMLAR.

### Mavzu: Boshlang'ich sinflarda mehnat ta'limi va tarbiyasining vazifalari.

Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi, mehnatning xarakteri va mazmuniga, insonni hayotga tayyorlashga yuksak talablar qo'yadi. Shunga ko'ra har bir kishini hayotga tarbiyalashda aniq o'zgarishlar qilishi lozim. Har bir o'quvchida zamonaviy ishchi shaxsining sifatlarini shakllantirish uchun maktabning boshlang'ich sinflarida va hatto ilgariroq maktabgacha muassasalarda, keyinroq maktabdan yuqori sinflardagi tahlim va tarbiyani rivojlantirish, keyinchalik kasb-hunar kollejlarida o'z bilimlarini davom ettirishlari lozim. Butun kuch va qobiliyatlarini siyosiy bilim doiralarini kengaytirish, zamonaviy bilim bilan qurollantirish va jismoniy mehnatni har tomonlama uyg'unlashtira olishga o'rgatishdan iboratdir.

Mehnat ta'limi va kasbga tayyorlash vazifalari boshlang'ich maktablarda butun ta'lim va tarbiya tizimida hamda barcha o'quv predmetlari yordamida hal etiladi. Bu o'rinda mehnat darslari yetakchi rolg' o'ynaydi.

Maktabda muntazam mehnat ta'limining boshlang'ich bosqichi boshlang'ich sinflarda mehnat darslarida va kichik maktab yoshidagi bolalarni qo'lidan keladigan ijtimoiy foydali ishdir.

Boshlang'ich maktabdagi mehnat ta'limining asosiy vazifalari mehnatga axloqiy va ruhiy tayorlash, o'quvchilarni boshlang'ich politexnik bilimlar bilan qurollantirish, mehnatga amaliy tayorlashlardan iboratdir.

**Mehnatga axloqiy tayyorlash** – Ukuvlarga jamoada ishlashni, o'zaro do'stona yordamni, ijodiy tashabbuskorlikni, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyish qilish, mehnat kishilari va mehnat natijalarini xurmat kilishga o'rgatishdan iboratdir.

**Mehnatga ruhiy tayyorlash**. Mehnatga ruxiy tayyorlash murakkab, uzoq davom etuvchi va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u butun tahlim va tarbiyaga singib ketgandir. U garchi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsada mehnatga axloqiy tayyorlashga juda yaqindir.

**Mehnatga ruhiy tayyorlash** – ukuvchilarni mehnatga ruhiy tayyorlash va unda mehnatga nisbatan uning yoshiga mos keluvchi ongli va ijobiy musbatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko'nikmalarni egallashga qiziqishini shakllantirishdan ibortadir. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga yoshligidan boshlab mehnatning yaxshi tomonlarini singidirishdir. Bolalarni mehnatga qobiliyati har bir kishi uchun zarur bo'lgan vositalarni ishlab chiqarishda qatnashish zarurligini anglashlari juda muhimdir.

Mehnat ruxiy tayyorlash turli psixologik jarayonlarni rivojlantirishni va takomillashtirishni nazarda tutadi. Bular sezib-anglash, psixomotor, emotsional idrok, diqqat, xotira, taffakkur mehnatning psixologik komponentlaridir.

Mehnatga o'rgatishda bolaning imkoniyatlarini nazarda tutib, hissiy bilish jarayonini takomillashtirish zarur. Bundan tashqari bolaning xotirasini o'stirish

ham alohida ahamiyatga ega. Mehnat fani bo'yicha o'quv materiallarni eslab qolish boshqa predmetlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Barcha yangi asboblar, materiallarni, opreatsiyalarning nomini boshlang'ich sinf o'quvchilari so'z nomini, predmetini ko'rib idrok etish bilan fikran biriktirib, tinglab fahmlaydilar, tushunib oladilar.

O'qituvchi mehnat darslarida faqat tushuntiribgina qolmay, balki asosan materiallar va buyumlar namunasini, asboblarni metarialga ishlov berish usullarini, ish bosqichlarini izchilligini ko'rsatadi. Shunung uchun mehnat ta'limida eshitish, ko'rish xotirasi va harakatlanuvchi xotira muhim rolg' o'ynaydi. O'quvchilarda mehnat darsidan mehnat darsigacha yangidan-yangi bilim va ko'nikmalar mujassamlashib boradi, ularni esa anglash va xotiralab qolish kerak.

Mehnat ta'limini to'g'ri tashkil etish bolalarni qiyinchiliklarni yengishga, qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida matonat va qathiyat bilan kirishishga, boshlangan ishni chala tashlab ketmay, balki oxiriga yetkazishga o'rgatish lozim. Bu o'rinda ijobiy natijalar: mehnatdan quvonish, lazzatlanish va qoniqish hissiyotlarining namoyon bo'lishi juda muhimdir.

Mehnatda shaxsning qiziqish, qobiliyat, intiluvchanlik kabi shaxsiy psixologik xususiyatlari shakllanadi. Mehnatga psixologik va axloqiy tayyorlash jarayoni murakkab va uzoq davom etuvchi jarayondir.

**O'quvchilarni mehnatga amaliy tayyorlash**. Boshlang'ich sinflarda keng mahnodagi ilmiy asoslar haqida emas, politexnik ta'limning elementlari to'g'risida gap boradi. Bu o'quvchilarda fan-texnika yutuqlariga nisbatan qiziqish uyg'onishiga yordam beradi. Biroq, umum ta'lim predmetlarini o'qitish mehnat darslarini mahlum darajada politexnik asoslarda, darsdan-darsga politexnik bilimlarni qo'shib olib borishga yordam beradi. Politexnik tayyorgarlikka ega bo'lib, qo'yilgan mehnat vazifalarini bajarishda asboblardan to'g'ri foydalanishga yordam beradi. SHuningdek bu tayyorgarlik kerakli ishlab chiqarish bosqichlarini qanday va qaysi izchillikda amalga oshirish, qanday asboblarni qo'llash va undagi sabablarin anglashga ko'maklashadi. Mehnat bo'yicha dasturning istalgan bo'limini o'tishda o'qituvchi bolalarga mahlum hajmdagi politexnik bilimlarni beradi. Boshlang'ich politexnik bilim bilan qurollantirish o'quvchilarga predmetni yasash, ishlov berilayotgan materialning xususiyatlari, texnologik o'ziga xosliklari, materialga qo'lda ishlov berilganda qo'llaniladigan asbob-moslamalarning xususiyatlari, ulardan foydalanish qoidalari haqida mahlumot berishdan iboratdir.

Politexnik bilimlar asosan boshlang'ich sinf o'quvchilarida fan-texnika yutuqlariga nisbatan qiziqish uyg'otadi.

O'quvchilarga berilayotgan politexnik bilim, amaliy ko'nikma va malakalarga o'rgatishni ma'lum nazariy darajada amalga oshirishga imkon beruvchi zamindir.

**Mehnat malaka va ko'nikmalari bilan qurollantirish.** Mehnatga amaliy tayyorlash mehnat ta'limining muhim omillaridan biridir. U o'zaro bog'langan bir nechta elementlardan: oddiy asbob va moslamalardan foydalana

bilish u yoki bu materialga mahlum izchillikda ishlov bera olish, yo’l qo’yilgan xatoni o’z vaqtida aniqlash va to’g’irlay olish kabilardan tarkib topadi.

Mehnatga amaliy tayyorlash faqat kerakli bilimlar bazasida amalga oshishi mumkin. U boshlang’ich maktabda boshlang’ich politexnik bilimlarga asoslanadi. Mehnat tahlimining mazmuniga muvofiq o’quvchilarda mazkur yosh uchun qulay bo’lgan materiallarga ishlov berishda qo’llaniladigan oddiy asbob va moslamalarni ishning amaliy malaka va ko’nikmalarini egallaydilar. Oddiy asbob va moslamalar maxsus asbob va moslamalarning bosh asosi hisoblanadi.

Amaliy malaka va ko’nikmalar bilan qurollantirish, asosiy ishlab chiqarish operatsiyalarini o’rgatish ham demakdir. Boshlang’ich sinf o’quvchilari duch keladigan buyumlar texnologiyasi xilma-xildir, biroq bu masalani batafsil o’rganmasdanoq ish opreatsiyalarining tipikligini sezib olish qiyin emas, ular: materiallarni o’lchab olish va belgilash, ularni qirqib ishlov berish, qismlarni yelimlash, tikish, o’rash va bog’lash kabi yo’llar bilan birlashtirish va mustahkamlash, detallarni yig’ish va buyumni mantaj qilishdir. Yakunlovchi bosqich buyumni bezashdir.

O’quvchilardagi mehnatga bo’lgan qiziqishni o’z vaqtida aniqlash va ularga mehnat malakalarini sevgan mashg’ulotlarida takomillashtirishlariga yordam berish juda muhimdir.

Bunda o’quvchilarni ehtiboriga eng oddiy buyum o’yinchoqlarni, o’yinlarni, o’quv qurollarini tayyorlash, naqshlar chizib va qirqib olish, applekatsiya ishlari havola etiladi. Bundan tashqari bolalarda mehnatga qiziqishni uyg’otish, mehnat darslarida hosil qilingan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, ko’nikma va malakalarini mustahkamlash uchun “Mohir qo’llar” to’garaklarida, kun uzaytirilgan guruhlarda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

**Mehnat tahlimi jarayonning o’sishiga tahsiri.** Mehnat tahlimi vazifalari haqida gapirilganda, o’quvchilarda mehnatsevarlik, mashuliyat, intizomlilik, burch hissi, jamoatchilik hissini tarbiyalashni tilga olmaslik mumkin emas. SHu bilan birgalikda mehnat odamlar tirikchiligining moddiy va mahnaviy tahminotining vositasi, jamiyat taraqqiyotining eng muhim omilidir. Bolalarni aqliy o’stirishda ham mehnat tahlimining roli ko’p qirralidir. Mehnat o’quvchilarning bilim olishiga intilishlarini qo’zg’atuvchi vositagina emas, balki uning manbai hamdir. Mehnat tahlimi jarayonida o’quvchilarni aqliy o’stirishda jismoniy va aqliy mehnatni almashtirib turish muhim ahamiyatga egadir. Biroq har qanday mehnat ham aqliy o’sishga yordam bermasligini unutmasligimiz kerak.

Mehnat eng muhim iroda va axloqiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Mehnat tahlimida mehnatga psixologik tayyorgarlik, mehnat faoliyatining to’g’ri motivlari tarbiyalanadi, shaxsning har bir ongli mehnatkash uchun zarur bo’lgan sifatlari shakllanadi.

Darslarning jihozlanganligi o’z mehnati uchun shaxsiy mahsuliyatni, mehnat madaniyatini tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Agarda bolalar

yomon jihozlangan sinfda, qupol, og'ir va yoshlariga nomunosib asboblar bilan shug'ullansalar ish natijalari ko'ngildagidek bo'lmaydi.

Agarda bola har bir qadamda tartiblilikka, aniqlikka rioya qilish lozimligiga ishonch hosil qilinmasa, bolalarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalashda muvaffaqiyatga erishish haqida gapirish qiyin.

Mehnat malakalari madaniyati u yoki bu mehnat jarayonida belgilangan tartibga va harakat izchilligiga rioya qilish kerakligini muntazam tushuntirib borish bilan birga bo'ladigan ko'p mashq qilishlar natijasida tarkib topadi.

O'quvchilar o'rtasida yo'lga qo'yilgan o'zaro yordam esa, ularda do'stlik, birodarlik, umumlashish, jamoatchilik kabi fazilatlarni tarbiyalaydi.

## SAVOLLAR.

1. Mehnatga axloqiy tayyorlash deganda nimani tushinasiz?
2. O'quvchilarni ish unumi qanday oshiriladi?
3. O'quvchilarda mehnat ko'nikmasi qanday hosil qilinadi?
4. O'quvchilarni aqliy o'sishida mehnatning ahamiyati?

## TOPSHIRIQLAR.

1. Mehnat tahlimi tushunchalari.
2. Mehnat tarbiyasi tushunchalari.

## ADABIYoTLAR.

**1.** Tahlim to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. 1997 yil T.,"SHarq" nashriyoti)

**2.** Kadrlar tayyorlash buyicha milliy dasturi.( Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. 1997 yil T.,"SHarq" nashriyoti)

**3.** R.A.Mavlonova ,O.T.To'raeva , K.M.Xoliqberdiev "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 1998 yil

**4.** X.Sanaqulov ,M.Haydarov "Boshlang'ich sinflarda qog'ozdan amaliy ishlar" 1996 yil

**5.** R.A.Mavlonova, Goroxova, Ogluzdina O. “Mehnat tahlim metodikasi” T., “O’qituvchi” 1986 yil

## Mavzu: Boshlang’ich sinflarda mehnat tahlimining mazmuni

**Mehnat tahlimining mazmuni va uning tashkil etilishi.** Mehnat tahlimi dasturida o’quvchilar mehnat darslarida egallashi lozim bo’lgan ilmiy-texnik bilimlarining, mehnat ko’nkmalarini va malakalarini hajmi hamda mazmuni belgilab boriladi.

Dasturda jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida yoshlarga mehnat tahlimi berish, ularni tarbiyalash sohasida qo’yilgan maqsad va vazifalar o’z ifodasini topadi. Mehnat tahlimi dasturi o’quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. Mehnat tahlimi o’qituvchisi o’zining kundalik faoliyatida bu dasturga amal qiladi va uning bajarilishi majburiy hisoblanadi. SHu bilan bir qatorda o’qituvchi o’quv dasturiga mahalliy sharoitni hisobga olib mahlum o’zgarishlar kiritishi mumkin. Bu boradi bir qancha talablar hisobga olinishi lozim. Dasturning mazmuni didaktik printsiplarga to’la – to’kis javob berishi, ilmiy va mafkuraviy jihatdan puxta bo’lishi, murakkabligi ortib borishi hisobga olingan holda va mehnat tahlimining tanlangan didaktik tizimiga muvofiq ravishda, muayyan izchillikda bayon qilinishi turmush tajribasi bilan bog’langan bo’lishi kerak. Unda mehnat o’rinlari politexnik xususiyatlariga ega bo’lishi, ularning tavsiya qilinadigan ro’yxati esa ijtimoiy ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo’lishi lozim.

**Mehnat malaka va ko’nikmalari bilan qurollantirish**. O’quvchilarni tarbiyalash va ularni bo’lajak amaliy faoliyatga tayyorlashda mehnat malakalari va ko’nikmalari katta rolg’ o’ynaydi. Qo’yi sinf o’quvchilariga mehnat tahlimini berish vazifalaridan biri ularda bir qator mehnat malakalari va ko’nikmalarini shakllantirishdir. Mehnat malakalari va ko’nikmalari natijasi bo’lib qolmay balki, o’quvchilarni mehnat faoliyatiga, ijtimoiy foydali ishlab chiqarish mehnatini bajarishga jalb qilish sharti hamdir.

**Ko’nikma** – bu kishining bilim va tajriba asosida egallangan, mahlum harakatni ongli bajarishga bo’lgan qobiliyatdir. Masalan: kartonni kesa bilish ko’nikmasi, qaychini to’g’ri ushlay bilish, harakatni aniq muvofiqlashtirish, yo’nalish, kuch va bosimning tengligini saqlash, qomatni muvofiq keluvchi tarzda tutish degan mahnoni anglatadi. Bu o’rinda ustalik bilan harakat qilib, mahlum ishning suhrati va aniqligiga rioya qilish kerak. Aks holda ish qo’pol chiqishi mumkin. Berilayotganini o’zlashtirish – bu o’zgalar tajribasini natijalarini o’z tajribasini natijalari bilan qiyoslashdir.

Mehnat harakatlarining mukammallashuvi sintetik bosqichda maxsus mashqlar tahsirida yuzaga keladi. O’rganuvchining ongli ayrim harakatga birlashtirish jarayoniga yo’llangan bo’ladi.

**Malaka** - bu faoliyatning mashq qilishlar jarayonida yetilgan, mujassamlashgan tajribadir. Bu tez va aniq bajarish, mashq qilish tufayli tarkib topgan ko'nikma yoki bu mahlum miqdordagi mashq va usullar bajarilganda ko'nikmadan sakrab o'tish degan mahnoni anglatadi. SHunung uchun mazkur ko'nikma agarda malakani yuzaga keltirishni nazarda tutgan mashq va usullar to'g'ri tuzilgan bo'lsa u to'g'ri malakaga aylanishi mumkin. Biroq malakaning takommillashuv darajasi o'qitishning turli bosqichlarida turlichadir. Uning strukturasi ham o'zgaruvchandir. Mashqlar jarayonida o'quvchilar bajarilayotgan harakatlar murakkablashib borgan sari, asta-sekin oddiy malakalarning murakkab malakalarga birlashuvi sodir bo'ladi.

Mehnat malaka va ko'nikmalarini shakllantirish qo'ydagicha asosiy bosqichlardan tarkib topadi:

a) boshlang'ich tushuncha.

b) mehnat harakatlarini sinov uchun bajarish.

v) ish harakatlari.

g) yakun chiqarish.

1. Ko'rsatilayotgan harakat maqsadga muvofiq, barcha munosabatlarda ham namunali bo'lishi.

2. Ko'rsatish namunaning ongli idrok etilishiga yordam berish kerak. O'qituvchi o'quvchining ehtiborini harakatning eng asosiy ahamiyatli tomoniga yo'llashi, boshqa harakatni emas, aynan shu harakatning maqsadga muvofiqligini asoslash, ularning loyihalash ongli egallanishiga erishish lozim. SHunung uchun ko'rsatish doimo qisqa tushuntirish bilan birga boradi.

3. Ko'rsatish harakat namunasining o'quvchilar tomonidan faol idrok etilishini tahminlash kerak. Faollik tafakkur faoliyatida hamda ko'rsatilayotgan narsani idrok etishda ish hajmi miqdorining ko'payishida ifodalanadi.

4. Ko'rsatilayotgan harakat barcha detallari bilan har bir o'quvchiga yaxshi ko'rinishi kerak.

Mehnat malakalari va ko'nikmalarini shakllantirish jarayonidagi mashqlar. Mehnat malakalari va ko'nikmalarini shakllantirishga mo'ljallangan mashqlar faqat vaqtga ko'ra taqsimlanganda hamda mahlum tizim asosida o'tkazilgandagina ijobiy natija beradi.

**Mashqlar tizimi qo'yidagi asosiy talablarni o'z ichiga oladi:**

1. Mashqlarning materiali qiyinlikning oshib borishini nazarda tutgan holda joylashtirish lozim.
2. Keyingi materialning hammasi to'liq tarzda oldingi materialga asoslanishi lozim.
3. Mustaqillik darajasi ortib borilishi kerak.

Mehnat malakasining muvaffaqiyatli bo'lishi bir qator shartlarga bog'lik. O'quvchi o'z faoliyatini mustaqil rejalashtirmas ekan, uning malakasi hech qaon to'liq bo'lmaydi. Nazoratning yo'qligi ko'pincha xato va nuqsonlarning mashqlar jarayonida ortib yuorishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida yetilmagan harakat va usllarning shakllanishiga sabab bo'ladi.

**1 – sinf dasturining mazmuni.** Boshlang'ich sinf o'qituvchisi mehnat tahlimi buyicha ishlarni amalga oshirayotganda o'quvchilar u yoki bu ishni

bajarish natijasida qanday ko'nikma, bilim va malakalarni egallashlarini aniq bilish kerak. Ana shunday holda o'qituvchi sinf uchun shu vaqtda zarur bo'lgan materiallarni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu o'rinda muhimi o'quvchilar mazkur materiallarni tayyorlash jarayonida dastur nazarda tutgan bilim va malakalarni egallab olishlaridan iborat.

Birinchi sinfdagi ish turlari qo'yidagilardan iborat.

1. Qog'oz va karton bilan ishlash.
2. Gazlama bilan ishlash.
3. Turli materiallar bilan ishlash.
4. Texnik modellashtirish.
5. Qishloq ho'jaligi mehnati.

**2 – sinf dasturining mazmuni.** Boshlang'ich sinf mehnat tahlimi darslaridagi tahlim-tarbiyaviy vazifalar umumtahlim maktablaridagi mehnat tahlimining umumiy vazifalaridan kelib chiqib, quyidagi mashg'ulot turlari jarayonida amalga oshiriladi.

1. Qog'oz va karton bilan ishlash.
2. Gazlama bilan ishlash.
3. Turli materiallar bilan ishlash.
4. Texnik modellashtirish.
5. Qishloq ho'jaligi mehnati.

Har bir o'quv yilida va barcha sinflarda ish turlari shu tartibda olib boriladi. Birinchidan o'quvchilar mahlum nazariy bilimlarga ega bo'ladilar, ularning fanlararo texnologik xususiyatlarini, ularning hayotda qo'llanilishi bilan tanishadilar. Ikkinchidan materiallarga ishlov berishda eng oddiy usullardan boshlab murakkab usullargacha amaliy o'rganadilar.

SAVOLLAR.

1. Mehnat tahlimi mazmuni nimalardan tashkil topgan.
2. Mehnat malakasini shakllantirish nima.
3. Mehnat ko'nikmasini shakllantirish nima.
4. 2-sinf mehnat darsining mazmuni kanday.

TOPSHIRIQLAR.

1. Mehnat tahlimining mazmuni nimalardan tashkil topgan.
2. Mehnat ko'nikmasi qanday shakllantiriladi.

ADABIYoTLAR.

**1.** Kadrlar tayyorlash buyicha milliy dasturi.( Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. 1997 yil T.,"SHarq" nashriyoti)

**2.** R.A.Mavlonova ,O.T.To'raeva , K.M.Xoliqberdiev "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 1998 yil

**3.** X.Sanaqulov ,M.Haydarov “Boshlang’ich sinflarda qog’ozdan amaliy ishlar” 1996 yil

**4.** R.A.Mavlonova ,Goroxova,Ogluzdina O., “Mehnat tahlim metodikasi” T., “O’qituvchi” 1986 yil

## Mavzu: Mehnat darsining maqsadi va vazifalari.

Hunarni asrobon nedkumdir oxir,
Olib tuproqqamu ketgumdur oxir.
A.Navoiy.

Mustaqil har tamonlama kamolga yetgan barkamol inson uchun zarur bo’lgan mahnaviyat qirralari iymon, ehtiqod, vatanparvarlik, insonga cheksiz muhabbat do’stlik, sadoqatlik, mehnatsevarlik, milliy g’urur kabi fazilatlarini shakllantirish zarur.

Buyuk allomalarimiz tomonidan yaratilgan og’zaki va yozma ijodiyot avloddan-avlodga o’tib kelayotgan iymon-ehtiqod sirlarining nazariy va amaliy jihatlari haqidagi bilimlar bilan yoshlarni qurollantirish lozim.

O’zbekiston Respublikasi Oliy majlis 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan “Tahlim to’g’risida”gi yangi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” tahlim sohasidagi siyosatimizni belgilab berdi. Uzluksiz tahlimni tashkil etishni rivojlantirish printsiplari uzluksiz tahlimni isloh qilish, uzluksiz tahlim tizimi va turlari masalalarini qamrab olgan. Prezidentimiz I.A Karimov tahkidlaganidek “Har bir insonning ayniqsa endigina hayotga qadam qo’yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o’rtaga qo’yilgan maqsadga erishishi o’zlariga bog’liq ekanligini, yahni bu narsalar ularning sobit qadam, g’ayrat, shijoatlariga, to’la-to’kis fidokorligi va cheksiz mehnatsevarliklariga bog’liq ekanligini anglab yetishlari kerak”.

Mehnatni sharaflash mehnat ahlining qadr-qiymatini uning mashaqqati uchun astoydil kurashish, o’sib kamol topayotgan yosh avlodga tahlim-tarbiya

berish jarayonida mehnatga munosabatlarini shakllantirish zarur bo'lib, yosh avlod jamiyatimiz taraqqiyotida o'z bilimi: mehnat, kasb-hunarlari bilan hissa qo'shishlari pedagog tarbiyachilarning oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Kichik sinf o'quvchilarini qo'l mehnatiga o'rgatishning asosiy maqsadi, boshlang'ich mehnat elementlari bosqichlarini yahni bajariladigan ishlarning oddiy elementlari (qog'ozlarni buklash, qirqish, yelimlash, geometrik figuralarni yasash, applikatsiya ishlari)ni yasash bilan boshlaydilar.

Undan tashqari qo'l mehnatiga o'rgatishda "Tikish va bichish", "Pazandachilik", "Plastilin bilan ishlash", " Qog'oz va karton bilan ishlash", "Applikattsiya va mozayka ishlari" turlari bilan bosqichma-bosqich tanishib boradilar. Har bitta bo'lim o'quvchilarni hayotga mustaqil qilib tarbiyalashda muhim o'rin egallaydi.

Yaratilgan mehnat natijalari o'ziga va yon atrofdagilariga foydasi tegishini ko'rgan o'quvchi mehnatni asrab-avaylashga va mehnat

kishilarining mehnat natijalarini ham hurmat-izzat qilishga o'rganadi.

Topshirilgan ishga mahsuliyat hissini va mehnatdagi intizomni tarbiyalash, o'qitishni ishlab chiqarish bilan birga olib borilishi salomatlik va yosh uchun foydali, jamiyat uchun kerakli mehnat izchilligini amalga oshiradi.

Boshlang'ich maktablarda mehnat tahlimi va tarbiyasining asosiy vazifalari o'quvchilarni mehnatga tayyorlash, o'qitish va umumtahlim maktablarining boshlang'ich sinflarida kasb tanlash izchilligini takomillashtirish, davlat tahlim standartlari talabi bo'yicha tarbiyalash hamda o'quvchilarni kasb-hunar egasi bo'lib yetkazishda nazariy va amaliy bilim berishlardan tashkil topgan.

Mehnat madaniyatini tarkib topishi uchun darslarda doimo bolalarning ehtiborini asbob va materiallarni saqlash qoidasi hamda joylashtirish tartibiga, ish joyini to'g'ri jihozlashga, materiallardan tejamkorlik bilan foydalanish usullariga, ish harakatlarining mehyori va sifatiga, ish ko'rsatkichini tahminlovchi tadbirlarga, ishlov berishda olinggan aniqlik va tozalikka rioya qilishga va nihoyat narsani chiroyli qilib bezashga talab qilib borish kerak.

Kerakli material va asboblari bilan yetarli tahminlanmaganlik ham mehnat madaniyatini shakllanishiga salbiy tahsir etadi. Bahzan o'quvchilarning tayyorlanmaganliklari va uyushmaganliklari tufayli o'qituvchining ko'p vaqti bekorga sarf bo'ladi: biri qaychisini, ikkinchisi qog'ozini olib kelmasdan mashgulotlarga katnashish ish qilayotgan o'rtog'ini narsa so'rab chalg'itadi. SHuning uchun o'qituvchi dars boshlashdan oldin guruh sardorlari yordamida o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro do'stona yordamga tayanib o'z vaqtida choralar ko'rish lozim. Biroq har qanday holatda ham o'quvchini uyga junatmaslik yoki jazo berish tartibida o'quvchini ishsiz qoldirmaslik kerak.

Mehnat tahlimiga ijodiy tashabbussiz yondashish mehnatning aqliy rivojlanish omiliga aylantirmaydi. Bilimlarni qo'llashni talab qilmaydigan, tafakkurni faollashtirmaydigan mehnat faoliyati aqliy qobiliyatlarni o'stirmaydi.

Mehnat tahlimi u yoki bu mehnat jarayonida belgilangan tartibda va harakatlar izchilligiga rioya qilish kerakligini muntazam tushuntirib borish bilan birga bo’ladigan ko’p marta mashq qilishlar natijasida tarkib topadi.

SAVOLLAR.

1.Mehnat deganda nimani tushinasiz?
2.Mehnatga qanday munosabatda bo’lish kerak?
3.Boshlang’ich sinflarda qanday ishlar o’rganiladi?
4.Qo’l mehnatiga o’rgatishda asosiy maqsad nima?

TOPSHIRIQLAR.

1. Qo’l mehnati ishlariga ijodiy yondoshuvda nimaga ehtibor qaratish kerakligini ayting.
2. Mehnat darslarida ish qurollarini joylashtiring.

ADABIYoTLAR.

**1.** Tahlim to’g’risidagi O’zbekiston Respublikasining Qonuni (Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. 1997 yil T.,“SHarq” nashriyoti)

**2.** Kadrlar tayyorlash buyicha milliy dasturi.( Barkamol avlod-O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. 1997 yil T.,“SHarq” nashriyoti)

**3.** R.A.Mavlonova, O.T.To’raeva, K.M.Xoliqberdiev “Pedagogika” T., “O’qituvchi” 1998 yil

**4.** X.Sanaqulov ,M.Haydarov “Boshlang’ich sinflarda qog’ozdan amaliy ishlar” 1996 yil

**5.** R.A.Mavlonova ,Goroxova,Ogluzdina O., “Mehnat tahlim metodikasi” T., “O’qituvchi” 1986 yil

**6.** Pereverteng’. “O’quvchilarda ijodkorlikni shakillantirish”.T. “O’qituvchi”. 1990y.

**Mavzu: Mehnat tahlimining shakl va metodlari.**

Ilmiy-texnik tafakkurning borgan sari yoshlarning fan-texnikaning jo’shqin rivojlanishida faol ishtirok etishlari faqat tahlim mazmunini emas, balki o’qitish jarayoning usuli va tashkil etilishini, o’qitishga qiziqishini, ijodiy qobiliyatini, egallagan bilimlarini amaldа qo’llay bilishni rivojlantirish maqsadlarida yanada takomillashtirishni ham talab qiladi. Bu esa maktab

zimmasiga yoshlarda ijodga ehtiyoj uyg'otish, ijodiy qobiliyatlar, har qanday faoliyatga ijodiy yondashish asoslarini tarkib toptirishga, ijodiy masalalarni mustaqil hal etishga o'rgatish vazifasini yuklaydi.

Mehnat tahlimiga o'rgatishning ahamiyati mehnat malakalarini egallash imkoniyatini berish bilan cheklanmaydi, balki bu malakalar hamma uchun kerakligini ehtirof qilish kerak. Ko'pgina ilmiy kengashlar, agarda ularda qatnashgan kishilar turmush ishlarini bajarishni: ovqat pishirish, kiyim yamash, ozodalikni saqlash va shu kabilarni bilmaganlarida shunchalik muvaffaqiyatga erishmagan bo'lardilar.

Mehnat tahlimiga o'rgatishda ham zamonaviy pedagogika ishlarini to'g'ri tashkil etish va uning usullariga qo'yadigan umumiy talablariga muvofiq tarzda amalga oshirish kerak. O'qitish metodlari – bu o'qituvchi va o'quvchilarning usullari bo'lib, bular yordamida o'qituvchi o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini egallashlariga erishiladi. O'qituvchi o'z tajribasida o'qitishning xilma-xil usullaridan foydalanishi mumkin. O'qituvchining intilishi, hatti-harakati darsda o'quvchilarning diqqat-ehtiborlari susaymasligiga, fikrlarning jamlangan bo'lishiga, ularning chambarchasliklariga yo'llangan bo'lishi kerak. O'qituvchi darsning har bir daqiqasini qadrlab, o'quvchilarni ham shunga o'rgatish kerak. Har bir o'qituvchiga o'z uslubi, o'z usulining o'ziga xosligigi ega bo'lish huquqi berilgan. Biroq shuni aytish mumkinki, bularning barchasiga mustahkam bilim, bir qarashda hammaga ravshan bo'lgan haqiqatlarni egallab olganlaridagina erishish mumkin.

O'z faoliyatini o'qituvchilik mehnatiga baxsh etmoqchi bo'lgan o'qituvchilar mana shu hammaga mahlum haqiqatni o'zlashtirishdan boshlashlari kerak. Ular darslarda suhbat, gapirib berish, amaliy mashg'ulotlar kabilardan foydalanib o'zlashtirganini tekshirish, yangi mavzuni tushuntirish va o'tilganini mustahkamlashni eng boshidan o'rganishlari lozim. Faqat barchaga mahlum haqiqatlar o'zlashtirgandan keyingina va sinfning imkoniyatlarini nazarda tutib, yangisini qo'llash mumkin.

Mehnat tahlimi bilimlarini egallash, o'zlashtirish, amalda qo'llash va o'quvchilarni rivojlantirish faol jarayonining muvaffaqiyati asosan o'qituvchining bilimi hamda ishga ijodiy yondashishiga bog'liq.

Mexnat tahlimini amaliy mexnat faoliyati bilan birlashtirish va ukuvchilarning ilmiy bilimlarini chukur uzlashtirishini tahminlashda tahlimning turli usullaridan foydalaniladi. Nazariy materialni tushuntirish chogida ukituvchi ukuvchilarning bilimlari va tajribasiga suyanadi. Ukuvchilar tomonidan bajariladigan barcha mexnatga oid xarakatlar nazariy bilimlarni bilishga tayanadi.

Kur-kurona taxminiy yul bilan egallangan kunikma va malaka tor mahnoda bulib, puxta bula olmaydi. Amaliy topshiriklarni tanlash mexnat tayyorgarligini nazariy va amaliy saviyasini kutarish vazifalariga buysundirilishi kerak. Ukuvchilarga berigan topshiriklar ularni ijodiy izlantirish, tahlim olish va adabiyotlar bilan ishlash malakasini shakllantirishi lozim.

Boshlangich sinflarda ish materiallarining mazmuni, xajmi va usullari ukuvchilarning tayyorgarlik boskichiga mos kelishi zarur. Ukuv materiallarini ukuvchilarga yetkazib berishda fakat soddalashtirish yuli bilan borish maksadga muvofik bulmaydi. Bunday yul bilan borish ukuvchilarning akliy rivojlanishi tahminlay olmaydi. Xar bir mavzuni urganishda soddadan murakkabga karab borish maksadga muvofikdir.

Ko’pgina o’qituvchilar o’qitishning turli metod va usullarini qo’llab shunungdek, sinfdan tashqari ishlarni qiziqarli tashkil etib, yaxshi o’zlashtirish natijalariga erishmoqdalar va bilimga muhabbat hamda qiziqishlarini sindirmoqdalar. Bunday o’qituvchilar qo’l mehnatini o’rgatishda o’quvchilarga turmush sohasidagi bilim va ko’nikmalarni singdirish bilan birga, ularda ijodiy qobiliyatlarni va bilishga qiziqishini, mustaqil faollikni o’stirishga yordam bermoqdalar.

O’qitish usullari bilimlarni shunday darajada egallanishiga xizmat qilishi kerakki, unda o’quvchilar chizmani o’qituvchi chizgan o’lchamlar asosida emas, balki buyumni istalgan o’lchami bo’yicha chizib, egallagan bilimlarini amalda qo’llay olsinlar.

Qo’l mehnatiga o’rgatishda qo’llaniladigan asosiy usullar tizimi qo’ydagichadir:

1. Og’zaki bayon qilish.
2. Tushuntirish va hikoya qilish.
3. Suhbat.
4. Mashqlar.
5. Amaliy ishlar.
6. Labaratoriya ishlari.
7. Mustaqil ishlar.
8. Ekskursiya.
9. Kitob bilan ishlash.
10. Texnik vositalar.

Mehnat tahlimi jarayonida o’quvchilarni mehnat tahlimi va tarbiyasiga tayyorlashda mana shu usullardan samarali foydalanilsa o’qituvchi o’quvchilarning mehnat tahlimi va tarbiyasining malaka va ko’nikmalarini egallashlariga va mehnatga tayyorlash to’g’ri tarbiyalansa, haqiqiy mehnatkash uchun zarur bo’lgan sifatlar shakllanadi.


Оғзаки баён қилиш
Тушунтириш ва ҳикоя қилиш
Суҳбат
Машқлар
Амалий ишлар
Қўл меҳнатининг асосий усуллари
Лаборатория ишлари
Мустақил ишлар
Экскурсия
Китоб билан ишлаш
Техник воситалар

**Og'zaki bayon qilish** usuli ikki xil ko'rinishda bo'lishi mumkin: 1. Monologik bayon qilish, bunda faqat o'qituvchi gapiradi, o'quvchilar esa uning nutqini idrok etib, anglab oladilar. Qo'l mehnati darslarida u tushuntirish va hikoya qilish, instruktaj ko'rinishida bo'ladi. 2. Dialogik bayon bo'lib bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro suhbatidir.

**Tushuntirish va hikoya qilish** Bu usulda materiallni jonli va obrazli bayon qilishdir. Bu holda yangi bilimni o'qituvchining o'zi beradi. Bahzan suhbat davomida o'quvchilarning qanchalik o'zlashtirayotganliklarini bilish maqsadida ularga savollar bilan murojaat etish maqsadga muvofiqdir. Hikoya agar bajarilgan ishlar, natural rasmlar, rasmlar, fotosuratlar va shu kabilarni ko'rsatib bajarilsa, anchagina tushunarliroq bo'ladi. Bu o'rinda tushuntirayotganda – ko'rsat va tushuntir degan qoida bajariladi. Yangi materialni bayon qilishda o'quvchilarning bir xil emasligini nazarda tutish lozim. Tushuntirishda bu o'zlashtiruvchilarga alohida ehtibor berish lozim. Hikoya qilish jarayonida ularning idroklarini faollashtirish maqsadida tushuntiralayotgan material yuzasidan ularga bir-ikkita savol berish mumkin.

**Suhbat** turli o'quv maqsadlarda, yahni yangi dastur materialini bayon qilish, bilimlarni rejalashtirish va chuqurlashtirish uchun takrorlash jarayonida, o'quvchilarning bilimini tekshirish uchun qo'llanishi mumkin.

O'quvchilarni ulardagi qiziquvchanlikni qo'zg'ab, savollar berishga undash foydalidir. Umumlashtiruvchi suhbat yaxshi samara beradi.

Suhbat xuddi hikoya singari mahlum talablarga javob berish kerak, yahni:

- savollar shunday shakllantirishi lozimki, ular o'quvchilar tafakkurini faollashtirsin, ularni aniq va ishonarli javobni izlashga undasin;
- mavzuni ochib berishda izchillik bo'lishi uchun suhbatning rejasi oldindan tuzib qo'yilgan savollari albatta bo'lishi kerak;
- o'quvchilarning diqqati qaysi dalil va xulosalarga qaratilishi oldindan belgilanishi lozim.

Suhbat o'quv materilining chuqur va ongli egallanishiga yordam berishi: o'quvchilarda bo'lajak amaliy ishni ongli rejalashtirish malaka va ko'nikmalarini shakllantirishda vosita xizmatini o'tashi; egallangan bilimlarni amalda qo'llash malakalarini sindirishga yordam berishi kerak.

**Mashqlar** olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. O'qituvchi ko'nikma va malakalarni mastahkamlash maqsadida o'quvchilarga turli mashqlar beradi, bunda u ijodiy xarakterdagi ishlarni tashkil etib ko'proq mustaqillik talab etuvchi mashqlarni nazarda tutadi.

Bu metodning mohiyati borgan sari murakkablashib boruvchi usul va harakatlarning ongli hamda ko'p marta takrorlashidir.

Mashqlar ommoviy va yakka tartibda bo'ladi, yahni butun guruxda bir xil ishni va barcha o'quvchilar turli ishlarni bajarishlari mumkin.

Mashqlarning xarakterli xususiyati ayni bir harakatning takrorlanishi bo'lgani uchun o'quvchilarda bajarilayotgan ishga nisbatan qiziqishini saqlash talab etiladi.

Mashqlar yakunida ishlarni tahlil qilish, eng yaxshi ishlarning tahliliga tayanib, kim qanday natijalarga erishganligini ko'rsatish lozim. Ayni bir vaqtda kamchiliklar ustida ham to'xtash va ishning sifatini yaxshilash yoki bajarish tezligini oshirish uchun nimalar qilish kerakligini tushuntirish lozim.

**Amaliy ishlar** o'quvchilarga egallangan bilimlarini amalda qo'llashni o'rgatishga yordam beradi. Amaliy ishlarni bajarish rejasini o'quvchilarning o'zlari mustaqil tuzishlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Ko'rgazmali qurollarni o'quvchilar tomonidan bajarilishini ham amaliy ishlarga kiritish mumkin. Bu egallagan bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

**Laboratoriya ishlari** ishlari tahlimning turli bosqichlarida bo'lishi mumkin. Laboratoriya ishlarini o'tkazilishi egallagan bilimlarni ishonarlilik kuchini oshiradi, bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi, ularni amalga qo'llashga o'rgatish uchun xizmat qiladi.

Laboratoriya ishlari yangi bilimlarni berish maqsadlarida ham o'tkazilishi mumkin.

Laboratoriya ishlari jarayonida o'quvchilarda mahsuliyatni his etish, kuzatuvchanlik, diqqatlilik rivojlanadi.

**Mustaqil ishlar** – bu o'qituvchining bevosita ishtiroksiz, biroq uning topshirig'i bilan maxsus ajratilgan vaqtda bajariladigan ishlardir. Bu o'rindda o'quvchilar o'zlarining intilishlarini qo'llab hamda aqliy va jismoniy harakatlarining natijalariniu yoki bu formada ifodalab, topshiriqda qo'yilgan maqsadga ongli ravishda erishishga harakat qiladilar.

Dastlabki darslardan boshlab ishni shunday tashkil etish kerakki, o'quvchilar qo'l mehnatini egallash uchun nazariy bilimlar va amaliy malakalar o'rtasida uzviy aloqada bo'lishi kerakligini his etsinlar. O'quvchilarda malakani shakllantirish ongli faoliyatdan ajralgan holda bo'lmasligi kerak.

Mustaqil ishlarni bajarish jarayonida malakalar shakllanishi bilan birga o'quvchilar o'z kuchlari, bilim va qobiliyatlarini sinovdan o'tkazadilar.

Mustaqil ishlarning keng qo'llanilishi o'quvchilarda ishga ijodiy yondashishni, ulardagi bilishga, qiziqishlarini, olingan bilimlarni amalda qo'llay bilishni rivojlantirishga yordam beradi.

**Ekskursiya -** bilishga qiziqishni avj oldirishda, o'quvchilarga mustaqillik malakalarini singdirish va hayotni bilishda muhim o'rinni egallaydi. Agarda ekskursiyalarni o'tkazishda ishlab chiqarish vakillari ham qatnashsa, us yanada samaraliroq bo'ladi. Ekskursiya jarayonida o'quvchilar ishlab chiqarish texnologiyasi bilan yaqindan tanishadilar. Ekskursiyani o'tkazishdan oldin o'quvchilar oldiga aniq maqsadlar qo'yish, ekskursiyadan so'ng savol-javob o'tkazish lozim. Masalan, to'qimachilik kombinatiga ekskursiya uyushtirishdan oldin o'quvchilarga guruhlar bo'yicha topshiriqlar

berish mumkin. Guruhlardan biri ekskursiyadan so'ng alg'bomni jihozlaydi, yigiruv tsexini eng yaxshi ishchilarini yozib chiqadi, rasmlar chizadi, ikkinchi guruh to'qishning texnologik jarayonini yozadi, uchunchi guruh ishni bo'yash bo'limida olib boradi va hokazo.

**Kitob bilan ishlash.** Hozirgi kunda mehnat tahlimi bo'yicha 1,2,3,4- sinflarga mo'ljallangan "Mehnat" darsliklari asosida o'qituvchidan o'quvchilarni kitob bilan ishlashga o'rgatish talab qilinadi. Bu maqsadda qo'yidagi kitoblardan: Kuznetsovning "1-3 sinflarda qog'oz va karton bilan ishlash", "Boshlang'ich sinflarda texnik modellash", "1-3 sinflarda mehnat bo'yicha alg'bom", "Boshlang'ich sinflarda tabiiy materillar bilan ishlash" kabilardan foydalanish mumkin.

O'quvchilarni kitob bilan tanishtirishdan oldin o'qituvchining o'zi bu kitobni puxta o'rganib chiqishi, undan nimalarni tavsiya etish mumkinligini belgilab chiqishi lozim. O'quvchilarni kitob bilan mustaqil ishlashga ata-sekin o'rgatib borish kerak.

**Texnik vositalar** qo'l mehnati mashg'ulotlarida ayrim bo'limlarni o'rganish, kasblar, materiallarni tayyorlash texnologiyasi, xavfsizlik texnikasi qoidalarini tanishtirish munosabati bilan qo'llaniladi.

Aytib o'tilgan usullar mehnat tahlimi o'qituvchilari tomonidan muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Bilimlarni egallash, o'zlashtirish, amalda qo'llash va o'quvchilarni rivojlantirish faol jarayonining muvaffaqiyati asosan o'qituvchining bilimi hamda ishga ijodiy yondashishiga bog'liq. Mehnat o'qituvchisi dasturda nazarda tutilgan mehnatning barcha turlarini bir xil yaxshi bilishi kerak. Faqat ijodiy fikr yuritib ishlaydigan, o'z ishida o'qitishning turli usullari bilan birga, pedagogik texnologiyalardan va interfaol metodlardan foydalanib darslarni tashkil etgan o'qituvchigina jamiyatning maktab oldiga qo'ygan vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishda yordam berishi mumkin.

O'quv materialini mumkin qadar qiziqarli va o'qimishli qilinganda, u yaxshiroq egallanib, o'quvchining qalbiga singadi va uni amalda qo'llash osonroq bo'ladi.

Har bir o'quvchidagi qiziqish turlichadir, shunday ekan, o'qitishda yakka tartibda yondashishni oshirish kerak bo'ladi. Bundan tashqari bir sinf, bir yoshdagi o'quvchilarning rivojlanganlik darajasi hamda bilimlarni egallash tezligi turlichadir.

Darslarni to'g'ri tashkil etishda xar xil o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashni oldindan o'ylab qo'yilgan tuzilishi bo'lishi muhimdir. Bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilarga ham, yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilarga ham oldindan alohida topshiriqlar tayyorlab qo'yish kerak.

Har bir o'qituvchiga o'z uslubi, o'z usulining o'ziga xosligiga ega bo'lish huquqi berilgan, biroq shuni aytish kerakki, bularning barchasi mustahkam bilim berish, mehnat sohasidagi malaka va ko'nikmalarini egallash, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, bilimga qiziqishini o'stirishga yordam beradi.

O'quv jarayonini takomillashtirish, o'qitishning yangi shakl hamda metodlarini tadbiq qilish, o'quvchilarda qiziqishni oshirishga, darslarning samaradorligini kuchaytirishga, bilish faolligini oshirishga yordam beradi. Bilish faolligini rivojlantirish o'z navbatida buyumga, mazkur holatda – xizmat ko'rsatuvchi mehnatga qiziqishini rivojlantirishda ko'maklashadi.

SAVOLLAR.

2. 2.Mehnat tahlimi metodlari mazmuni nimalardan iborat.
3. 3.Mehnat o'qituvchilarining ushbu metodlardan foydalanishi.

TOPSHIRIQLAR.

1. Mehnat tahlimida o'qitish metodlariga tahrif bering.
2. Amaliy mehnat ish turlarini keltiring..

ADABIYoTLAR.

**1.** R.A.Mavlonova, O.T.To'raeva, K.M.Xoliqberdiev "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 1998 yil

**2.** X.Sanaqulov, M.Haydarov "Boshlang'ich sinflarda qog'ozdan amaliy ishlar" 1996 yil

**3.** R.A.Mavlonova, Goroxova, Ogluzdina O, "Mehnat tahlim metodikasi" T., "O'qituvchi" 1986 yil

**4.** SHumulevich N.M. "Qog'ozdan texnik modellar yasash" T.,"O'qituvchi" 1989 y

**5.** Vorobg'yov A.SH. "Konstruktorlik va modellashtirish" T., "O'qituvchi"1989 yil

## Mavzu: Mehnat darslarida qo'l mehnatining usullari.

Qo'l mehnatiga o'rgatishda boshqa fanlarni o'rgatishda bo'lganidek, o'qitishning xilma-xil usullarini qo'llab, ular yordamida o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini egallab olishlariga, shunungdek bilish qobiliyatlarini rivojlanishiga erishiladi.

O'quvchilar bayon etilayotgan aynan buyum emas, balki o'z so'zlari bilan buyumni bajarilishini eslashlari talab etiladi. Biroq, asosiy o'rinni hali ham namuna, tayyor ko'rgazma bo'yicha ishlash egallaydi. Hozirgi zamon maktabi darsning zamonaviyligini oshirdi, takomillashtirishda va unga sayqal berdi. O'qituvchi darsga tayyorlanar ekan, har bir tayyor mavzu mazkur dars

uchun uning maqsad va vazifalariga muvofiq keladigan ishni usul va ko'rgazmali qurollarni tayyorlaydi.

Qo'l mexnati darslarida odatda bir yoki ikki asbobdan foydalaniladi, ularni esa navbatchilar tarkatadi. Stolning ustida dikkatni chalgitadigan xch kanday ortikcha narsa bulmasligi kerak.

Asboblarni, ayniksa kesuvchi asboblarni charm gilofda saklagan mahkul. Xar bir gilof asbobning mahlum turiga muljallangan buladi. Navbatchi ukituvchi asboblarni tarkatishni doimo birinchi partadan boshlaydi, bunda ukuvchilar tartib va tejamkorlikka urganadilar.

Xamma foydalanadigan asboblar sinf shkaflarda saklanadi, ishdan sung asboblarni ukuvchilar tozalab yuvib, artib navbatchi ukuvchiga topshiradilar.

Ish xonasida ukuvchilarga asboblarni ishlatish va saklash koidalarini eslatib turuvchi plakat – eslatmalar osiglik bulishi kerak. Xavfsizlik texnikasiga koidalariga tulik rioya kilish baxtsiz xodisalarning oldini oluvchi ishonchli garovdir. Asboblarni ishlatish koidalarini ukuvchilar vakti-vakti bilan takrorlab turishi lozim. U yoki bu koidani tushuntirishda ukituvchi nima uchun aynan shunday kilish krakligini, bu koidalarga rioya kilinmasa kanday xodisalar ruy berishi mumkinligini uktirishi lozim. Xafvsizlik texnikasining barcha koidalari suzsiz bajarilishi lozim.

Ish xonalarida ishlash va asboblardan foydalanish buyicha texnika xavfsizligi koidalarni kuyidagicha umumlashtirish mumkin.

1. Ish xonasiga fakat ukituvchi ruxsati bilan kiriladi.

2. Xar bir ukuvchi fakat uz ish joyida ishlaydi. Agarda ish jamoa ravishda kilinadigan bulsa, ukuvchilar uz majburiyatlarini yaxshi biladilar.

3. Ish fakat ukituvchining ruxsati bilan boshlanadi.

4. Ishni boshlashdan oldin, ish joyingni tayyorla, asboblarni tugri va kulay joylashtirish: Ung kul bilan ushlanadigan asboblarni ung tomonga, chap kul bilan ushlanadiganini chap tomonga kuy, sanchiladigan, kesadigan asboblarni xech kachon ikkita asbob orasiga kuyma, ularni doimo uz joyiga, utkir tomonini narigi, dastasini uzing tomonga kilib kuy. Asboblarni uynama, ular uyinchok emas.

5. Ish vaktida ish joyingni tartibli sakla.

6. Utmas yoki buzuk asbob bilan ishlama.

7. Asbobni ishlatganda, uni ukituvchi kursatganidek ushla.

8. Asboblarni asra, ularni tugri, uz urnida ishlat, ishlatgandan sung ularni tozalab, yuviladiganlarini yuvib, artadiganlarini artib kuy.

9. Narsani, xar bir detalni oldingi safargidan yaxshirok, chiroylirok, tartiblirok kilishga xarakat kil.

10. Ishni tugatdingmi, ish joyingni tezda tozalab tartibli kilib kuy.

<u>Turli asbob va uskunalardan foydalanishda xavfsizlik texnikasi koidalari:</u>

*Kaychidan foydalanish koidalari.*

1. Kaychini belgilangan joyda, belgilangan xolatda sakla.
2. Kaychini uchini yukoriga kilib ushlama.
3. Kaychini ochik xolda koldirma.

4. Kaychini yurib turganingda ishlatma.
5. Kaychini fakat yopilgan xolda uchidan ushlab urtoginga uzat.
6. Kaychini shlatayotganda kesilishning yunalishi va materialni ushlab turgan chap kul barmoklarini kuzatib tur.
7. Yaroksiz kaychini ishlatma, ukituvchiga topshir.

*Bigizdan foydalanish koidalari.*

1. Bigizni urinsiz ishlatma.
2. Sirti sillik, sirganchik kattik predmetlarni bigiz bilan teshma.
3. Teshiladigan predmetni kulingda ushlama, uni stol, taglik ustiga kuyib tesh.

*Pichok bilan ishlash koidalari.*

1. Uchi yumalok pichokdan foydalan.
2. Pichokni ukituvchi kursatganidek ishlat, kesganda kattik bosma.

*Nina bilan ishlash koidalari.*

1. Ninani ishlatib bulgach, maxsus nina yostikchaga sanchib kuy.
2. Ninanni xch kachon ogzingga olma.
3. Zapas ninalarni ignadonda kuruk xolatda sakla.
4. Ishdan oldin va ishdan keyin ninalarni sanab kur, yetishmagan ninalarni albatta top.
5. Kogoz va kartondan narsalarni yasaganda birinchi teshikni albatta bigiz bilan teshib ol.

Kurilgan choralarga karamay sinfda baxtsiz xodisa ruy bersa, ukituvchi birinchi yordamni kursatishi va maktab vrachini chakirishi lozim. Ish xonasida yod, bint solingan aptechka bulishi shart.

Boshlangich sinf kul mexnati darslari uchun ukuvchilar shaxsiy papkalarini kullanilishi 1-3 sinf ukuvchilariga kul mexnati darslarini metodik tugri tashkil etish va ularni muntazam utkazish imkonini beradi.

Bunday papkalarning kulayligi shundaki, unda xar bir ukuvchi dars vaktida kerakli xamma narsalarga asbablar, materiallar, buyumlarga ega buladi. Papka ukuvchilarga mexnat madaniyati malakalarini singdirishda yordam beradi. SHunungdek, papka ukuvchilarda uz ish joylarini va mexnat jarayonini uyushtirish, kunikma xamda malakalarini shakllantirishga xam yordam beradi. Bunday eng oddiy mexnat malakalarini ukuvchilarda birinchi sinfdagi dastlabki kul mexnati darslaridan boshlab shakllantira borish va ularni asta-sekin takomillashtirish maksadga muvofikdir.

## SAVOLLAR.

1. Kul mexnatining usullari nima.
2. Ish xonalarida ishlash va asboblardan foydalanish buyicha koidalari kanday.
3. Texnika xavfsizligi koidalari nimalardan iborat.
4. Kaychi bilan ishlash koidalari nechta.

TOPSHIRIQLAR.

1. Qo'l mehnati amaliy ishidan namunalar keltiring.
2. Amaliy dars ishlanmasini yozing.

ADABIYoTLAR.

**1.** R.A.Mavlonova, O.T.To'raeva, K.M.Xoliqberdiev "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 1998 yil

**2.** X.Sanaqulov, M.Haydarov "Boshlang'ich sinflarda qog'ozdan amaliy ishlar" 1996 yil

**3.** R.A.Mavlonova, Goroxova, Ogluzdina O, "Mehnat tahlim metodikasi" T., "O'qituvchi" 1986 yil

**4.** SHumulevich N.M."Qog'ozdan texnik modellar yasash" T.,"O'qituvchi" 1989 y

**5.** Vorobg'yov A.SH. "Konstruktorlik va modellashtirish" T., "O'qituvchi" 1989 yil

**Mavzu: Boshlang'ich sinflarda mehnat darsini olib borilishi.**

Boshlang'ich sinflarda mehnat tahlimiga tayyorlash dasturi bolalarni har tomonlama kamol toptirishga aqliy va jismoniy, ahloqiy va estetik, iqtisodiy va ekologik bilimlarini shakllantirishga va tarbiyalashga qaratilgan bo'lib o'z oldiga qo'yidagi maqsadlarni qo'yadi.

a) Bolarning mehnat tajribasini ularning kishilarning ishlab chiqarish faoliyati to'g'risidagi bilimlarni kengaytirish, mehnatsevarlik, mehnatga va mehnat kishilariga munosib munosabat ruhida tarbiyalash;

b) Mehnat malakasi, mehnat madaniyati asoslarini, o'z ishi va o'rtoqlari ishini rejalashtirish va tashkil qilish malakalarini rivojlantirish.

Dasturda turtta asosiy ish turlari bor.

1.Qog'oz va karton bilan ishlash.
2.Turli materiallar bilan ishlash.
3. Gazlama (tikish va bichish) bilan ishlash.
4.Texnikaga modellash.
5. Qishloq xo'jaligi mehnati.

O’z-o’ziga xizmat ko’rsatish bo’limi o’zlarining kiyim-kechaklariga va turar joylariga qarashni, nonushta, tushlik va kechki ovqat uchun dasturxon tuzashni o’z ichiga oladi. Bu darslarni yil boshida utkazish tavsiya etiladi, bundan maqsad o’qituvchilarni va ota-onalarni yil davomida bolalarning olgan bilimlarini qanday qo’llayotganliklarini va sinfda navbatchilik qilganda o’z-o’ziga xizmat ko’rsatish, uyda ota-onalariga yordam berishlariga imkon berishdir.

Texnikaga oid mehnat bulimi mehnatning quyidagi turlarini: qog’oz va karton bilan ishlash, mato bilan ishlash, turli xil materiallardan plastilin, tabiiy va neorganik materiallar somon, quritilgan barglar, patlar, chig’onoq, loy, qum, tsement,yog’och, yumshoq sim, tunuka va boshqa materiallar bilan ishlashni o’z ichiga oladi.

Bolalarga buyumlarni yasash tartibi haqida, yahni yig’ish, ishlov berish to’g’risida, ishlatib ko’rish xato va kamchiliklarni yo’qotish haqida ish urnini tashkil qilish va boshqalar to’g’risida tasavvur hosil bo’ladi. Bu elementlarning barchasi keyinchalik modellar va texnikaviy uyinchoqlar tayyorlashda qo’llaniladi, umumlashtiriladi, bolalarning ijodiy fikrini o’stiradi, To’plangaen mehnat tajribasini tevarak-atrofdagi texnika bilan bog’lashlariga yordam beradi.

Qishloq xo’jaligi mehnati bu darslarda o’quvchilar sinfdagi jonli tabiat burchagi va maktab tajriba hovlisida o’simliklarni o’stirishga, ko’paytirishga va parvarishlashga oid ishlar bilan shug’ullanadilar.

Mehnat tahlimi dasturi talablari quyidagilarni o’z ichiga oladi.

1. Buyumlarni kundalik uchun zarurligi.
2. Narsa-buyum yoki ishni bajarish jarayonida bolalarga berish mumkin bo’lgan dasturda ko’rsatilgan bilim va malakalarining mazmundorligi.
3. Barcha o’quvchilarni darsda band qilish imkoniyati.

Mehnat tahlimining yangi dasturlari, metodlari va tashkiliy shakllari asosida ishlab chiqiladi. Mehnat dasturlarida mehnat madaniyatining malaka va ko’nikmalari aks ettirilgan bo’lib, unga qarab maktab o’quvchisi, o’qituvchisi va maktab faoliyatiga baho beriladi. O’qituvchi o’quvchilarning u yoki bu xususiyatlarini, mehnat madaniyatining tarkibiy qismi birligini hisobga olganda dastur tuzib chiqadi.

Mehnat tahlim yo’nalishlaridan birinchisi bolada va o’smirda inson mehnati haqida va uning mehnatining mahsuli yaratilgan buyumlar to’g’risida, ishlab chiqarish muhiti, materiallarni ishlab chiqarish texnologiyasi, moddiy ishlab chiqarish iqtisodiyoti haqida tasavvurlar hosil qilishga har tomondan yondashishni talab qiladi.

Mehnat tahlimining yo’nalishining ikkinchisi, o’quvchilarda oilada va turmushdagi vazifalarni taqsimlash, ularni bajarish to’g’risidagi tasvvurlarni shakllantirish.

Mehnat tahlimining yo’nalishining uchunchisi esa hozirgi zamon o’quvchisi tabiatga ekologik munosabatda bo’lishni shakllantirish, uni qishloq xo’jaligi sohasidagi malaka va ko’nikmalari bilan qurollantirish kerak.

Mehnat tahlimi jarayonida hosil qilingan bilimlar, malakalar va ko'nikmalar maqsadsiz emas, balki insonning asosiy qobiliyati – mehnatga bo'lgan qobiliyatini rivojlantirish vositasi hisoblanadi.

**Mehnat darsining maqsadi** – shaxsning turmush tarziga, mehnat madaniyatiga qaratilgan barqaror yo'l yo'riqni qaror toptirish, ijodiy mehnat qilishga, amaliy, ahloqiy va ruhiy tayyorgarlikni amalga oshirish, o'quvchilarni halq xo'jaligidagi muvoffaqiyatli mehnat faoliyatida zarur bo'lgan ijodiy qobiliyatlarni, aqliy, jismoniy fazilatlarni rivojlantirishdir.

Mehnat tahlimi o'zining bosqichlarida bolalar, o'smirlar va yoshlarning yoshi, funktsional imkoniyatlarining o'ziga xosligi, ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy mavqiega muvofiq ravishda ko'p tomonlama yo'nalishga ega bo'lishi lozim. U qo'ydagilarni taqozo etadi.

- Mehnatsevarlikni tarbiyalash, mehnat qilishga ehtiyojni, unga ongli, ijodiy munosabatda bo'lishni, o'z maxoratini doimo takomillashtirishga intilishni shakllantirish;
- Kasbiy faoliyati uchun ahamiyatli bo'lgan psixo-fizologik funktsiyalarini, shaxsning kasb-korlik jihatidan muhim bo'lgan umumiy va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- Tanlangan faoliyat sohasiga kasbiy faoliyatni keng politexnik bilim doirasi va kasbiy harakatchanlik bilan birga qo'shgan holda shakllantirish;
- Bunyodkorlik faoliyati jarayonida haqiqiy mehnat munosabatlariga kirishi, jamoa mehnatiga ijtimoiy tajriba to'plash;
- SHaxsning barcha sohalarida madaniyatni tarbiyalash;
- Zamonaviy iqtisodiy bilimlarni egallash, yangicha iqtisodiy tafakkurni, omilkorlikni shakllantirish, haqiqiy iqtisodiy faoliyatida ishtirok etish;
- Mustaqillikni, tashabbuskorlikni tarbiyalash, muammoli vaziyatlarni ijodiy ravishda hal qilishga hozirlikni shakllantirish, ishlab chiqarishni boshqarishda ongli ravishda va faol ishtirok etish.

## SAVOLLAR.

1.Boshlang'ich sinflarda qanday ish turlari mavjud?
2.Ish unumini oshirishda nimalarga ehtibor berilishi zarur?
3.Mustaqil ishlarning bosqichlarini ayting?

## TOPSHIRIQLAR.

1. Mehnatga oid maqollardan namunalar keltiring.
2. Mehnat tahlimida kasb-hunar tarbiyasiga qaratilgan talablarni ayting.

## ADABIYoTLAR.

**1.** R.A.Mavlonova ,O.T.To'raeva , K.M.Xoliqberdiev "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 1998 yil

**2.** X.Sanaqulov ,M.Haydarov “Boshlang’ich sinflarda qog’ozdan amaliy ishlar” 1996 yil

**3.** R.A.Mavlonova ,Goroxova,Ogluzdina O., “Mehnat tahlim metodikasi” T., “O’qituvchi” 1986 yil

**4.** SHumulevich N.M.“Qog’ozdan texnik modellar yasash” T.,“O’qituvchi” 1989 y

**5.** Vorobg’yov A.SH. “Konstruktorlik va modelleshtirish” T., “O’qituvchi”1989 yil

**6**. N.Gushkin. V.R.Xiltunin. “Mehnat eng yaxshi tarbiyachi”. T.1988y.

**7.**.Mavlonova.R.A. “Boshlang’ich sinf mehnat darsliklari”. T. 1996y.

## Mavzu: Mehnat darslarida o’quv jarayonini tashkil etish.

Mehnat fanidan o’quv jarayonini tashkil qilish o’quvchilarni muayyan mehnat malakasi va ko’nikmalari bilan qurollantirishgagina xizmat qilib qolmay, balki ularning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini o’stirish va ularda mehnatga munosabatini tarbiyalashda ham juda muhim ahamiyatga ega bo’lgan mehnat darslari g’oyat zarurdir. O’qituvchining o’z fanini yaxshi bilishi o’quvchilarning muvaffaqiyat bilan o’qitishning eng muhim shartlaridan biridir.

O’z fanini yaxshi bilgan o’qituvchi biror buyum narsani tayyorlash usulini mahorat bilan tushuntirish va ko’rsatib bera oladi, bu esa mehnat amallarini o’quvchi to’g’ri idrok etishni tahminlaydi. O’qituvchi shu munosabat bilan darsga puxta tayyorgarlik ko’rishi, bolalarga ko’zrsatadigan buyum narsani o’qituvchining o’zi oldindin tayyorlab ko’rishi lozim, chunki buyum narsani tayyorlash davomida qiyin ish usullarini qo’llashga to’g’ri kelib qolishi mumkin. Agar o’qituvchining o’zi narsalarni oldindan tayyorlasa o’quvchilarga uni tayyorlatishning xiyla mukammalashgan metod va usullarini ko’zda tutgan bo’ladi.

Har bir dars o’quvchilarning bilim va malaka doiralarini kengaytirishi hamda mustahkamlashi, ularda barqaror ijobiy ko’nikma va odatlar hosil qilishga yordam berishi lozim.

Dars vazifasini faqat bilim berish va ko’nikma hosil qilishdan iborat qilib qo’ymasligi balki tarbiya berish va kamol toptirish vazifalari bilan organik bog’lab olib borish ham zarur.

SHuning uchun ham o’qituvchi o’zi o’qitayotgan bilimini bilishi lozim. Bu esa biror temaga tayyorlana turib, o’qituvchi mazkur dars materiali asosida

o’quvchilarning ahloqiylikning qanday g’oyalarini anglashga olib kelajagini diqqat, fikrlash, xotira, tasavvur, irodani rivojlantirish va boshqa shu kabilar sohasida shaxs sifatini qanday kamol toptirishga erishishini aniq tasavvur qilmog’i lozim.

Agarda bolalar yaxshi yoritilmagan sinfda, yoshiga mos kelmaydigan qo’pol, og’ir asboblar bilan ishlasalar, bu ularning ish natijalariga juda yomon tahsir ko’rsatadi. Mehnat madaniyati malakalari ko’p marotaba takrorlanadigan mashqlar natijasida hosil bo’ladi, bunda mashqlar davomida har bir mashq jarayonida o’rnatiladigan tartib va ish harakati izchilligini sistematik suhratda tushuntirish berish zaruriyati bilan birga qo’shib olib boriladi.

Mehnat va politexnik jihatdan tayyorlashning yangi dasturi “taqlid qilish” metodikasini mehnat darsidagi ish sistemasi sifatida rad etadi, tajriba shuni ko’rsatadiki, bolalar butun buyumni tuzulishini yaxshi tasavvur etsalargina ish opreatsiyasi va asboblar bilan ishlash usullarini tezroq va puxtaroq o’qib oladilar, o’qituvchi ayniqsa birinchi sinf o’quvchisi o’qituvchiga taqlid qilishga intiladi. SHu sababli o’quvchi boshdan boshlaboq faqat to’g’ri usullarni ko’rishi va eslab qolishi lozim. Bordi-yu o’qituvchi qo’llamasligi lozim bo’lgan noto’g’ri ish usulini har doim tahkidlab ko’rsataversa o’quvchi shuni eslab qolishi mumkin, u o’quvchilar ongiga singshib olib, keyin uni tuzitish ancha qiyin bo’ladi.

Mehnat darslarida birinchi sinf o’quvchilarining ishlarini kuzatish natijasida o’quvchilarni topshiriqlarni olib, buyum narsani xuddi namunadagidek yasash uchun namunani uning qurilishi nuqtai nazardan sinchklab qarab chiqib, buyumni yasash yo’llarini qunt bilan izlaydilar.

Birinchi sinf mehnat darslarida, odatda tayyorlanishi kerak bo’lgan buyum narsaning namunasi ko’rsatiladi. Bunda birinchi sinf o’quvchilari uchun real, buyum narsa, buyumning namunasi zarurligi nazarda tutiladi, bolalar unga qarab mazkur buyum narsa qanday qilinganligini, qanday qilib xuddi mana shunday tayyorlash mumiknligini o’ylab oladilar.

O’qituvchi yangi mavzuga metodik jihatdan qanchalik to’g’ri yondashmasin, uni suhbat va ko’rsatmada qanchalik tushunarli qilib izohlanmasin, baribir bolalar dastlabki vaqtlarda mehnat usullarini har doim ham to’g’ri qo’llavermaydilar. O’quvchi ko’p savollarni mustaqil hal qilishi kerak. O’quvchilarning hayotga mustaqilligi aktiv fikrlash faoliyatini, tashabbusni paydo bo’lishi, uchragan qiyinchiliklarni yengishi, avval hosil qilingan mehnat bilimi va malakalarini oqilona va ijodiy qo’llay bilishni o’rganish lozim.

Mustaqil mashg’ulot soatida asosiy faol shaxs bolalar. Lekin bunga qaramay darsning bu bosqichida ham o’qituvchining vazifasi benihoyat katta va mahsuliyatlidir. Bunday mashg’ulotlarda maqsadni aytib, ish usullarini ko’rsatib qo’ya qolish kifoya, bolalar erkin ishlashni kerak deb o’ylash katta xato bo’ladi. O’qituvchi mumkin qadar kamroq so’zlash, sekin ohista ovoz bilan gapirishni odat qilishi, o’quvchilarga sezdirmay ularning xarakterini kuzatish, ularni yaqinlashish va uzoqlashishini, o’rniga qo’yib gapirishni yoki jim turishni o’rganish lozim. Qoloq o’quvchini yaxshi o’zlashtiralidgan

o'quvchiga biriktirib qo'yish kerak. Masalan tikishda o'g'il bolalar odatda orqada qoladilar ularga qizlar yordamini biriktirib qo'yiladi, aksincha texnikaviy modellashda o'quv tajriba hovlisidagi ishlarda bolalar qizlarga yordamlashishlari kerak.

SHu tarzda o'quvchilarda o'rtoqlarcha o'zaro yordam hissi tarbiyalanadi. O'qituvchi har bir o'quvchining imkoniyatlarini hisobga olib bolalarni ruhlantirish lozim. Bolalar mustaqil ishlayotganda o'qituvchining mehnati oson emas, balki yanada qiyinroq, biroq ijodiy mehnat singari huzurbaxshdir.

O'quvchilar mustaqil ishlayotganda o'qituvchi passivdek ko'rinadi, lekin aslida o'qituvchi oldida u rahbarlik qilish lozim bo'lgan xilma-xil xususiyatli o'ttiz-qirq bola bor. Bahzilarini butun dars davomida bezovta qilmaslik lozim, boshqalarga ko'rsatma berish kifoya, qolganlari yordamga muhtojdir. Mustaqil mashg'ulot vaqtida bolalar qo'ng'iroqni ham sezmay qoladilar, hatto ishini davom ettirishga ruxsat etilsa quvonadigan hollar ham bo'ladi. O'zlariga yoqqan ishga sho'ng'ib ketib va tez ishlaydigan o'rtoqlarini ko'rib bolalar bor-bora o'zlarining ish suhratini tezlashtirishni odat qilib oladilar. Ishni o'z vaqtida tekshirmaslik o'quvchining ishga qiziqishini kamaytiradi. Ishni tekshirish va baxolashga bolalarning o'zlari jalb qilish kerak bu bilan ular mehnatga ongli munosabat, aktivlik va tashabbus rivojlanadi. Mehnat natijalarini birgalikda tekshirish va baholash bolalarning xotiralarida mahlum bir buyumni tayyorlashning barcha bosqichlari, ayrim usullari tiklanadi. Uyga topshiriq berish darsning muhim bosqichidir. Mehnatdan uyga bajarib kelish uchun beriladigan vazifani avvalo darsda ishni yaxshi uddalay olmagan o'quvchilarga berish zarur.

Dars besh bosqichga bo'linadi:

1. **Kirish qismi** – mavzu nechanchi yil o'qitilayotganligi o'quvchilarning o'sish darajasiga qarab, vaqt jahitdan xiyla uzun yoki qisqa bo'lishi mumkin. Kirish qismi o'quvchilarni emotsional qiziqtirishi o'quvchi ishlashi lozim bo'lgan biror mehnat obhektini namoyish qilishda go'zallik hissini o'yg'otish lozim.
2. **O'qituvchining ko'rsatmasi** – ko'rsatmalikning xilma-xil vositalarini(karton,maket, ish protsessining bajarilishi keng tasvirlangan shit kabilarni) qo'llab o'qituvchi darsini bu bosqichida o'quv ishning maqsadiga eng muvofiq izchilligi bilan tanishtiradi.
3. **O'quvchilarni topshiriqni mustaqil bajarishi** – darsning asosiy qismi bo'lib, unga darsning 2/3 hatto 3/4 ulushi ajratiladi. Bu bosqichda o'qituvchi o'quvchilarni diqqat bilan kuzatib turadi, ularning ishlariga boshchilik qiladi, ish harakatlaridagi ish holatlari, asboblardan foydalanishdagi xatolar va kamchiliklarni kuzatadi. Bordi-yu ish o'quvchilarga qiyinlik qilsa, o'qituvchi o'quvchilarga o'zi bajariyotgan operatsiyalarga ehtibor berib turishini va uning harakatiga o'xshatib asta-sekin harakat qilishini aytadi.

   a) O'qituvchining ko'rsatmalariga qanday amal qilmoqda.

b) O’quvchilarning mehnat madaniyati va sanitariya-gigiena ko’nikmalari qanday.

v) Material qanday saqlanmoqda, o’quvchilar asboblarni qanday to’g’ri ishlatmoqdalar.

g) O’quvchilar o’z usullarini qay darajada o’qib oladilar.

4. **Tekshirish va qathiy baho qo’yish asosida ishni hisobga olish.**
O’qituvchi har bir bolaning ishini qisqa tavsiflab jurnalga baho qo’yadi. ( o’quvchilarga yorliq etiketkasi qilib tayyorlangan buyumni yopishtiradilar, yorliqqa ishning tugallangan vaqti, necha soat vaqt sarflaganligi, bajaruvchining familiyasi va ismi, sinfi aniq ko’rsatiladi.

5. **Uy vazifasini tushuntirish** - darsning bu bosqichida darsda bajarilgan topshiriqning yakuni bilan bog’liq, o’qituvchi har bir o’quvchining faoliyatiga baho qo’yib, ishdagi kamchilik tomonlarini ko’rsatadi va uyga berilgan topshiriqni tushntirish davomida xatolarni tuzatish uchun qo’shimcha ko’rsatmalar beradi.
Kattalarning sonoatdagi mehnati bilan mehnatning tabiatning o’zgartirish borasidagi tahsirini ochib berish uchun tabiat bilan tanishish dars-ekskursiyalar tashkil qilinadi.

Laboratoriyada olib boriladigan ishlar.

Bunda o’quvchilar materiallarning xossalari ( plastilinni, loyni) ish uchun o’zlari tayyorlaydilar, material (qog’oz,karton, mato) larning texnologiyasi bilan tanishadilar.

1. Agrar: Buyumlarni o’quv nazoratchilarining hohishi bilan ko’rgazmaga tayyorlash, bunday darsning maqsadi o’quvchilarni bilim, malaka va ko’nikmalari darajasini tekshirishdir.
2. Qishloq xo’jaligi mehnati agrari: bu dars o’z mazmuni jahatdan yuqoridan bayon etilgan dars bilan deyarli bir xil, shu sababli darslarni rejalashtirishda yuqorida ko’rsatib o’tilgan tuzilishga amal qilish zarur. O’quvchilarning mehnatga aqliy aktivligiga mehnat topshirig’ining xarakteri kuchli tahsir etadi. Masalan: “Tabiiy materiallardan qurish-yasash” temasidagi darsni olib ko’raylik.
3. Darsning maqsadi: Tabiiy materiallardan buyum yasash usullarini o’rgatish material tanlash,ulash, detallarni bir butun model qilib yasash.
4. Darsning jihozi: qaychi, santimetr, paxol, yumshoq sim.
5. Darsning borishi: o’qituvchi paxoldan yasalgan o’yinchoq uychani ko’rsatib paxoldan o’yinchoq uycha yasash uchun mahlum o’lchamda paxolcha olish kerakligini tushuntiradi.

1.Bu o’yinchoq nimadan qilingan? O’qituvchi o’yinchoqni ko’rsatadi.

2.Bu o’yinchoqni tayyorlash uchun qanday geometrik shakl zarur? Bunda o’qituvchi devorning uzunligi 6sm, eni esa undan 2 sm kam, balandligi esa enidan 5sm uzun. Tomi esa uy yonlariga 1 sm dan chiqib turadigan bo’lishi kerak deb uqtiradi.

O’zbekiston maktablarida o’quvchilarning tajribalari shuni ko’rsatadiki, bolalarning mehnat operatsiyalari shartli grafik usuli bilan mustaqil rejalashtirishga olib kelishdan avval, bolalarda mehnat bosqichlari uchun zarur bo’lgan dastlabki malaka va ko’nikmalarni hosil qilish kerak. Laboratoriya yo’li bilan materialni xossalari va asboblardan unumli foydalanish bilan tanishtirishga, bunda bolalarning aqliy faoliyatini faollashtirishga ehtibor bermoq lozim, o’quvchilarning qurish yasash qobiliyatlarini rivojlantirish, buyumning qismlarini bir butun qilishga o’rgatish keraek.

Birinchi sinfda chizmani o’qituvchi rahbarligida buyum namunasini ko’zdan kechirib qiladi. Bunda o’quvchilarni shartli chiziq namunalari bilan asta-sekin har bir darsda alohida tanishtiriladi.

Boshlang’ich sinflarda chizmachilik elementlari maxsus o’quv fani sifatida ham, mehnatga o’rgatish dasturi bo’limida mustaqil bo’lim tariqasida ham kiritilmagan. Doskadagi chizmani chiz, uni namunaga solishtir va materialni o’zi mo’ljallagan buyumni tayyorlash uchun darsda qilinadigan ishlarni oldindan rejalashtirishning tashqi ifodasidir.

O’quvchilarning mehnati va mustaqilligini faol fikrlash faoliyati tashabbusning paydo bo’lishi, uchragan qiyinchiliklarni yengishi avval hosil qilingan mehnat bilimi va malakalarini oqilona va ijodiy qo’llay bilishidir.

SAVOLLAR.

1. O’quvchilarni mehnatga tayyorlash qanday amalga oshiriladi.
2. Mehnat xonalari tashkil qilish usullari.
3. Dars nechta bosqichda amalga oshiriladi.

TOPSHIRIQLAR.

1. Mehnat darslarida ish o’rnini qanday tashkil etish kerakligini ayting.
2. Mehnat xonalari va ish jihozlarini vazifalarini ayting.

ADABIYoTLAR.

**1.** X.Sanaqulov, M.Haydarov “Boshlang’ich sinflarda qog’ozdan amaliy ishlar” 1996 yil

**2.** R.A.Mavlonova, Goroxova, Ogluzdina O, “Mehnat tahlim metodikasi” T., “O’qituvchi” 1986 yil

**3.** SHumulevich N.M. “Qog’ozdan texnik modellar yasash” T., “O’qituvchi” 1989 y

**4.** Vorobg’yov A.SH. “Konstruktorlik va modellashtirish” T., “O’qituvchi” 1989 yil

**5**. Mavlonova.R.A. “Boshlang’ich sinf mehnat darsliklari”. T. 1996y.

## Mavzu: Boshlang’ich sinfda mehnat tahlimidan amaliy ishlar.

Mehnat tahlimi darslarida o’quvchilar ijtimoiy ishlab chiqarish mehnatiga tayyorlashning ilk bosqichlarini o’rganadilar. Birinchi sinfda o’quvchilar eng avvalo faqat dars mashg’ulotlaridagina emas, balki boshqa darslarda ham to’qnash keladigan materiallar bilan tanishadilar. Qog’oz va karton bilan ishlash, gazlamaga dastlabki ishlov berish, turli materiallar bilan ishlash, o’z-o’ziga xizmat ko’rsatish hamda uy-ro’zg’or mehnati va shu kabilar bilan tanishadilar. Amaliy ishlar jarayonida o’quvchilarda mehnatsevarlik, materiallarni tejamli sarflash, mehnatga ijodiy yondoshish, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo’lish, mehnat madaniyatini tarbiyalash, ularga ayrim kasblar haqida tushunchalar berib boriladi.

O’quvchilarga mehnat tarbiyasi berishning asosiy vazifalaridan biri o’quvchilarda materiallarga ishlov berish ko’nikmalarini hosil qilish va ularga shunga muvofiq bilimlarni berishdir. Bu ish birinchi sinfdan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirib boriladi, chunki o’quvchilar hali eng oddiy buyumlarni tayyorlash operatsiyalarni eslab qolishga qodir emaslar.

Hosil qilingan ko’nikmalar takror mashq qilishlar natijasida takomillashib boradi. Xatoga yo’l qo’ymaslik uchun o’quvchilarni o’z-o’zini nazorat qilishga odatlantirish lozim. Topshiriqlarni bajarish jarayonida yo’l qo’yilgan xatolarni o’zlari topib uni tuzatmagunlaricha hamda bajarilgan ishlarning to’g’riligiga ishonch hosil qilmagunlaricha o’quvchilardan ishni qabul qilmaslik lozim.

Amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida yangi ko’nikma va malakalar hosil qilinadi. Buning uchun qo’l asboblaridan foydalanishning o’ziga xosligini, materiallarni xususiyatini, yasalayotgan buyumlar xususiyatini bilish katta ahamiyat kasb etadi.

Boshlang’ich sinflarni qo’l mehnatiga o’rgatish quyidagi ish turlariga bo’linadi.

1.Qog’oz va karton bilan ishlash.
2.Turli materiallar bilan ishlash.
  a) Applikattsiya va mozayka ishlari.
  b) Loy va plastilin bilan ishlash.
  v) Tabiiy materiallar bilan ishlash
3.Qog’oz va karton bilan ishlash.
4. Gazlama bilan ishlash.

5. Loyihalash va modellash ishlari.
6. Qishloq xo'jalik ishlari.

Dars boshida o'qituvchi biror mavzu bo'yicha suhbat olib borar ekan, bu buyum qanday maqsadlarda, yahni qaerda ishlatilishini tushuntiradi, so'ngra o'quvchilar tayyorlanayotgan har bir buyumni amalda qo'laydilar.

Buyumni tayyorlash usullarini o'qituvchi sinf doskasiga osib qo'yilgan yo'llanma xaritasidan yoki texnik vositalardan foydalanib ko'rsatadi. SHundan so'ng u ishni bajarish tartibi va usullariga tegishli savollarni berib, materialni takrorlaydi va buyumni o'quvchilar bilan birgalikda tayyorlashga o'tadi.

Yuqoridagilar kelib chiqib, mehnat tahlimidan amaliy ishlar tuzilishi quyidagi tartibda olib boriladi.

1. O'quvchilar oldiga mehnat topshirig'ining maqsadi va mavzusini qo'yish:

a) darslarda bajarishga mo'ljallangan buyum yoki ishning o'quvchilar hayotining yoki bu tomoni ehtiyojlarini qoniqtirishdagi ahamiyati;

b) belgilangan ishni yaxshi bajarish uchun qanday yangi bilim va ko'nikmalarni egallash lozimligini ko'rsatish.

2. Ish o'rni, asbob-uskuna, material, namuna, doskadagi chizmalarning tayyorligini tekshirish, ishni yaxshi va uyushgan holda tashkil etishga yordam beruvchi qonun-qoidalarni eslatish.

3. Bajariladigan mehnat vazifalarini oldindan rejalashtirish:

a) namuna, qism va detallar miqdorini tahlil qilish, kerakli materillarni, berilgan o'lchovlarni tayyorlash;

b) buyum tasviri va uning detallarini namunadan tanish, tushunish, barcha o'lchovlarni va ishchi chiziqlarini topish va o'qish, yahni ishni buyumni tayyorlash uchun qanday harakatlarni amalga oshirish, qanday asboblarni ishlatish, mehnat harakatlarini ketma-ket bajarish tartibini aniqlash.

4. Materialni namuna, berilgan o'lchovlar bo'yicha belgilab chiqish. O'quvchilarni belgilash tartibini bilishlari va uni doskada belgilash bosqichlarini bajarayotgan yoki buyumni ko'rsatib tushuntirayotgan o'qituvchi bilan bir vaqtda bajarilishi lozim.

5. Belgilash ishlarini bajarish.Detallarni tayyorlash, detallarni moslash va uning barcha detallarini yig'ish; detallardan buyumni yig'ish jarayonida; buyum va uning detallariga ishlov berish jarayonida zarur bo'ladigan bilim va ko'nikmalarni egallash.

6. Harakatlanayotganda tekshirish, xato va kamchiliklarni tuzatish, ishni baholash.

7. Darsga yakun yasash, yangi vazifalar qo'yish.

Mehnat tahlimida amaliy ish mashg'ulotlari tashkil qilishning bu tartibidan o'qituvchi mazkur dars uchun belgilangan aniq buyum yoki ishning xususiyatlarini nazarda tutib foydalanadi.

Amaliy ishlar jarayonida o'quvchilarda mehnatga qiziqish va muhabbat singdirib boriladi. Mehnatga qiziqishning muhim talablaridan biri

ishlanadigan buyumni to'g'ri tanlashdir. O'quvchilar tayyorlanadigan narsalarni nimaga kerakligi, qaerda ishlatilishini bilishlari kerak.

Bu ish turlarini barchasi boshlang'ich sinflarda qo'l mehnati jarayoni o'quvchilardagi kasb tanlash ishlariga qaratilgan.

O'quvchilar ishlayotgan materiallarga tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishlari, o'z ishlarini rejalashtira bilishlari, materiallni tejamkorlik bilan sarflashlari, vaqtdan unumli foydalanishlari, o'qituvchi ko'rsatmasiga amal qilishlari, shu bilan birga ish joyini toza va ozada saqlashlari, mashg'ulotdan so'ng sinfni tozalab qo'yishlari kerak.

Barcha fanlarda qo'llanilgani kabi mehnat darslarida ham tahlimning ko'rsatmali vositalaridan foydalaniladi. Jumladan, mehnat darslarida turli xil namuna, rasm, chizma, sxematik namuna, turli predmetlarning modellari, shunungdek texnika vositalaridan foydalaniladi.

## SAVOLLAR.

1.O'quvchilarni mehnatga amaliy tayyorlash nima?
2.Mehnat darslarida qanday amaliy ish turlari bajariladi?
3.Mehnat darslarida amaliy ishlar qanday tashkil qilinadi?
4.O'quvchilar tarbiyasida amaliy ish jarayonini ahamiyati?

## TOPSHIRIQLAR.

1.Amaliy ish turlaridan namuna keltiring.
2.Namunaviy dars ishlanmasini yozing.

## ADABIYoTLAR.


**1.** R.A.Mavlonova, O.T.To'raeva, K.M.Xoliqberdiev "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 1998 yil

**2.** X.Sanaqulov, M.Haydarov "Boshlang'ich sinflarda qog'ozdan amaliy ishlar" 1996 yil

**3.** R.A.Mavlonova, Goroxova, Ogluzdina O, "Mehnat tahlim metodikasi" T., "O'qituvchi" 1986 yil

**4.** SHumulevich N.M. "Qog'ozdan texnik modellar yasash" T.,"O'qituvchi" 1989 y

**5.** Vorobg'yov A.SH. "Konstruktorlik va modellashtirish" T., "O'qituvchi"1989 yil

**6**. N.Gushkin. V.R.Xiltunin. "Mehnat eng yaxshi tarbiyachi". T.1988y.

**7.**.Mavlonova.R.A. "Boshlang'ich sinf mehnat darsliklari". T. 1996y.

## Mavzu: Boshlang’ich sinf mehnat darslarida iqtisodiy bilim tushunchalarini shakllantirish.

Mahlumki Respublikamiz mustaqilikka erishib, o’z yo’lini belgilab oldi va bozor iqtisodi yo’nalishini tanladi. Bozor iqtisodi ongli kishilik taraqqiyotining hamma bosqichlarida bo’lgan va bundan keyin ham davom etaveradi. U insonlarga hamisha yo’ldoshdir.

O’quvchilar ongiga jamiyatimizning demokratik asosida iqtisodiy islohatlarni yanada rivojlantirish, mahnaviy-ahloqiy, mehnat tarbiyasi tushunchalarini shakllantirish, mehnat darslarida iqtisodiy tushuncha berish ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnat fanlar asosini chuqur va amaliy o’zlashtirishda, bolalarni mehnatga bo’lgan munosabatini ijodiy ish faoliyatida mustaqil shakllantirishda, fikr yuritishga o’rgatuvchi ilmiy vositalardan biridir. Ko’p asrlik tajriba shuni ko’rsatadiki, insonlarning mehnati tufayli cheksiz boyliklar va imkoniyatlarning yechiladi. Mehnat fani iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili hisoblanib, o’quvchilarning chuqur iqtisodiy bilimini mustahkamlaydi.

Hali-hanuz iqtisodiy mehnat tarbiyasida ilg’or umumbashariy va milliy g’urur, ularning tarbiyaviy harakteri o’z ifodasini topgani yo’q. SHuning uchun mehnat darslarida o’quvchilarning iqtisodiy faolligini oshirish va tadbirkorlik mehnat faoliyati ko’nikmalarini shakllantirish va kuchaytirish lozim.

Iqtisodiy tarbiyaning qator vazifalari mehnat darslarida amalga oshiriladi. Bu vazifalardan biri tadbirkorlik bo’lib, bu mahsulot ishlab chiqarish uni sota bilish, tushgan mablag’ni joy-joyiga sarflay olishdir. Bu tadbirkorlik talablarini mehnat darslari jarayonida darslar nechoglik qiziqarli va foydali tashkil etilsa, o’quvchilar shunchalik iqtisodiy bilimga va malakaga ega bo’ladilar. Avvalo bu darslarning muzmunini to’g’ri belgilab olish zarur.

- mehnat tahlimi va tarbiyasining ijtimoiy va iqtisodiy yo’nalganligi;
- mehnat darslarini bozor iqtisodi talablari asosida pedagogik texnologiyalardan va malakalardan unumli foydalanish;
- O’quvchilarni qiziqishlarini hisobga olib amaliy to’garaklarga jalb qilish;
- O’quvchilarni mehnat darslarida iqtisodiy bilim berishda yoshi, shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish;
- O’quvchilarni mehnat natijalarini rag’barlantirish va kamchiliklarni do’stona hal qilish;

Mehnat darslari bolalar uchun iqtisodiy bilimlar bilan tevarak- atrofdagi hayotni o’ziga xos tarzda bog’lovchi omil bo’lishi lozim.

SHuning uchun hozirgi kunda mehnat darslarida «o’z-o’zini boshqarish» va «o’z-o’zini mablag’ bilan tahminlash» kabi tadbirkorlik ishlarini tashkil qilish lozim.

Masalan o’quvchilarning mehnat darslarida materiallarni isrof qilmaslikni, ishning sifatliligini, estetik jihatdan bejirim va chiroyli bo’lishiga ehtibor berishlari kerak. SHu bois boshlang’ich sinflarda mehnat tahlimi va tarbiyasi jarayonida tadbirkorlik tushunchalarini, kelgusi mehnat faoliyatida muhim o’rin egallash ekanligi ko’rsatish, tushuntirish pedagog o’qituvchilarning oldida turgan muhim vazifalardan biri ekanligini tahkidlash zarur. O’quvchilarda mexnat tahlimi jarayonida tadbirkorlik tushunchalarining dastlabki bosqichlarini amalga oshirishda qo’ydagi vazifalarni bajarish ko’zda tutiladi.

1. O’quvchilarni mehnat tahlimiga oid nazariy va amaliy bilim berishni uzviyligini mustahkamlash;
2. Kasblar xususiyatni farqlay bilishga o’rgatish orqali ularni turli kasblarni to’g’ri tanlashga yo’naltirish;
3. Unumli mehnat qilib yuqori samaradorlikka erishishni o’rgatish;
4. Mehnat jarayonida erishilgan natijani maktab jamoasi va ota-onalar ishtirokida namoyish etish;
5. Bajarilgan ishlar sifatini oshirishda kim oshdi savdo maskanlarini tashkil etish;

O’quvchilarda tadbirkorlik tushunchalarini shakllantirishda maktab, mahalla, oila va jamoatchilikni birgalikdagi harakati o’z-o’ziga xizmat qilishni tashkil etish, mahsulot sifati hamda turli ish turlari jarayonida mehnat natijalarining unumdorligi keskin o’sishda o’z tahsirini ko’rsatadi. CHunki tadbirlarda erishilgan yutuqlar bo’yicha o’quvchilarning bajargan buyumlari maktab muzeylari yoki sinf burchagida namuna sifatida saqlash, ota-onalarga sovg’a sifatida taqdim etish o’quvchilarda amaliy mehnatda ish sifatini yanada oshirish, ijobiy natijalarga erishishda samarali tahsir ko’rsatadi.

O’quvchilarning bajargan ishlaridan maktab sharoitidan kelib chiqib har xil ko’rgazmalar va o’quvchilarning o’zlari uchun maktab bozori tashkil qilinsa maqsadga muvofiq bo’lar edi.

Bunda o’quvchilar o’zlari bajargan ishlar natijalarini, diqqatga, ehtiborga sazovor bo’lganligini, o’zini mablag’ bilan qisman tahminlanganligini, o’zini boshqara olishini ko’rib, o’z mehnatiga va o’zgalar mehnatiga hurmat bilan qaraydi. O’quvchi ongida mehnatga muhabbat o’z samarasini topadi.

Natijada davlatimizning iqtisodini yuqori darajaga ko’tara oladigan, o’zining kasbini, hunarini hurmat qiladigan, jamiyatimizning rivojlanishida o’zini hissasini qo’sha oladigan barkamol avlodni tarbiyalashimizda yordam beradi.

## SAVOLLAR.

1. Iqtisodiy tarbiya nima.
2. Mehnat tahlimidagi iqtisod qanday ko’rinishga ega.
3. Tadbirkorlik qanday amalga oshiriladi.

## TOPSHIRIQLAR.

1. Mehnat tahlimida iqtisodiy tarbiya qaysi ish jarayonida berilishi kerakligini ayting.

ADABIYoTLAR.

**1.** I.A.Karimov O’zbekistonning siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T., “O’zbekiston”

**2.** R.A.Mavlonova, O.T.To’raeva, K.M.Xoliqberdiev “Pedagogika” T., “O’qituvchi” 1998 yil

**3.** X.Sanaqulov, M.Haydarov “Boshlang’ich sinflarda qog’ozdan amaliy ishlar” 1996 yil

**4.** R.A.Mavlonova, Goroxova, Ogluzdina O., “Mehnat tahlim metodikasi” T., “O’qituvchi” 1986 yil

**Mavzu: Mehnat darslarida ish unumini oshirish usullari.**

Kichik yoshdagi ukuvchilarni bilim, malaka, kunikmalarni rivojlantirish, ijodiy mexnatga, mustakil fikrlashga urgatish, kasb-xunarga yunaltirish, ilmiy dunyokarashini kengaytirish, mantikiy fikrlashga urgatish muxim muommolardan biridir.

SHunday ekan boshlangich sinflarda ukuvchilarni ijodiy mexnatga urgatish, ijodiy kobiliyatlarini shakllantirishda mexnat darslarining urni juda kattadir. Ukuvchilarni mexnatga ijodiy tayyorlash mexnat tahlimining muxim vazifalaridan biridir. Mexnat ukuvchilarning chukur va mustaxkam bilimlar bilan kurollantiradi. Ukuvchilarni tanlagan kasbiga kiziktirish, mexnatkash kishilarga xurmatda bulishga tarbiyalaydi.

O’quvchilarni ish unumini oshirish, chuqur bilim egallash, ijodiy qobiliyatlarini o’stirish masalalari mehnat tahlimi darslarida hal etiladi. Har bir dars o’quvchilarni diqqatini, xotirasini, qiyoslay bilishini, fikr yuritishni, asosiy narsani ajratishni, xulosa va umumlashtirishni, o’z ishini rejalashtirishni, uni kerakli suhratda amalga oshirishni, o’z-o’zini nazorat qilish vazifalarini o’z ichiga oladi.

Ukuvchilarini mexnat darslarida ish unumini oshirish ikki boskichda olib borilsa maksadga muvofik buladi.

Birinchi boskich- mexnat mashgulotlarining anikligi, asosligi, uning bola kizikishiga, istihdodiga va kobiliyatiga mos kelishi.

Bunda ukuvchilarning yosh xususiyatlari, kizikishlari, imkoniyatlarini xisobga olish muxim axamiyat kasb etadi. Ukuvchilarni mexnatning mahlum turiga bulgan mayl va kizikishni uz vaktida aniklash va ularga mexnat

malakalarini sevgan mashgulotlarida takomillashtirishga yordam berish juda muximdir.

Mexnat tahlimida ukuvchilarning dikkat ehtiborini:

- asbob-materiallarni saklash koidasi xamda joylashtirish tartibiga:
- ish joyini tugri jixozlashga:
- materiallardan tejamkorlik bilan foydalanish usullariga:
- ish xarakati mehyori va suhratiga:
- ish sifatini tahminlovchi omillarga:
- ishlov berishda olingan aniklik va tozalikka rioya kilishga:
- buyumni chiroyli kilib bezishga

jalb kilib borish kerak.

Ikkinchi boskich- Ukuvchilarga jamoatchilikga, ijodiy tashabbusskorlikga, mexnat kishilarini va mexnat natijalarini xurmat kilishga, mexnat javobgarlikni xis etish xususiyatlarini singdirib borish zarur.

Ukuvchilarni mexnat darslarida ish unumini oshirish uchun ularni ongiga, dunyosiga mexnat orkali tahsir etishimiz muxim urin egallaydi. Bunda mexnatning tarbiyaviy kuchi ukuvchining mexnatga munosabatiga kup jixatdan boglikdir. Ishtiyok va kizikish bilan kilinayotgan mexnat majburan kildirilayotgan mexnatga nisbatan bolalarning ongiga, xissiyoti va irodasiga kuchlirok tahsir etadi. SHuning uchun ukuvchilar biror ijodiy mexnatga kirishishlaridan oldin pedagog ukituvchilar zimmasiga kuyidagi shartlarni amalga oshirish talablari kuyiladi:

- yasayotgan buyum yoki predmetning zarurligini tushuntirish:
- uni kullash urni va maksadini tushuntirish:
- yasash usullari va jarayonini tushuntirish:

Bolalar tayyorlagan narsalar uz urnida kullanilishi xam katta axamiyatga egadir. Ular uz mexnatlarining foydaliligini kurganlarida, ularda uz mexnatlarining natijasidan konikish, yana kandaydir foydali, yaxshirok narsani xosil kilishga intilish paydo buladi. Ularda uz kobiliyatlarini ishonch, narsalarga extiyotkorlik bilan munosabatda bulish xissiyoti uygonadi, chunki bolalar atrofdagi narsalarni kanday mexnat evaziga yaratilganligini anglaydilar.

Dars mazmuniga qo’yiladigan muhim talablardan biri darslarni hayot bilan chambarchas aloqador bo’lmog’i lozim.

O’quvchilarni faollashtirish ayniqsa o’qitishning zamonaviy bosqichi sharoitlarida anchagina murakkabdir. SHunung uchun o’quvchilarning o’quv faoliyatlarini faollashtirishga yordam beruvchi vosita va usullarini tanlash o’qituvchining doimo diqqat markazida bo’lishi shart.

O’quvchilarning ish unumini oshirish va ijodiy faoliyatlarini bir qator usullar vositasida faollashtirish mumkin. Bu usullarni bahzilari bilan tanishtiramiz:

1. Butun sinfga taklif etilgan muayyan ijodiy ishda o’quvchining iloji boricha mustaqil ishlash hissasini tahminlash.
2. Bir maqsadda o’qitishning alohida va umumiy shakllarini biriktirish usullari bilan birga maxsus tarqatma materiallaridan foydalanish.

3. Faoliyat turlari o’rganilayotgan material bilan to’g’ri munosabatni tahminlash.
4. Dastur materiali asosida darsda zehnlilik, diqqat, tasavvur va shu kabilarni tekshirish hamda shakllantirish maqsadida o’ziga xos konkurslar o’tkazish.

Mexnat darslarining muxim xususiyati shundaki, ukuvchilar mexnat va politexnik bilim, kunikma va malakalarni xilma-xil amaliy ishlarni bajarish, uzlariga kerak bulgan va ijtimoiy foydali axamiyatga ega bulgan predmtlar yasash jarayonida egallaydilar.

Dars vazifasini faqat bilim berish va ko’nikma hosil qilishdan iborat qilib qo’ymasligi balki tarbiya berish va kamol toptirish vazifalari bilan bog’lab olib borish ham zarur.

SHunung uchun ham o’qituvchi o’zi o’qitayotgan bilimini bilishi lozim. Bu esa biror mavzuga tayyorlana turib, o’qituvchi mazkur dars materiali asosida o’quvchilarning ahloqiylikning qanday g’oyalarini anglashga olib kelajagini diqqat, fikrlash, xotira, tasavvur, irodani rivojlantirish va boshqa shu kabilar sohasida shaxs sifatini qanday kamol toptirishga erishishini aniq tasavvur qilmog’i lozim.

## SAVOLLAR.

1. Mehnat darslarini tashkil qilishda nimalarga ehtibor berish kerak.
2. O’quvchilarda mehnatsevarlikni tarkib toptirish.
3. Ish unumini oshirish usullari qanday.

## TOPSHIRIQ.

1.Ish unumini oshirish usullariga misol keltiring.
2. O’quvchilarda mehnat tarbiyasini amalga oshirish manbai nima?

## ADABIYoTLAR.

**1.** X.Sanaqulov, M.Haydarov “Boshlang’ich sinflarda qog’ozdan amaliy ishlar” 1996 yil

**2.** R.A.Mavlonova, Goroxova, Ogluzdina O., “Mehnat tahlim metodikasi” T., “O’qituvchi” 1986 yil

**3.** SHumulevich N.M.“Qog’ozdan texnik modellar yasash” T.,“O’qituvchi” 1989 y

**4.** Vorobg’yov A.SH. “Konstruktorlik va modellashtirish” T., “O’qituvchi”1989 yil

**5.** N.Gushkin, V.R.Xiltunin. “Mehnat eng yaxshi tarbiyachi”. T.1988y.

**6.** Mavlonova.R.A. “Boshlang’ich sinf mehnat darsliklari”. T. 1996y.

## Mavzu: Mehnat tahlimidan sinfdan tashqari ishlar.

Mehnat tarbiyasi, mehnatga munosabatni tarbiyalash maktabdagi o’quv hamda sinfdan tashqari ishlarning o’zagi, maktabning hayot bilan aloqasini mustahkamlashning asosiy yo’lidir. O’quvchilar mehnat ruhiy va amaliy tayyorlash maktabning asosiy tarbiyaviy vazifalaridan biridir.

Maktabning turmush bilan aloqasi kundan-kunga mustahkamlanib bormoqda, sinfdan tashqari ishlarning o’quvchilar o’zlarining mustaqilliklari va tashabbuslarini namoyish eta oladigan, ularga jamiyat foydasi uchun tashkil etilgan mehnatning go’zalligi va quvonchini, jamoaning kuchini his etishlariga yordam beradigan yangi shakl va usullarlari aniqlanmoqda.

O’quvchilarning sinfdan tashqari ishlarni davom ettirilishi to’garak ishlari, jumladan “Mohir qo’llar”, “Yosh naturalistlar”, “Badiiy kashtachilik to’garaklari” kabi to’garaklar keng tarqalgandir.

O’quvchilarning mehnat faoliyatiga psixologik va amaliy tayyorlash o’quvchilar ijtimoiy foydali mehnatining har xil turlarida qatnashayotgan vaqtlarda xilma-xil tarbiyaviy tadbirlarni qo’llash orqali amalga oshirilishi kerak.

O’quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan tashqari ish maktabning butun tahlim – tarbiyaviy ishlarining ajralmas qismi bo’lib, u bolaning har tomonlama rivojlantirish, darslarda egallayotgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, amalda qo’llanishga yordam beruvchi muhim vositalardan biridir. Sinfdan tashqari ish ayni bir vaqtda o’quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi, mehnat tahlim va tarbiyasi bolalarda fan texnika, sahnatning turli sohalariga qiziqishini o’stirish masalalarini hal etishga yordam beradi.

Mehnat tahlimi bo’yicha sinfdan tashqari ishlar texnik mehnat darslarining davomi qo’shimchasidir. O’quv mashg’ulotlari bilimlarga qiziqishini o’zstiradi, sinfdan tashqari ish darsida bilimlarni kengroq qo’llash hamda chuqurlashtirish imkonini beradi. SHu bilan birga sinfdan tashqari ishdarsda berilgan materiallarni aynan takrorlamasligi kerak, u sinfdagi ishdan o’zining o’yin, qiziqarli xarakterdaligi bilan ajralib turadi. Sinfdan tashqari ish o’quvchilarga ishning o’zlariga ko’proq yoqqan, o’zlarini ko’proq qiziqtirgan turini tanlashlari uchun imkon yaratadi. Faqat sinfdan tashqari ishlarda o’quvchilarning individual ijodiy qobiliyatlari yorqinroq namoyon bo’ladi, bu yerda ular istalgan ish bilan shug’ullanishilari, qo’yilgan maqsadga erishish uchun kerak bo’lgan vaqt va kuchini sarflashlari mumkin.

Sinfdan tashqari ishning formalar ko’pdir:

<u>Ommaviy ish</u> – kechalar, ertaliklar, konkurslar, viktorinalar, ekskursiyalar, ko’rgazmalar.

Maktablarda boshlang’ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni ertaliklar, ko’rgazmalar tayyorlashni uyushtirish kabi ommoviy ish turlaridan keng foydalanib, konskurs va viktorinalarga kam ehtibor beriladi. Ommaviy ishning

konkurs va viktorinalar kabi turi juda qiziqarli va aynan bir vaqtda katta tarbiyaviy imkoniyatlarga egadir. CHunki zehnli, tez javob topa bilish, o'z fikri, bilim va ko'nikmalarini safarbar eta bilish xuddi mana shu ish turlarida talab qilinadi.

Maktabning tarbiyaviy ishlarida ommoviy ishlar katta rolg' uynaydi. Kechalarga, konkurslarga, viktorinalarga tayyorgarlik ukuvchilarni xar tomonlama xarakat kilishga matnlarni yodlash, kostyumlar tayyorlash, jixozlash, bezash ishlarini amalga oshirishga majbur kiladi. Kechalar mavzulari shunday tanlanish kerakki, u ukuvchilarda xar tomonlama kizikish uygotsin, ularni uylashga, ixtiro kilishga majbur etsin va fakat mavjud bilim va kunikmalar bilan cheklanib kolmay, kecha mavzusining dasturiga muvofik yangiliklarni xam uzlashtira borsin. Ayniksa kechalar ikki yondosh sinflar kushilganda juda kizikarli va jonli utadi. Kecha mavzusi asosan makol va matallardan olinadi, ammo kecha mavzusini "Mexnat va mexnat kishilarini sharaflaydigan" mexnatga alokador bulishi xam mumkin.

Mexnatga bagishlangan kechalarni xar bir ukuv choragi va yil oxirida utkazish maksadga muvofik bular edi. Kecha "Maktab mexnat darslarida nimalarni urganib oldingiz" mavzusi asosida utkazish mumkin. Kechaning maksadi mexnat darslarida olingan kunikma va malakalarni mustaxkamlash, mexnatga muxabbat singdirishdir.

Turli ishlarni bajarish, asboblarni tugri ishlatish, darslarda foydalaniladigan materiallar va asboblar buyicha bilimlarni tekshirishga bagishlangan musobakalar sinfda va sinflararo utkazilishi mumkin. Ish turlarini, tayyorlash texnologiyasini aynan uzini koldirib uzgartirish kerak. Xamma topshiriklarni bajargan ukuvchilarni maxsus nishon bilan takdirlash mumkin.

Tugarak ishlarida kurgazmalar, mavzuli alg'bomlar, kurgazmali kurollarni tashkil etish va bajarish muxim urin egallaydi.

Kurgazmalar mavzusi xilma-xil bulishi mumkin, masalan sinfda mexnat darslarida bajarilgan ishlar kurgazmasi, uyda mustakish ishlagan yoki tugaraklarda ishlangan ishlar kurgazmasi va shu kabilar. Kurgazmani tomoshabinlar kanday idrok etishlari, kurgazmani kanday tashkil etilganligi, kanday bezatilganligini, namunalarning joylashtirishiga boglikdir. Kurgazma estetik didni tarbiyalaydi.

<u>To'garak ishi</u> – "Mohir qo'llar", "Qo'g'irochoq teatri", "Yosh tabiatshunoslar", "Quvnoq ustaxona" to'garaklari.

Boshlang'ich sinflardagi to'garak ishlari o'quvchilarida umumiy rivojlantirishni, o'zining sodda ijodiy fikrini amalga oshirish imkoniyatlariga ega bo'lsinlar.

Boshlangich sinflarda tugarak ishi kuyi sinf ukuvchilarini umumiy rivojlantirish, ayniksa ukishning turmush bilan alokasi nuktai nazaridan juda muxim va keraklidir. "Moxir kullar", "Kugirchok teatri", "Yosh tabiatshunoslar" tugaraklari ayniksa katta axamiyatga ega bulib, tuguraklarda ugil va kiz bolalar bir xil kizikish bilan shugullana oladilar. Xar biri uz kizikishi, kuchi va imkoniyatlariga yarasha ish bilan shugullana oladilar.

To’garaklarni tashkil etishdan oldin o’qituvchi maktabdagi mavjud imkoniyatlarni chamalab chiqishi lozim. To’garak uchun albatta alohida xona kerak bu xona stol-stullar, mahlum asbob-moslamalar to’plami, tayyor ishlarni qo’yish uchun shkaflar bilan jihozlangan bo’lishi kerak.

Tugarak ish rejasini tugarak raxbari sinf raxbarlari bilan xamkorlikda bir yilga tuziladilar. Rejada tugarak kaysi ish turi bilan shugullanishi va shu ish turlari buyicha kanday amaliy ishlar amalga oshirilishi kayd etiladi. Rejadagi ishlar oddiydan murakkabga utishini tahminlash uchun murakkablik darajasiga kura joylashtiriladi. Rejada utkaziladigan ekskursiya xam kursatiladi. Tugarak rejasini maktab raxbari tasdiklaydi. Tugarak mashguloti xaftada bir marta utkazilib, u 1,5 soatdan ortik davom etmasligi kerak.

Tugarak mashguloti odatda yangi ish usullarini kursatishdan boshlanib, tugarak ahzolari bu xarakatni takrorlaydilar, asosiy ishga esa ular bu ish usullarini yaxshi egallab olganlaridan sung kirishiladi. Tugarak ahzolari ishlarni bajarish jarayonija oddiy sxemalar, chizmalardan foydalanishga, materiallarga tartibli, tejamkorlik bilan munosabatda bulishga, asboblar xamda ish joiyini toza va tartibli saklashga albatta odatlantirish zarur. Tugarakning xar bir ahzosi “Uzing bilim oldingmi – urtoginga xam urgat” degan koidani doimo yodida saklashi krak.

Individual mashg’ulot - kollektsiyalar to’plash, texnika bilan mustaqil shug’ullanish, qishloq xo’jaligi ishlari bilan shug’ullanish kiradi.

Boshlangich sinf ukuvchilari kuplab ijtimoiy foydali mexnatda katnashadilar. Ular paxta terishda, sabzavot mevalarni yigishda, ipak kurti bokishda, maktabni, maktab xovlisini, kucha xiyobonlarni obodonlashtirishda kullaridan kelgancha xarakat kiladilar. Ular dala shiyponlarida kutubxonalar tashkil etadilar, xavaskorlik kontsertlarini beradilar, makulatura, temir-tersak tuplaydilar, kichkintoylarni, nafakaxurlarni otalikka oladilar. Bu tadbirlarni barchasi ukuvchilar tashabbusi bilan amalga oshiriladi.

Biz ko’p narsalarni o’rganishni faqat dars vaqtida bajara olmaymiz, qilgan vaqtimizda ham ulgura olmaymiz. SHuning uchun sinfdan tashqari olib borgan ishlarimiz katta ahamiyatga ega. Sinfdan tashqari ishlarda o’quvchilarning qiziqishlariga, qobiliyatlariga qarab turli xil ishlarni amalga oshirishimiz mumkin. Bajarilgan ishlarimizni ahamiyati haqida tushuntirilib borilsa, yaxshi natijalarga olib keladi.

Mehnat topshiriklarini sinfdan tashqari ishlarda qo’llash o’qituvchidan muntazam katta tayyorgarlikni, har bitta to’garak ishlarini doimo nazorat qilib, ularni chuqur va mastahkam bilimlar bilan qurollantirib, tanlagan kasbiga qiziqtirib va o’quv fanlari mazmunini mukammalashtirib o’quv jarayonini to’g’ri tashkil etish kerak.

Sinfdan tashkari ishlarni samarali ravishda amalga oshirish, boshlangich sinflarda uzlashtirgan bilim, malaka va kunikma va malakalarini mustaxkamlaydi, dunyokarashini shakllantiradi, ularning ijodiy kobiliyatlarini ustiradi xamda bidiiy estetik didini oshirishda muxim omil bulib xizmat kiladi. Uz vaktida, rejali, tartibli utkazilgan mashgulotlar ukuvchilarning kizikish va xavaslarini oshiradi, mahnaviy, mafkuraviy karashlarini boyitadi.

Xulosa qilib aytganda o'quvchilarga boshlang'ich sinfdanoq kelajakda to'g'ri kasb tanlashlariga ulkan zamin yaratilsa, kelajak avlodning barkamol bo'lishida, jamiyatimizning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

SAVOLLAR.

1. Sinfdan tashqari ishning maqsadi nimalardan iborat?
2. Boshlang'ich sinfda qanday farqlar mavjud?
3. Individual mashg'ulot nima?
4. Sinfdan tashqari ishlar kasb tanlashga qanday tahsir ko'rsatadi?

TOPSHIRIQLAR.

1. Sinfdan tashqari ishlarga misol keltiring.
2. Sinfdan tashqari ishlarning ishlanmasini tuzing.

ADABIYoTLAR.


**1.** R.A.Mavlonova, O.T.To'raeva , K.M.Xoliqberdiev "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 1998 yil

**2.** X.Sanaqulov, M.Haydarov "Boshlang'ich sinflarda qog'ozdan amaliy ishlar" 1996 yil

**3.** R.A.Mavlonova, Goroxova, Ogluzdina O "Mehnat tahlim metodikasi" T., "O'qituvchi" 1986 yil

**4.** SHumulevich N.M."Qog'ozdan texnik modellar yasash" T., "O'qituvchi" 1989 y

**5.** Vorobg'yov A.SH. "Konstruktorlik va modellashtirish" T., "O'qituvchi"1989 yil

**6**. N.Gushkin. V.R.Xiltunin. "Mehnat eng yaxshi tarbiyachi". T.1988y.

**7.**.Mavlonova.R.A. "Boshlang'ich sinf mehnat darsliklari". T. 1996y.


## Mavzu: Applikatsiya ishlarining bajarilish va uning turlari.

**Applikatsiya** tasvirlash texnikasining turli formalarini kirkish va ularni fon tarzida kabul kilingan materiallar xisobiga mustaxkamlashga asoslanuvchi turidir.

Applikatsiya tushunchasi xususiyatlari va materiallariga kura xilma-xil bajarilishi texnikasining uxshashligi bilan birlashgan badiiy asarlarni yaratish usullarini uz ichiga oladi. Xar bir material applikatsiyasi bajarilish texnikasiga jiddiy tahsir kursatuvchi xususiyatlarga ega, masalan, kogoz, limon, daraxlar pustloglari fonga turli yelimlar bilan yopishtiriladi.

**Applikatsiya** – badiiy asar yaratishning eng sodda va oson usulidar. Bu applikatsiyadan faqat bezash maqsadlaridagina ko’rgazmali qurollar, turli o’yin uchun qo’llanmalar, o’yinchoqlar, bayroqchalar, bezaklar, shu kabilarni yaratishdan keng qo’llash imkonini beradi.

Dekorativ applikatsiya – u nashk, gullardan tashkil topib, aloxida-aloxida tasvirlardan tarkib topuvchi predmetli, xodisa, xarakatlar uygunligini aks ettiruvchi syujetdan iborat bulishi mumkin.

Applikatsiya tasvirlash texnikasini turli formalarini qirqish va ularning fon tarzida qabul qilingan materiallar hisobga mustahkamlashga asoslanuvchi turidir.

Applikatsiya 2500 yil muqaddam ko’chmanchi xalqlar orasida paydo bo’lgan. Ular applikatsiyadan kiyim-bosh, turar joylarini bezatishda ishlatganlar.

Applikatsiya turli xalklarda turli materiallardan tayyorlangan. Masalan, yokutlar applikatsiya ishida pustlogdan foydalanishgan, buyalgan pustlogdan kilingan applikatsiyalar bilan ular utovlarini bzashgan. Xanti-mansi, evenk va boshka shimoliy xalklari applikatsiyada teri, sukno, muyna ishlatishgan. Komi, kozok, kalmik, osetin, buryat va boshka xalklar applikatsiyadan milliy kiyim, uy-ruzgor predmetlarini bezashda foydalanishgan.

Applikatsiya ishida asosiy material qog’ozdir, dazmollangan yoki kraxmallangan bo’lakchalardan ham foydalanish mumkin. Bu materiallar bilan bir qatorda somon, quritilgan o’simliklar, urug’-danaklar, barglar va shu kabilardan ham foydalansa bo’ladi.

Qog’ozning yaltiraydigan marmar, bosma gul tushirilgan-barxat, kumush va bronza, rasm solish va chizmachilik qog’ozi navlari applikatsiya uchun yaroqlidir.

Applikatsiya bilan shugullanish ukuvchilarni garmonik rivojlanishida katta axamiyatga ega. Applikatsiya ijodni rivojlantirishga yordam beradi, fantaziyani boyitadi, kuzatuvchanlik, dikkat va tasavvurni faollashtiradi, irodani tarbiyalaydi, kul mexnati, tasvirni xis kilish, chamalash va rangni sezishni ustiradi. Rangli kogoz yoki boshka materialdan tasvir ustidagi ish badiiy didni avj oldiradi.

Applikatsiya ishlari doimo xotirada saqlanishi haqida majburiy qoida sifatida bajarilishi lozim bo’lgan izchillikda ado etiladi. Istalgan applikatsiya syujetni tanlashdan boshlanib, undan keyin applikatsiya eskizi, kogoz tanlash, kerakli detallarni kirkish, ularni fonga kuyish, yelimlash va nixoyat kuritish jarayonlari keladi. Oddiy applikatsiyalar eskizsiz bajariladi.

Applikatsiya ishlarini bajarishda asosiy ehtibor uning umumiy kompozitsiyasiga karatilishi kerak. Yaxshi uylangan kompozitsiya, yahni

tasvirlash lozim bulgan narsalarni joylashtirish – applikatsiya muvaffakiyatining garovidir.

Eng oddiy applikatsiyalar bu geometrik figuralardan qilingan ornamental applikatsiyalardir.

Avval ornament eskizi tuziladi, sungra krakli detallar ulchami va mikdori xisoblanadi. Detallarni tayyorlab mahlum tartibda joylashtiriladi va yopishtirishni kaysi detaldan boshlash kerakligi aniklanadi.

Applikatsiyada avval eskizi tuziladi, so’ngra kerakli detallar o’lchami va miqdori hisoblanadi. Detallarni tayyorlab mahlum tartibda joylashtiriladi va yopishtirishni qaysi detaldan boshlash kerakligi aniqlanadi. So’ngra tayyorlangan materiallar bir-biriga yopishtiriladi.

**Geometrik shaklli applikatsiyalar.** Bajarilish texnikasiga ko’ra applikatsiyaning eng oddiy turlaridan biri geometrik shaklli appilkatsiyailardir. 1 va 3 sinf o’quvchilari geometrik shaklli applikatsiyani bajarishda qo’ydagi bilimlarni egallaydilar.

1. Geometrik shakllar: kvadrat, to’g’ri burchak, uchburchak, aylanani qog’oz bo’lagidan va o’lchov asboblari yordamida hosil bo’lishi haqidagi mavjud bilimlarni mustahkamlaydilar.
2. Badiiy didni o’stiradi, rasm darslarida polosa, doira, kvadratda ornamentlar tuzish bo’yicha olingan bilimlarni chuqurlashtiradilar.
3. Ayrim predmetlarni detalma-detal tahlil qilib geometrik shakllarni to’g’ri idrok etishni o’rganadilar.
4. Bolalarni “ko’p, kam, uzunasiga, kungdalangiga, qism va qatlam, ikki qismga qirqish, to’rt qismga, teng qismlarga” kabi tushunchalari mustahkamlanadi.
5. Bolalar ranglar uyg’unlagini to’g’ri tanlashni o’rganadilar. Ularda estetik did tarbiyalanadi.

Geomterik shaklli applikatsiyalarni ham dekorativ-ornament, predmet, syujetli applikatsiyalarga ajratish mumkin.

Doira, kvadrat va ovaldan ornamentlar yasash. Ornamnt detallari: turli ulchamdagi kvadrat, uchburchaklar tayyorlanadi. Kvadratda naksh diogonal buyicha tuziladi – bunda shakllarni simmetrik joylashtirish kulay. Doirada naksh markazdan radiuslar buylab tuziladi.

**Geometrik figuralardan predmetli applikatsiyalar.**

Bolalarni predmetlarni fazoviy idrok etishini rivojlantirish kerak. Buni atrofimizni o’rab turgan narsalar: uy, archa, darxt, mashina, idish-tovoq, jonivorlar, gullar va shu kabilarni u yoki bu darajada geometrik shakllar bilan ifodalash mumkin.

O’qituvchi istalgan predmetni tanlashi mumkin. Uni bolalar bilan birgalikda kurib, uning ayrim detallari kaysi geometrik shakllarga uxshashligi, ularni kanday ulchamlarda, kaysilarini kattarok, kaysilarini kichikrok olish, kanday izchillikda joylashtirish kerakligini aniklaydilar.

Rangli qog’ozlardan olingan doiralar va ularning qismlari bilan applikatsiya bo’yicha juda ko’p geometrik ishlarni bajarish mumkin. Doiralarni

har birini shunday joylashtirish kerakki, natijada talab qilinadigan shakl paydo bo’lsin.

Bu ishlar o’quvchilarda ijodiy va atroflicha tasavvurni, badiiy didni o’stirishga yordam beradi. Bolalarda qo’yilgan maqsadga erishish yo’lida qathiyatlik, tartiblik tarbiyalanadi. Uyushqoqlik bilan ishlash ko’rsatmalariga rioya qilish, tashabbuskorlik ko’rsatish ko’nikmalari shakllanadi. O’quvchilar tayyorlagan applikatsiyalar ona tili va matematika darslari uchun ajoyib didaktik material, o’quvchilar nutqini o’stirish vositasi bo’lishi, ularning predmetlari shakli, rangi, fazoda joylashishi haqidagi tushunchalarini boyitishga xizmat qilishi mumkin.

**Ko’p rangi applikatsiyalar.** Ko’p rangi applikatsiyalarni qirqish ancha murakkab ish bo’lib, tasvirni qismlarga ajratish bilan aloqadordir. Bu turdagi applikatsiyalarni bajarishda fonni tanlash juda muhimdir. Fon ifodalangan predmetlar rangidan ochroq bo’lishi kerak. Ana shunda predmet xuddi bo’rtib turgandek yorqin ko’rinadi. Hammasi o’ylagan asarga bog’liq. Fonda joylashgan detallar rangi ham shunga qarab tanlanadi, detallarninig tabiiy joylashishi va o’lchamlarining uyg’unligiga ehtibor berish kerak. Bu ishlarning bajarishning bir necha usullari mavjud: ayrim detallar oldindan belgilamay qirqiladi, ayrim detallar esa belgilangan eskizlar bo’yicha qirqiladi.

Ko’p rangli applikattsiyalardan biri dekorativ applikattsiyalardir. Dekorativ applikatsiya - naqsh gullardan tashkil topib, alohida-alohida tasvirlangan hodisa harakatlar uyg’unligini aks ettiruvchi manzaralardan iborat bo’lishi mumkin.

Dekorativ applikatsiyalarni bolalar kitob, oynoma va boshqa materillardan olishlari, ayrim elementlarni qo’lda yaratishlari mumkin. SHarq naqshi applikatsiyasining bu turi uchun boy material hisoblanadi. Dekorativ applikatsiya bir va ko’p rangli bo’lishi mumkin.

**Badiiy applikatsiyalar.** Mavzuli ishlarni yaratish faqat mehnatga emas, balki badiiy tayyorgarlikni ham talab qiladi. Mehnat tahlimi darslarida applikatsiya ishlarini bajarilish texnikasi o’rganiladi.

Rangdor surat applikatsiya mavzusining elementlarini o’quvchilar turli bayramlarga bag’ishlangan (tabriknomalar, ochiq xat muqovasini, yo’l belgilari) ishlarini bajaradilar. Ish mavzu va fikr tanlashdan boshlanadi. Quticha ochiq tondagi qog’oz fon tarzida tanlanadi. Applikatsiyaga qaratilgan asarning yaratilishi va elementlar miqdori qog’ozni tanlashni belgilaydi. Asarni yaratish ustida ishlagan asosiy ehtibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallar, ularning o’lchamlari, ranglarni tanlashga qaratiladi. Asar xajmiga kura eng katta detal mavzuli detal bulishi kerak.

**Syujetli applikatsiya.** Syujetli applikatsiya asariga ko’ra oddiy va murakkab bo’lishi mumkin. Murakkab syujetli applikatsiya – ertaklar, hikoyalar va shu kabilarga illyustratsiya sifatida yasaladi. Agarda syujet oddiy bo’lsa, tasvirlarni oldindan belgilamasdan qirqish mumkin.

Murakkab syujetli applikatsiya ham syujet tanlashdan boshlanadi. Agarda syujetni o’quvchining o’zi o’ylab topgan bo’lsa, bu rasmni chizish malakasiga ega bo’lsa, unda avval syujetni rasmi, so’ngra rasmlar detallari chiziladi va

qirqib olinadi. Ayrim detallar turli rangdagi kogozlardan kirkiladi. Agarda ukuvchi rasmni yaxshi chiza olmasa, u tanlagan rasmdan kora kogoz yordamida nusxa kuchirishi mumkin. Bu rasm ayrim detallarga ajratiladi, xar bir detalni rangli kalam bilan atrofi chizib chikiladi. Ularni kirkib olib, syujet yoki narsa detallari kogozga yigiladi. Syujet yoki predmetning tabiiy ko'rinishiga putur yetmasligi uchun ularni qaysi tartibda yelimlanishi belgilanadi va ishga kirishiladi.

Kuchaytirish va kattalashtirish usuli yordamida rasmlardan kattalashtirib yoki kichiklashtirib applikatsiyadan foydalanish mumkin.

**Mavzuli applikatsiya.** Mavzuli applikatsiya mahlum mavzuni aks ettirishi lozim u badiiy asr uchun illyustratsiya, applikatsiya plakat bo'lishi mumkin. Badiiy tematik applikatsiya ishi predmetlar formasini, asosiy anikliklarni, qismlarning o'zaro aloqasini, manzara va narsalarning hajmini, rangini, soya va yorug'lik tushayotgan tomonini munosib rang berib ko'rsatish kabilarni ifodalashi kerak.

SAVOLLAR.

1. Applikatsiya qachon va qaerda paydo bo'lgan.
2. Applikatsiya sahnati nimalardan iborat.
3. Applikatsiyaning qanday turlari mavjud.
4. Applikatsiyadan qanday ishlar bajariladi.

TOPSHIRIQLAR.

1. Applikatsiya turlariga misollar keltiring.
2. Applikatsiya turlaridan amaliy ishlar bajaring.

ADABIYoTLAR.

**1.** R.A.Mavlonova, O.T.To'raeva, K.M.Xoliqberdiev "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 1998 yil

**2.** X.Sanaqulov, M.Haydarov "Boshlang'ich sinflarda qog'ozdan amaliy ishlar" 1996 yil

**3.** R.A.Mavlonova, Goroxova, Ogluzdina O "Mehnat tahlim metodikasi" T., "O'qituvchi" 1986 yil

**4.** SHumulevich N.M."Qog'ozdan texnik modellar yasash" T.,"O'qituvchi" 1989 y

**5.** Vorobg'yov A.SH. "Konstruktorlik va modellashtirish" T., "O'qituvchi"1989 yil

**6**. N.Gushkin. V.R.Xiltunin. "Mehnat eng yaxshi tarbiyachi". T.1988y.

**7.** Mavlonova.R.A. “Boshlang’ich sinf mehnat darsliklari”. T. 1996y.

## Mavzu: Qishloq xo’jalik mehnati darslarining mazmuni va undan foydalanish usullari.

Mexnat tahlimi dasturining kishlok xujaligi mexnati bulimi kishlok xujaligi va eng kup tarkalgan gullar, sabzavot, meva xamda rezavor-meva usimliklarni ustirish xakidagi bilimlar mazmunini belgilab beradi.

Bu darslarda o’quvchilar sinfdagi jonli tabiat burchagi va maktab o’quv tajriba hovlisida o’simliklarni o’stirishga oid ishlar bilan shug’ullanadilar. Jonli tabiat burchagida 1- sinf o’quvchilari xona o’simliklarini parvarishlashda hosil qilingan malakalarini mustahkamlaydilar. O’quv tajriba hovlisida olib boriladigan ishlar sabzavot, gulli va manzarali o’simliklarni ko’chat qilish, o’stirish, manzarali va mevali daraxtlarni parvarish qilish, ayrim dala o’simliklarini tajriba uchastkasida o’stirishni o’z ichiga oladi. O’qituvchi maktab hovlisida olib boriladigan ishlarda gulli, manzarali o’simliklarni o’stirish bilan cheklanmasligi, shu asosda bolalarga dasturda talab etilgan bilim va malakalarni berishni ko’zda tutishi kerak.

Boshlang’ich sinfda bolalar faqat o’simliklarni o’stirishga oid bilim va malaka hosil qilish bilangina cheklanmay, balki eng muhimi qishloq xo’jaligi mehnatini sevishlari, uyushib ishlashlari va maqsadga erishish uchun astoydil harakat qilishlari kerak.

2 sinf dasturida ko’zda tutilgan qishloq xo’jaligi mehnati turi va murakkabligi jihatdan xilma-xildir, binobarin bolalar bu ishlarni bajarishga uyushtirish ham har xil bo’ladi. Bu bolalarning tayyorgarlik darajasi va mahlum bir ravishda ularning oldiga qo’yilgan maqsadiga bog’liq. O’qituvchining vazifasi mehnatni mumkin qadar bolalarning uyushqoqligini, do’stligini va o’rtoqlarcha o’zaro bir-biriga yordam berishni mustahkamlaydigan formada tashkil etishdir.

3 sinfda bolalar sabzovat, gulli va manzarali o’simliklarni ko’chat qilib o’stirishga oid tajriba almashish ishlarining asosiy mavzusi o’simliklarni o’sishi va rivojlanishini boshqarishning usul va vositalari bilan tanishadilar. Uchinchi sinfda o’quvchilar ikkinchi sinfda boshlagan ayrim o’simliklarni turlarini o’rganish va navlarini sinash ishlarini davom ettirish bilan birga, o’simliklarni o’g’itlash va qo’shimcha oziqlantirishni tajriba qiladilar.

3-sinfda o’quvchilar pamidor ko’chati yoki bir yillik gulli, manzarali o’simliklarning o’sishi va rivojlanishi uchun qo’shimcha oziqlantirishga tegishli eng yaxshi o’g’itni aniqlaydilar. SHu maqsadda bolar bir yashikdagi ko’chatni to’liq mineral o’g’it eritmasi bilan, ikkinchisini organik o’g’it eritmasi bilan, uchunchi yashikdagini esa mahalliy o’g’it bilan oziqlantiradilar.

Kishlok xujaligi darslarini sinfda xam maktab uchastkasida xam muvaffakiyatli utkazishning asosiy sharti barcha ukuvchilarni ish bilan band

bulishidir. SHuning uchun xam bu darslarga tayyorlanishda mexnat jarayonida ukuvchilarni uyushtirish yullarini puxta uylab kurish lozim.

Agarda sinfda 30 tadan ortik ukuvchi bulsa, sinfni ikki guruxga ajratish maksadga muvofikdir. Ukuvchilarni maktab uchastkasiga olib chikishdan oldin ularga xatti-xarakat koidalarini eslatish lozim. Yulaklardan yugirilmasdan xarakat kilinsa, usimliklar oyok ostida toptalmaydi. Ayniksa xaskash, ketmon kabi dexkonchilik asboblari duch kelgan joyga tashlansa utgan odamning oyogiga urilib jaroxatlashi mumkin.

Ukuvchilarga kishlok xujaligi ekinlarini parvarish kilish ishi ularning usish va rivojlanishini, ular tomonidan muntazam kuzatilishini tashkil etish kerak. Kuzatishni ikki boskichda amalga oshirish mumkin: birinchisi – usimlikni rivojlanishining turli boskichlarida bevosita kuzatish, ogzaki tasvirlash, ularni ulchash. Ikkinchisi - kuzatish natijalarini kayd etish. Ukuvchilar ukituvchi aytib turgan narsalarni kuzatish daftariga yozadilar.

**Tajribaning umumiy mavzusi**:

1. Pomidor yoki gulli, manzarali o'simliklar ko'chatini stakan, yashik yoki parnikda o'stirish.
2. Ortiqcha shoxlarni olib tashlashning pamidorning pishish muddatiga tahsiri.
3. Bir, ikki va uch poyali pomidorlarni o'stirish.
4. Mineral va organik ozuqalarning pomidorning o'sishiga va rivojlanishiga tahsiri.
5. Turli nav pomidorlarni bir xil to'proqda o'stirish ( boshqa sabzovatlar ustida ham shu tarzda tajriba olib borish mumkin). O'rni bilan ish davomida paydo bo'ladigan savollarni hal eta oladigan oddiy tajribalar ham o'tib turish zarur.

Tajriba davomida o'quvchilarning mustaqil fikrlashlariga, tug'ilgan savollarini mustaqil hal qilishlari mumkin qadar kengroq imkon yaratib berishlari lozim. SHunda ular tajriba o'tkazish yo'llarini, shunungdek tajribadan ko'zda tutilgan maqsadni yaqqol tushunib oladilar.

Bolalar uchun urug'ni stakan, yashik va yerga ekish, yaganalash, o'simliklarni o'sishiga va rivojlanishiga qanday tahsir etishini tajriba qilib ko'rish ayniqsa qiziqarlidir. Masalan pomidor urug'i 18 fevralda ivitildi, bo'rtgan urug' 24 fevralda tuproq to'ldirilgan yashik va qog'oz stakanchalarga ekiladi. Yashikdagi va stakandagi o'simliklar sug'oriladi va to'prog'i yumshatiladi, qisqasi yashik va stakandagi o'simliklar bir xil parvarish qilinadi. O'simliklar ikki kundan keyin nish uradi. Dastlabki 2 barg ko'rinishi bilan o'simlik urug' sepiladigan yashikdan olinib, ko'chat ekiladigan yashikka o'tkaziladi. Ko'chirib o'tkazish vaqtida asosiy ildizning bir qismi olib tashlanadi, keyin o'simlikning faqat ildizi emas, balki poyasining ham bir qismi ham tuproqqa ko'miladi. 22 mart o'simlik ko'chat yashikdan olinib, birinchi asosiy bargcha poyasini tuproqqa ko'mib parnikka o'tkaziladi.

Aprelg' oyining boshida bolalar ko'chatlarning aralash usulda ochiq joyga ekdilar va bir oy davomida kuzatdilar. Qog'oz stakanchalarda o'stirilib,

keyin o'tkazilgan o'simliklar bir joyga ekilib, shu yerda o'sgan o'simliklardan tubdan farq qiladi. Tarmoqdagi pamidorning poyasi kalta, baquvvat, barglari sersuv, to'q yashil rangli, yaxshi rivojlangan ildizida juda ko'p tomirchalar paydo bo'lgan. Bu ildizchalar o'simlikning yerdagi poya qismidan o'sib chiqqan. Aksincha bir joyda urug'dan o'stirilgan pamidorning ildizi bequvvat va kam edi. Buning sababi bolalardan so'ralganda bolalar bu savolga osongina javob berdilar.

Biz ko'chirib o'tkazish vaqtida asosiy ildizning bir qismini olib tashladik. U asta-sekin o'sa boshladi, yonidan chiqqan ildizchalar esa tez o'sib ketdi, poyadan ham shoxchalar o'sib chiqdi. O'simlikni poyasi bir oz tuproqqa ko'milgani uchun qo'shimcha ildizlar o'sib chiqdi.

Tajriba natijasida bolalar pamidor ildizini sistemasining o'sishi va rivojlanishini kishilarning harakatiga bog'liq ekanligiga ishonch hosil qiladilar. Tajriba uchun ikki hovli bo'lishi kerak. Birinchi hovlidagi pamidorning bachki shoxlari olib tashlanadi, ikkinchi hovlidagi pamidorning shoxlari olinmaydi. Tajriba vaqtida o'qituvchi bolalarga bachki shoxlarni yulish usullarini o'rgatadi. Bahzida bolalar bir va ikki poyali o'simlikni birinchi gulbargi ostidan bargini sezmay qoladilar. Natijada bir poyali o'simlik o'rniga ikki poyali, ikki poyali o'simlik o'rniga uch poyali o'simlik o'sadi.

Bundan tashqari bolalar ikki poyali o'simlikning ikkala poyasida ham hosil payqaydilar. U poyali o'simlikning hosili ikkita poyasida, ayrimlarida esa faqat asosiy poyasida ekanligini guvohi bo'ladilar. O'quvchilar ikki poyali pamidorning mevasi yirikroq bo'lib tezroq pishishini bilgach, qishloq xo'jaligi uchun ikki poyali pamidor o'stirish foydali degan xulosaga keladilar.

Sungra ukuvchilar tajriba asosida ruy bergan jarayonni kuzatishlari asosida suxbatlar olib boradi.

## SAVOLLAR.

1.Qishloq xo'jaligi mehnati ahamiyati?
2.Ko'chat ekish qaysi fasilda bo'ladi?
3.Necha poyali o'simlik mavjud?
4.O'simliklar nima bilan oziqlanadi?
5.Pamidor urug'i qanday o'stiriladi?

## TOPSHIRIQLAR.

1. Qishloq xo'jaligi ekinlari nomini keltiring.
2. Ish turi bo'yicha dars ishlanmasini tuzing.

## ADABIYoTLAR.

1.P.Magzumov. "O'quvchilarning mehnatga tayyorgarlik bo'yicha bilim va ko'nikmalari sifati".T. 1994y.

**2.** X.Sanaqulov, M.Haydarov “Boshlang’ich sinflarda qog’ozdan amaliy ishlar” 1996 yil

**3.** R.A.Mavlonova, Goroxova, Ogluzdina O “Mehnat tahlim metodikasi” T., “O’qituvchi” 1986 yil

**4.** SHumulevich N.M.“Qog’ozdan texnik modellar yasash” T.,“O’qituvchi” 1989 y

**5.** Vorobg’yov A.SH. “Konstruktorlik va modellashtirish” T., “O’qituvchi”1989 yil

**6.** Mavlonova.R.A. “Boshlang’ich sinf mehnat darsliklari”. T. 1996y.

## Mavzu: Mutafakkirlar merosida mehnat tarbiyasi.

Odam hunarning yaxshi va yomon sifatlarini bilgandagina hunarga oid bilimlarni mukammal egallashi, hunarmandlar ahlini qo’llab-quvvatlashi mumkin.

Darhaqiqat SHarq mutafakkir allomalari hunar va hunarmandlarga katta ehtibor berganlar. Jumladan, Alisher Navoiy o’z zamonasida zargarlar, kulollar, tikuvchilar kabi turli tuman hunar sohiblarining hammasiga zo’r hafsala, qunt, ehtibor bilan maslahatlar berib, husniga rag’bat ko’rsatib, hamda ularga homiylik qilganlar. Alisher Navoiyning fikricha “Inson bo’lib dunyoga keldingmi? Biron-bir kasbni egalla, hunar o’rgan, shunda dunyodan hammomga kirib toza yuvinib chiqmagan kishidek o’tmaysan”- deydilar.

SHuningdek donishmandlarimiz ugit qilganlarki, vaqtida ilm hunarga muhabbat qo’ying, o’rgatilgan narsalarni yodingizda tuting, ilim hunar o’rganishga chin ixlos bilan kirishing, yoshligingizni bekorga o’tkazmang. Hattoki, ulug’ shayxlarimizning o’zlari ham biror hunar egasi bo’lganlar. Masalan SHayxul Mashoyix Abu Said Xarros etikdo’zlik qilgan. SHayx Muhammad Sakko mashhur pichoqchi, SHayx Hoja Bahouddin Naqshbandiy ajoyib naqqosh bo’lganlar, boshqalarni hunar o’rganishga dahvat etganlar. Hoja Bahouddin Naqshbandiy aytadilar – “Dil bayoru dast bakor” yahni “Dilinng ollohda, qo’ling doim mehnatda bo’lsin”.

Insoniyat qadr-qiymati mehnatda, bilimda, hunarga tayanishda, birovga xor bo’lsamlikda deb bilgan Sahdiy shunday tahlim beradi.

O’z mehnatidan non yegan kishi,
Xotam minnatidan ozod yoz-qishi.

Muqaddas kitob Avestoda ham mehnat moddiy boyliklar manbai bo’lgani uchun emas, balki u mehnatni asosan ahloqiy jihat, yaxshilik manbai deb bilganligi uchun insonlarcha mehnat qilishga chaqiradi. Halq pedagogikasida

“Yoshlikda egallangan bilim, hunar toshga o’yib yozilgan hikmatdur” – deb tahkidlanadi.

“Farzandlarga odob-hunar o’rgatmak merosdur” – deb nasihat qilinadi Qobusnomada “Sen odob, hunar va donishini o’zingdan meros qilgin, toki uning haqqini bajo kelturmish bo’lgaysan”. CHunki xos kishilarning farzandiga odob va hunardan yaxshiroq meros yo’qdir. Oliy xaloyiqning farzandlariga xirfa (savdo hunari) pesha (kasb) din yaxshiroq meros yo’qdir. Agar xos odamlarning farzandlari yuz hunar bilsa va lekin hech kasbni bilmasa ayb emasdur. Hunar esa bir kun ishga yaragusidir. Demak albatta hunar o’rganmoq zarurdir:

O’tay o’g’lingga bilan desang agar,
Sen o’qishdi, o’rgatgin ilmu-hunar.
Agarda senda koruncha ham bo’lmasa zar,
O’z o’g’ishmingni qoldirmagin behunar.

Hunarning nechog’lik zarur ekanligini qator rivoyatlar, naqllar, ertak dostonlarda ham o’z aksini topgan. “Oltin baliqcha”, “Savdogar bilan podachi”, “Sirli gilamcha”, “Baliqchi bola”, “Ikki naqqosh ishi” kabi ertaklar “Hasanxon”, “Rustam”, “Ziyod” kabi dostonlar shular jumlasidandir.

Hunar egallash ham bir fazilatdir mahoratdir. Hunar egallashda halollik, poklik, sabr-qanoat, matonat, mehnat madaniyatiga rioya qilish muhim rolg’ o’ynaydi

Ota-bobolarimiz ham hunar o’rganishni asosiy vazifa ekanligini o’rgatib kelganlar. Nizomiy Ganjaviy shunday degan:

Hunar o’rgan chunki hunarda ko’p sir,
Yopiq eshiklarni ochar birma-bir.

Abur Rayhon Beruniy mehnat va hunar avloddan-avlodga meros bo’lib o’tishini sinchiklab o’rgangan va hunarni yuqori baholagan. U “Hunarmandchilikda, mehnatda to’liq ustozlik sahnatini egallab olishi kerak”, degan fikrni aytadi. Odatda o’sha davrda hunar va tabiiy bilimlar maktablarda o’rgatilmay yakka tartibda berilgan.

1. Ota kasbini egallash, oiladagi kattalardan yakka shogird shaklida.
2. SHogird etish tanilgan usta qo’lida yakka shogird bo’lish.
3. Ustaxonalarda yakka shogirdlik tartibida o’rganiladi.

Halqimiz bolalarda mehnatsevarlik va mehnatga qiziqishni tarbiyalash, otalarimiz izidan borib turli kasb-hunar egallash, ularda mehnat munosabatlarini kamol toptirish, kelajak hayotga tayyorlashni o’zlariga muhim vazifa deb hisoblaganlar. O’z farzandiga kasb-hunar o’rgatgan ustazodalari (usta darajasiga ko’tarilgan farzand) bo’lib yetishganlar. Tanlangan usta hunarmandlar uyida yakka shogirdlikka tushgan bolalar bir necha yil hunarga tahluqli bo’lmagan yumushlarni ham bajarib yuraverganlar.

SAVOLLAR.

1.A.Navoiy mehnat to’g’risida nima degan.
2. Qanday allomalarni bilasiz.
3.Kasb-hunarni o’rganish usullari kanday.

TOPSHIRIQ.

1. Mutafakkirlar merosidan namuna keltiring.
2. Kasb va hunar haqida fikringiz.

ADABIYoTLAR.

1. S.Hasanov “O’rta Osiyo mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida”. T. 1996y.
2. Munavarov “Pedogogika”.T. 1992y.
3. N.Gushkin. V.R.Xiltunin. “Mehnat eng yaxshi tarbiyachi”. T.1988y
4. I.A.Karimov “O’zbekistonning siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari”. T., “O’zbekiston”

## Mavzu: O’quvchilarni kasb-hunarga qiziqtirishda mutafakkirlar merosidan foydalanish.

Ukuvchilarni kasb-xunarga kizikishini tarbiyalashda insoniyat mexnat faoliyati tarixini urgatuvchi omillarga tayanib, ukuvchilarni kelajakda tugri kasb tanlashlariga ulkan zamin yaratilsa, maksadga muvofik bulardi. Ukuvchilarni mexnat turlariga kizikishini oshirish, kasb tanlash va uzlashtirishni shakllantirib borish uchun pedagoglar zimmasiga ukuvchilarga yoshligidan boshlab tahlim, tarbiya berish bilan birga kasb-xunarga kizikish ishlarini tugri yulga kuyishda kuyidagi shartlarga amal kilish lozim:

Boshlangich sinf ukuvchilariga kasb-xunar tugrisidagi tushunchalarni singdirish:

Ukuvchilarni yoshiga, jinsiga mos kasb-xunar tanlashga ularga pedagogik-psixologik yondashish:

Kasb-xunarga kiziktirishda ukuvchilarning yoshi va kobiliyatlarini xisobga olish:

Maxalla oksokollari, mexnat faxriylar bilan muntazam alokalar urnatish:

Mexnat ustaxonalariga ekskursiyalar uyushtirishni tashkil etish:

Darslarda mutafakkirlar merosidan foydalanib kasb-xunarga oid fikrlari bilan tanishtirish.

O’zbek halq tarbiyashunosligining o’tmishdagi mashhur mutafakkirlar, halq maorifi arboblari va mahrifatparvar shoirlarning, mehnat kasb-hunar to’g’risidagi qimmatli fikrlarini biz uchun ahamiyatli tomoni shundan iboratki, ulardan yosh avlodni mehnarsevarlik ruhida tarbiyalash, kasb-hunarga qiziqtirishning vositasi sifatida foydalanish mumkin.

Bizga mahlumki o’zbek halqining qadimiy kasb-kori asosan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bo’lgan. Ushbu kasb-korlar yuzlab yillar davomida shakllanib har biri o’z ichida o’nlab tarmoqlarga ajralgan va gullab yashnagan.

O’rta Osiyo mutafakkirlarining kasb-hunar, mehnatsevarlik haqidagi fikrlari bizga meros bo’lib qolgan. Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso Al-

Xorazmiy (783-850) ning insoniylik va mehnatsevarlik haqidagi dono fikrlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Mutafakkirning fikricha, har bir kishi qilgan ishlari bilan hech ham mag'rurlanmasligi va takabburlik qilmasligi lozim.

X asrdagi sharq ijtimoiy tarbiyashunoslik bo'yicha fikrlarning eng yirik vakili Abu Nasr Al-Farobiy (870-950)ning o'z davri uchun katta xizmatlaridan biri shundaki u insonlarni ilm-mahrifatli bo'lishga, mehnat qilishga va kasb-hunar egallashga chiqiradi.

Farobiy kasb-hunar va ahloqiy fazilatlar muayyan harakatlarni takrorlash, mashq qilish yo'li bilan paydo bo'lishini uqtiradi. Mutafakkir har bir kishi o'zi yoqtirgan kasbni egallaganidan so'ng, o'ziga topshirilgan ishga nisbatan yuksak mahsuliyatni his etishi va o'z "kasb-hunarini mukammal bilmog'i, yaxshi tarbiya olmog'i va yaxshi xulq atvor fazilatlariga ega bo'lmog'i kerak" deb tahkidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy (978-1048) ham mamlakatning obodonchiligi, kishilarning baxt-saodati va kamolati uning halol mehnat qilishida va kasb-hunar o'rganishida deb biladi. U kasb-hunar, ixtirolashga, turli asboblarni yasashga bag'ishlab 9 ta asar yozgan. Asarlarida o'zi yashab turgan davrdagi ishlab chiqarishning rivoji va kasb-hunarga oid qimmatli mahlumotlar berilgan.

Mehnatni va kasb-hunarni sharaflash, mehnat ahlining qadr-qiymatini uning manfati uchun astoydil kurashni Beruniyning zamondoshi qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino (980-1037) ning ilmiy faoliyatida ham ko'rishingiz mumkin. Ibn Sino "Odam ijtimoiy jondir" degan fikrni olg'a surdi. SHunung uchun ham olim odamning yashashi uchun eng zarur narsa foydali mehnat ekanligini tahkidlaydi.

O'rta Osiyoda ko'plab shoirlarning ustozi bo'lgan Abulqosim Firdavsiy (934-1020)ning "SHohnoma"sida mehnat ahliga mehr-muhabbat bilan yog'dirilgan va kasb-hunarni egallash malakasiga bagishlangan misralarini ko'plab uchratish mumkin:

Mehnat tagidadir, ey oqil, har ganj,
Ganj topmas hech kimsa, tortmas ersa ranj.

Firdavsiyga yaqin davrda yashagan shoirlardan yana biri Nosir Xisrav (1004-1088)dir. Uning fikricha, dunyodagi eng oliyjanob va oliyhimmat odamlar mehnatkashlar-jamiyat uchun foydali narsalar ishlab chiqaruvchi hunarmandlar, kosiblar, binokorlardir.

Kasbdan jodu hurram yo'q jahonda,
Hunardin yaxshidur ham yo'q jahonda.
Butun kun rizqining bog'boni bo'lg'ay,
Kishin o'z uyining mehmoni bo'lg'ay.
Arzir uning bo'lsa boshi osmonda,
Usiz yashay olmas shoh ham jahonda.

Yuqorida tilga olingan ulug' mutafakkirlarning mehnat tarbiyasi va kasb-hunar tarbiyasi borasida shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, inson

dunyoga kelar ekan o'z hayoti maboynida insoniy qadr-qiymatga ega bo'lishi kerak.

Zero mehnat qilgan, kasb-hunarli inson birovga qaram bo'lmaydi, yahni mehnat qilish orqali inson o'zining uch ehtiyojini qondiradi. Moddiy ehtiyojini, mag'naviy ehtiyojini, mehnat ehtiyojini qondiradi. Moddiy ehtiyoj qondirilishi natijasida mahnaviy va mehnat ehtiyojlari ham qondiriladi.

Xullas, boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnat va kasb-hunarni tarbiyalashda ulug' mutafakkirlarimizning asarlarida keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Mutafakkirlarning merosiga chuqur hurmat bilan qarash va ular yaratgan asarlarni ko'z qorachig'iday saqlash kerak.

## SAVOLLAR.

1.Hunar deganda nimani tushinasiz?
2.Ustoz va shogird haqida?
3.Mutafakkirlar merosi mehnat tarbiyasiga qanday tahsir etadi?

## TOPSHIRIQLAR.

1. Kasb-hunar turlarini ayting.
2. Mutafakkirlar merosidan kasb-hunar tarbisi haqida fikrlar keltiring.

## ADABIYoTLAR.


1.S.Hasanov "O'rta Osiyo mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida". T. 1996y.

**2.** X.Sanaqulov, M.Haydarov "Boshlang'ich sinflarda qog'ozdan amaliy ishlar" 1996 yil

**3.** R.A.Mavlonova, Goroxova, Ogluzdina O "Mehnat tahlim metodikasi" T., "O'qituvchi" 1986 yil

**4.** SHumulevich N.M."Qog'ozdan texnik modellar yasash" T.,"O'qituvchi" 1989 y

**5.** Vorobg'yov A.SH. "Konstruktorlik va modellashtirish" T., "O'qituvchi"1989 yil

**6.** Mavlonova.R.A. "Boshlang'ich sinf mehnat darsliklari". T. 1996y.

## Mavzu: Mehnat darslarining ishlanmasini tuzish.

Dars rejasi o'quv yilining boshida yillik kalendar reja bo'yicha taqsimlanadi. Dars rejasi 4 bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich tashkiliy qism, bunda qo'ng'iroq chalingandan boshlab yangi dars bayon etilgan vaqtgacha bo'lgan davr hisoblanadi. Ikkinchi bosqich uy ishini tekshirish va baholash, uchinchi bosqich yangi mavzuni bayoni, to'rtinchi bosqich darsning yakuni, bunda bajarilgan ishlarni baholash, uyga vazifa berish va ish joylarini tozalashlar kiradi. Bir soatlik dars misolida ko'rib chiqamiz.

Mehnat.

**Mavzu**: **8 mart bayramiga tabriknoma yasash**.

Darsning maqsadi: Bayramga tabriknoma yasash, har-xil shakllarni kesishga o'quvchilarni o'rgatish, mehnat qurollaridan to'g'ri foydalanish.

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, ko'rsatmali.

Dars jihozi: yasalgan tabriknomalar, kley, qaychi, rangli qog'oz, karton, gullar andozasi.

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism.

Salomlashuv. Davomatni aniqlash.

- Hozir nima dars?
- Bugun nechanchi sana?
- Hozir qaysi fasl?
- Bahor faslida tabiatda qanday o'zgarishlar bo'ladi?
- Hozir qaysi oy?
- Mart oyida qanday bayramlar bo'ladi?
- 8 mart qanday bayram?

2.Uy ishini tekshirish.

- Uyga qanday vazifa berilgan edi?
- Hamma uy ishini oldiga qo'ysin.

Uy ishini tekshirib, baholab chiqish, chiroyli va toza bajarganlarni rag'barlantirib, o'quvchilarga namuna qilib ko'rsatiladi. Bajarilmagan ishlarni bajarib kelgandan so'ng keyingi darsda tekshirishni aytiladi.

3.Yangi mavzuni bayoni.

Bolalar bugun biz xalqaro xotin qizlar bayramiga tabriknoma yasaymiz. O'z qo'limiz bilan yasagan tabriknomalarni onalarimizga, opalarimizga, buvi, singillarimizga shehrlar aytib shirin so'zlik bilan tabriklasak, ular juda xursand bo'lib ketadilar.

Onalar to'g'risida ko'plab maqol, hikmat, hikoyat, shehr, asarlar bor, masalan:

**Xikmatlar.**

Onaning bir qo'li beshikni,
Ikkinchi qo'li dunyoni tebratadi.

Onaning dili og'risa,
Yer ham titraydi.

Dunyo tor bo'lganda ham,
Ona bag'ri keng.

**Makollar.**

Ona bilan bola,
Gul bilan lola.

Bolaning barmog'i og'risa,
Onaning yuragi achiydi.

**SHehrlar.**

Avaylab bizni
Bir parcha go'shtdan.
Inson qilolgan
Onaga tahzim!

Axir onaku do'stlar.
Yo'qdan bizni bor etgan.
Kim xo'rlasa onasin.
Bahri qon tuban ketgan.

Ona muqaddas! Ona aziz va mo'htabar siymo! Ona ulug'lik. Go'zallik, donolik timsoli. SHuning uchun bolalar onalarni doimo hurmat qiling ular ish buyursalar, xo'p bo'ladi deb bajaring.

O'quvchilardan shehr maqol. Hadislar so'raladi. So'ralib bo'lgandan keyin tabriknoma yasashni boshlaymiz.

Bolalar avval karton yahni alg'bom varog'ini 2 ga bo'lamiz, uni chetlarini qizil rangli qalamda chiroyli qilib chizamiz. O'quvchilarga ko'rsatilib birgalikda bajariladi. Ularga ish qoidasi ham o'rgatilib boriladi. Bolalar qaychidan ehtiyot bo'lib foydalanishni, qog'ozni kesayotganda qo'lini kesib olmaslikni aytiladi.

Gul lolalarni andozasi bolalarga tarqatiladi, ranglarga qarab kesib yoki chizib oladilar. So'ngra yopishtirish ishlari bajariladi. Bolalar kleydan unumli foydalanishini to'kib partalar kiyiminlarini kley qilib qo'ymasligi tahkidlanadi.

Tabriknoma yasab bo'lgandan so'ng, uning ichiga doskadagi tabriknomani ko'chirib oladilar. Tarbiknoma bitdi, tekshirib, baholab chiqiladi. Kimning yasagan ishi chiroyli, toza, to'g'ri bo'lsa rag'barlantiriladi.

4. Darsning yakuniy qismi.

Hamma ish joylarini tozalab chiqish kerakligini aytiladi va uyga borib buvi, ona, opa-singillaringizga shehrlar, ashulalar aytib 8- mart bilan tabriklanglar deb dars yakunlanadi.

SAVOLLAR.

1.Darsning tashkiliy qismida nimalarga ehtibor berish kerak?
2.Nima uchun har darsda davomad tekshiriladi?

3.Uyga vazifa nima uchun beriladi?

TOPSHIRIQLAR.

1. Dars ishlanmasini tuzing.
2. Dars ishlanmasidan namunalar keltiring.

ADABIYoTLAR.

**1.** X.Sanaqulov, M.Haydarov “Boshlang’ich sinflarda qog’ozdan amaliy ishlar” 1996 yil

**2.** R.A.Mavlonova, Goroxova, Ogluzdina O “Mehnat tahlim metodikasi” T., “O’qituvchi” 1986 yil

**3.** SHumulevich N.M.“Qog’ozdan texnik modellar yasash” T.,“O’qituvchi” 1989 y

**4.** Vorobg’yov A.SH. “Konstruktorlik va modellashtirish” T., “O’qituvchi” 1989 yil

**5**. Mavlonova.R.A. “Boshlang’ich sinf mehnat darsliklari”. T. 1996y.

## Mavzu: Qog’oz va karton bilan ishlash darslarini mazmunini tashkil etish metodikasi.

Birinchi sinfda o’quvchilar eng avvalo faqat mehnat darsi mashg’ulotlaridagina emas, balki boshqa darslarda ham to’qnash keladigan materiallar bilan ham tanishadilar. Bu barcha o’quv anjomlari daftarlar, kitoblar, o’quv qo’llanmalari bosiladigan qog’oz turlar, yozadigan muqova qilinadigan, bosma, rasm solinadigan kitob va gazeta qog’ozlaridir. Qog’oz va karton bilan boshlangich sinflar mexnat darslarida eng kup kullanadigan materiallardir. Ukuvchilar bu materiallarga kundalik xayotda xam kup marta duch keladilar.

Tahlim jarayonida o’quvchilar turli qog’ozlarning asosiy jismoniy xususiyatlari rangi, qalinligi, zichligi, siyohni ishlatish xususiyati, sathining xarakteri silliq, g’adur-budurligi bilan tanishadilar. Bahzi narsalarni tayyorlashda bolalar yelimdan foydalanadilar. Demak, bolalar 1-sinfdayoq tayyor yelimlarining asosiy xususiyatlari: yopishqoqligi, saqlanishi, yelimlashni o’rganishlari kerak.

Qog’oz va kartonga ishlov berish usullari unchalik murakkab emas, bolalar ularni osonlik bilan uzlashtirish oladilar. Qog’oz va kartonga ishlov berish yuzasidan egallangan malakalar keyinchalik barcha mexnat turlari buyicha mexnat tahlimida keng kullaniladi.

**Qog’ozni buklash usullari.** Qog’ozni tng ikkiga buklash uchun qog’oz stol yoki parta ustiga kuiladi va ung xamda chap kuli bilan kogozni uziga yakin turgan tomonining ikki uchidan ushlab, uni pastki uchlari bilan tenglashtiriladi. Bunda kogozning uchlarining kirrasi bir-biriga rugri tushishi kerak. Ana shundagina kogoz kul bilan tekislanib, uning bukilgan chizigi ustidan tirnok bosib yurgiziladi.

**Qog’ozni bukilgan joyidan yirtish.** Kogozni yirtishdan oldin, avval extiyotlik bilan ochiladi, uning bir tomoni ung kul bilan bosilib, chap kul bilan bukilgan chizikdan sekin yirtiladi, Bukilgan chizik ustiga chizgichni kuyib, xam kogozni yirtish mumkin.

**Qog’ozni bukilgan joyini pichokda kirkish.** Kogozni buklab, tirnok bilan bosib iz tushiriladi. SHundan sung uning buklangan chizigini ung tomonga kilib stol ustiga kuyiladi, uning orasiga pichokni tikib yurgiziladi.

**Qog’ozni kaychi bilan kirkish.** Kaychi ung kulda ushlanadi. Ish vaktida kaychini xarakatsiz ushlab, kirkilayotgan kogozni, undagi kesish chizigi anik kurinishi uchun aylantirib turiladi.

**Qog’ozni yopishtirish.** Stolning ustiga gazta yozib, uning ustiga kerakli ulchamda kirkib olingan rangli yoki istalgan kogoz kuyiladi va muykalam yordamida urtasidan chetiga avval chap, sungra ung tomonga karab yelim suriladi. Yelimni tez, yupka kilib suriladi. Yelim surilgan kogozni yopishtiriladigan predmetning ustiga kuyib, uning ustidan gijimlanishlar bulmasligi uchun toza latta bilan bosib tekislanadi.

**Qog’oz va kartonni ulchash usullari.** Mexnat darslarida kogozni ulchash usullari unchalik murakkab emas va ular matematika darslarida kullanadigan asboblar yordamida bajariladi. Birinchi navbatda bu oddiy chizgich, uchburchak chizgich va tsirkuldir.

Qog’oz va karton bilan ishlash darslarining asosiy xususiyati shundaki, bu darsda buyumlarning umumiy ko’rinishidagi yig’ma, chizma va buyumning namunasi yoki faqat texnikaviy rasm va chizmalardan foydalaniladi.

O’qituvchi o’quvchilarning yig’ma chizmani o’qishga, chizma va namunadan barcha detallarni, ularning o’lchamini aniqlash va har qaysi detalni mustaqil belgilab olishga o’rgatadi. O’qituvchi o’quvchilarga namuna va mehnat darsidagi chizmani ko’rsatib, bolalar bilan maketni yasash uchun nechta detal tayyorlash kerakligini, ularning o’lchami shakli qanday bo’lishini aniqlaydilar.

Bolalar chizmaga qarab to’g’ri burchak, uchburchak shaklida ekanligini aytadilar. Qog’oz va karton bilan ishlash mashg’ulotlari o’quvchilar oldindan qo’yidagi tayyorgarlik ko’rishadi: stolning ustiga qog’oz yozib, ish uchun kerakli ish qurollari va materiallarni olib tayyorlaydilar. Har bir mashg’ulot oxirida o’quvchilar keyingi mashg’ulotda kerakli bo’ladigan narsalarni yozib oladilar.

O’quvchilar ishlayotgan materiallarga tejamkorlik bilan munosabatda bo’lishlari, o’z ishini rejalashtira bilishlari, vaqtdan unumli foydalanishlari shu bilan birga ish joylarini toza va ozoda, sinf xonasini tozalab qo’yishlari kerak.

Barcha fanlarda qo’llanilganidek mehnat darslarida ham tahlimning ko’rsatmali vositalaridan foydalaniladi. Jumladan mehnat darslarida turli xil namuna, rasm chiziq sxematik namuna turli predmetlarning shuningdek texnik vositalardan foydalaniladi. Yuqorida aytib o’tkanimizdek “Qog’oz va karton bilan ishlash” mashg’ulotlarida o’quvchilar qog’ozni buklash yo’li bilan turli xil narsalarning shaklini yasashni ham o’rganib boradilar. Ana shunday mashg’ulotlar davomida o’qituvchi quyidagi ko’rsatmali qurollardan foydalanish mumkin. SHu bilan o’quvchilar bu ko’rgazmalarni yasashni bosqichlariga rioya qilgan holda, dars davomida yasalishini o’rganib borishlari mumkin.

**1.”Lola “ ko’rsatmali qurolli**.(1-rasm)

**1.-Bosqich**.Rangli qog’ozlardan kvadrat qirqib olinadi. Uning diogonallari bo’yicha buklab, buklangan do’ppi shakliga keltiriladi.

**2.-Bosqich**.Buklashdan hosil bo’lgan uchburchakning pastki, asos tomonidagi ikki uchi yuqoridagi uchinchi uchiga qarab, unga yetkizdirib buklanadi. Xuddi shuningdek orqa tomondagi ikki uchi ham uchinchi uchiga karab buklanadi.

**3.- Bosqich**.Hosil bo’lgan shaklda cheti o’rtaga hosil bo’lgan chiziqqa tomon buklanadi. SHaklning orqa tomoni ham shunday buklanadi.

**4.- Bosqich**.Oxirgi buklangan shakllarning har bir orqa tomoniga qaytarib buklanadi. Buklangandan so’ng ularning uchlari bir biriga qaytarilib qayriladi.

Keyin shakilni pastgi ochiq tomonidan asta puflanadi. SHaklning yuqori qismidagi uchlari esa orqaga qaytarib buklanadi. Natijada “lola” shakli hosil bo’ladi. Lolaning bandini boshqa qog’ozni tsilindir shaklida o’rab, uni lolaning pastki puflangan qismiga kiritib qo’yish bilan tugallash mumkin. Bu bandga lolaning bargini g’unchasini ham yopishtirib qo’yish mumkin.

SAVOLLAR.

1.Qog’oz bilan ishlashning mehnat darslaridagi ahamiyati.
2. Qog’ozning hozirgi kundagi turlari.
3.Karton qog’ozi qanday qog’oz.

TOPSHIRIQLAR.

1. Karton turlarini keltiring.
2. Qog’oz turlarini keltiring.
3. Qog’oz va kartonning farqini ayting.

ADABIYoTLAR.

1.P.Magzumov. ”O’quvchilarning mehnatga tayyorgarlik bo’yicha bilim va ko’nikmalari sifati”.T. 1994y.

**2.** X.Sanaqulov, M.Haydarov “Boshlang’ich sinflarda qog’ozdan amaliy ishlar” 1996 yil

**3.** R.A.Mavlonova, Goroxova, Ogluzdina O “Mehnat tahlim metodikasi” T., “O’qituvchi” 1986 yil

**4.** SHumulevich N.M.“Qog’ozdan texnik modellar yasash” T.,“O’qituvchi” 1989 y

**5.** Vorobg’yov A.SH. “Konstruktorlik va modellashtirish” T., “O’qituvchi”1989 yil

**6.** Mavlonova.R.A. “Boshlang’ich sinf mehnat darsliklari”. T. 1996y.

## Mavzu: Turli va tabiiy materiallar bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi.

O’zbekiston tabiiy resurslar, foydali qazilmalar, metall va qotishmalar, plastmassalar, yog’ochlar va o’simliklarga boy o’lkadir. Respublikamizning bu tabiiy boyliklari sanoatda, turmushda foydalanadigan xom ashyo bo’lishi bilan bir qatorda mehnat darslarida bajariladigan ishlar uchun kerakli material bo’lib ham xizmat qiladi.

Ukuvchilarni ilk yoshligidan boshlab bolalarda ona tabiatga kizikish va muxabbatni, undagi guzalliklarni kura bilishni tarbiyalash krak. Tabiiy materiallar bilan ishlash ularni tabiatni kuzatishga majbur kiladi. Kuzatishlar esa badiiy ijodiy kobiliyatlarni, konstruktorlik goyasini, tushunchalarning anikligini uygotadi.

Turli tabiiy materiallar bilan ishlash, turlicha ishlov berilishini, turli asboblardan foydalanishni talab kiladi va ularni ishlatish bilim, kunikma, malakalarini beradi.

Turli tabiiy materiallarni tuplash ukituvchi kuygan maksadga boglik buladi. Ukuvchilar kurib chikilgan va batafsil muxokama kilingan yoki uzlari uylab topgan tasvir uchun material tuplaydilar.Va aksincha, avval kandaydir materialni tuplab, keyin kanday ish bajarishni aniklashlari kerak.

Tabiiy materiallarni ukuvchilar dastlab ukituvchi raxbarligida sayr vaktida tuplaydilar. Tabiiy materillarni tulash jarayonida ukuvchilar atrofdagi usimliklar dunyosi, xashoratlar bilan tanishadilar, daraxtlar, gullar navlarini, nomlarini, shakllarini, tabiiy materiallni kachon va kanday tuplash va kanday saklash lozimligini bilib oladilar. Tabiatni kuriklash va unga extiyotkorona munosabatda bulish, uni asrash masalalariga aloxida ehtibor berish xar bir ukuvchining burchidir.

Mexnat darslarida tabiiy materiallardan: kuritilgan bargalar, gullar, poliz ekinlari- kovun, tarvuz, kovok uruglari, mevalar – olcha, urik, shaftoli

danaklari va shu kabilar: balik tangalari va kanotlari, juxori va makkajuxori sutalari, paxta chanogi, yongok pusti va shu kabilardan keng foydalaniladi.

Tabiiy materillarni tuplayotgan xar bir ukuvchi tabiiy materiallarni tartibli yigish va tayyorlash lozimligini bilishi, barg tuplash jarayonida daraxtlar, butalar shoxini kupollik bilan sindirish, gul va shu kabilarni uylamasdan tuplash tabiatga nisbatan vaxshiylik ekanligini yodda tutishi lozim. Gullarni kul bilan sindirib bulmaydi, aks xolda poyasi zararlanishi mumkin.

Usimliklarni tuplashda gazeta, gerbariy papkasi, kaychi, paxta bulishi kerak. Gazeta daftarsimon taxlanib, orasiga materiallar tartib bilan joylanadi.

Kuritib olishga muljallangan usimliklar xar kanday namlikdan xoli bulishi kerak, aks xolda usimlik kuritilganda unda doglarning izi koladi. Kuritilayotgan usimlikning tabiiy rangini asrab kolishning eng muxim sharti, ularni shamol utib turadigan joyda, yelvizakda, kuyosh nurida tez kuritib olishdir. Usimliklarni kuritish 3 sutkadan oshmasligi kerak.

**Gerbariy ramkalarida kuritish.** Gerbariy ramkalarida kuritilgan usimliklarning kupchiligi uzining tabiiy rangini saklab koladi. Bunda usimlik yumshok kogoz yoki gazeta orasiga solib kuyiladi.Xar bir varak kogoz va usimlik urtasiga yana bir necha kavat kogoz yoki gazta kuyiladi, chunki kuritilayotgan usimlik uzidan namlik chikaradi. SHundan sung papka ikkita tursimon ramka urtasiga kuyilib, ochik xavoga kuyiladi. Agarda xavo xarorati kechkurun va kechasi juda pasayadigan bulsa, kuritilayotgan usimlik issik va kuruk joyga olib kiriladi.

**Pressda kuritish.** Orasiga usimlik solingan kogozlar gerbariy papkasi urniga ikkita faner listlar urtasiga joylanib, ogir narsa bostirib kuyiladi. Ogrilik pressga kancha usimlik joylashtirilganiga boglik buladi. Mayda nozik usimliklar kam ogirlikni va kuritish uchun kamrok vaktni talab kiladi. 2-3 soatdan sung kogoz almashtiriladi. Kuritish shu usulda davom ettiriladi.

**Issik dazmol bilan kuritish.** Issik dazmol bilan odatda barglar, poyalar, maysalar kuritiladi. Kavat-kavat gazeta yoki yumshok kogoz orasiga usimlikni kuyib, ustidan dazmol yurgiziladi. Sungra ustki kavatidagi gazetani olib, kuritilayotgan usimlik shamollatiladi va kuruk joyga suriladi, sungra gazeta yopib yana dazmollandi. Usimlik 2-3 minutda kuriydi va u uzining tabiiy rangini yukotmaydi. Agarda kuritilgan usimlik kutarilganda uzining tanasini ushlab tursa, u yaxshi kuritilgan xisoblanadi. Agar u sinib maydalanib ketsa, demak, u ortikcha kuritib yuborilgan xisoblanadi.

**Metall va qotishmalar.** Metall suzi grekcha yerdan kazib olaman degan mazmunda bulib, u dastlab kon, kazilma, degan mahnolarni anglatadi. Kadimgi dunyo xalklari fakat oltin, kumush, mis, kalay, kurgoshin, temir, simob kabi 7 ta metallnigana bilishgan.

Mehnat darslarida metall va qotishmalardan ham foydalanadilar. Metallar o’zlarining texnik xususiyatlari: mustahkamligi, qattiqligi, egiluvchanligi, issiqlik va elektr o’tkazishi, suvga bardoshliligi, eruvchanligi va cho’kuvchanlik xususiyatlariga ega. O’quvchilar rangli metall va qora metall turlarini bilishlari kerak.

**Qora metall** – temirning uglerod bilan qotishmasi va ozroq miqdordagi kremniy, marganets, fosfor, oltingugurt va boshqa elementlar aralashmasidan iborat bo'ladi. Bularga: Po'lat, cho'yan, temir, tunuka va folg'ga kiradi.

**Rangli metallga** – mis, alyumin, qo'rg'oshin, jez, qalay va boshqa metallar va ularning qotishmalari kiradi.

Metall bilan ishlanadigan asboblar: Taxta qilingan metallni qirqishda maxsus tunuka qaychilari kerak bo'ladi. Simni o'tkir ombir bilan folg'gani qaychi bilan qirqiladi. Metallarni mustahkamlovchi va boshqa ishlarda bolg'a, egov kabi asboblar qo'llaniladi. Metallga ishlov berishda xavfsizligi texnikasi qoidalariga rioya qilish zarur

**Sim bilan ishlash**. Turli xil narsalarni yasashda xilma-xil simlardan foydalanish mumkin. Sim to'qish va o'rib olish uchun yaroqlidir. Qattiq po'lat yoki alyumin simdan texnik modellashda bir qator detallarni yasashda foydalaniladi. Bu simdan arava, avtomobilg' o'qlari, suv parragi, o'yinchoqlar va shu kabilarni tayyorlashda foydalaniladi. Ishlab chiqarilayotgan simlar diametri 0,005 dan 17mm gacha bo'ladi. U asosan dumoloq kesimli bo'ladi, Biroq kvadrat, olti qirrali, trapetsiyasimon yoki oval shaklidagi simlar ham bo'ladi. Simlar turli maqsadlarda: elektr, radio, telefon simlari, prujinalar, mixlar, eektrodlar, ingichka parma, musiqa asboblari uchun torlar yasash va shu kabilardan foydalaniladi.

**Plastmassalar.** Plastmassalar suhniy olinadigan modda bo'lib, sanoatimiz plastmassadan turli predmetlarni va kapron, neylon, organik oyna, paralon, polietilen va shu kabi xilma-xil to'qimalarni ishlab chiqaradi. Plastmassalar juda yengil va shu bilan birga bukiluvchan va elastikdir. Ayrim plastmassalar o'ta mustahkam bo'lib issiqlik va elektrni yaxshi o'tkazadi, kislotalarga bordoshlidir. Plastmassaga ishlov berishda deyarli chiqindi bo'lmaydi. Mehnat tahlimi amaliy mashhulotlarida topilishi oson bo'lgan plastmassalardan va ishlab chiqarish chiqindilaridan foydalaniladi. Bular: organik shisha, paralon, penoplast, linoleum, ebonit, kapron, tekstolitdir

**Organik shisha -** Organik shisha oddiy shisha singari shaffof, ammo sinmaydigan suhniy plastmassadir. Organik shishani aralash, egish va yelimlash mumkin. U turli ranglarga bo'yaladi.

**Paralon –** Suhniy yo'l bilan olinadigan material bo'lib, g'ovvak tuzilishga ega, usti yumshoq, juda yengil, yaxshi bo'yaladi, suv tahsir etmaydi. Paralonni gazlamaga, qog'ozga va ko'pgina materillarga yopishtirish mumkin.

**Penoplast -** Anchagina pishiq, juda yengil, oq rangdagi material. Undan kemasozlik, samolyotsozlik, qurilish va elektronika hamda boshqalarda foydalaniladi.

**Linoleum –** Qurilishda keng qo'llaniladi. Bu turli smolalar, alifmoy, maydalangan po'kak, turli bo'yovchilar va boshqa materiallar aralashmasidan olingan suhniy materialdir. Linoleumning qalinligi 2,5 mmdan 5mmgacha bo'ladi.

**Teksolit –** ko'p qavatli gazlamadan katta bosimda presslanib tayyorlanadigan suhniy plastmassa juda pishiq xususiyatga ega. Undan shesteryonka, roliklar, podshipniklar uchun vkladishlar tayyorlanadi.

**Ebonit –** maxsus usulda ishlov berilgan rezina, Ebonitdan har xil turdagi elektr asboblari tayyorlanadi, u sinuvchan, shunung uchun ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab qiladi.

**Yog'och –** eng ko'p tarqalgan materil bo'lib, o'quvchilar mashg'ulotlarda ko'p tarqalgan daraxt turlari bilan tanishib chiqishlari kerak.

**Qarag'ay -** ko'p tarqalgan ishlov berish oson daraxtdir. U unchalik qattiq emas, ammo pishiq, yorish, arralash oson, tolalari bo'ylab randalanadi.

**Qoraqarag'ay –** yaxshi ishlanadi, uning yog'ochi oq rang bahzan sarg'ish bo'ladi. Qoraqarag'ay tuzilishiga ko'ra qarag'aydan yumshoq va yengil. Biroq qoraqarag'ayda butoqlar ko'p quriganda yorilib ketadi.

**Qayin –** Qarag'ayga nisbatan pishiqroq va og'irroq, biroq oson arralanadi va randalanadi, qayin yoqimli qizg'ish tovlanuvchan oq-sariq rangda bo'ladi.

**Eman –** yog'ochi qattiq, u pishiq va zich hamda og'ir, chiroyli jigar rangga ega.

**Toqterak –** asosan mayda buyumlar yasashda foydalaniladi. Yog'ochi yumshoq anchagina yengil.

**Jo'ka –** yog'ochi yumshoq, aralash oson, pichoq bilan oson ishlanadi, darz ketmaydi. Jo'kani yorish qiyin. Qarag'ay va qoraqarag'aydan yengil sarg'ish oq rangda.

**Fanera –** Yog'ochdan shponlar qilinadi, fanerani mana shu shponlar – yog'ochning payraha qilingan yupqa qatlamlari yelimlab yasaladi.

**Mozaika -** buning uchun yupqa yog'och plastinkalardan tasvir yig'iladi va keyin ularni asosga yelimlab, ustidan lak yoki politra beriladi.

**Loy -** Loy narsalar yasashdagi asosiy material hisoblanadi, chunki u istalgan joyda topiladi, arzon va qayishqoqdir. Narsalar yasaladigan loyda boshqa narsalar tosh, qum va shu kabilar bo'lmasligi kerak. CHunki ish qo'lda bajariladi. SHuning uchun ish boshlashdan oldin loyni tekshirib ko'rish kerak. Loy shirali va shirasiz bo'ladi. SHirasiz loyning tarkibida ko'p qum bo'lib, unda yopishqoqlik xususiyati yomon bo'ladi. Loyni aralashmalardan tozalab, ustiga suv qo'yib, 5-6 soat saqlanadi. So'ngra suvi to'kib, qo'lga yopishmaydigan quyuqroq xamir holatiga kelguncha yaxshilab ishlanadi.

**Plastilin –** narsalar yasashda qo'llaniladigan materialdir. U sunhiy plastik massa bo'lib, loydan hech qachon qurimasligi va doimo ishlatishga tayyorligi bilan farqlanadi. Plastilinning har xil – oddiy va murakkab turlari bo'lib uni tayyorlashni bir nechta usullari bor.

Birinchi variant – toza quyuq loyga glitserin qo'shib bir turli massa hosil bo'lguncha aralashtiriladi. Glitserin tayyorlanadigan massa qo'lga yopishmaydigan holatga kelguncha qo'shiladi.

Ikkinchi variant – quritilgan toza loy mayda qilib tuyuladi va unga vazelin qo'shib, qo'lga yopishmadigan quyuq massa hosil bo'lgancha aralashtiriladi. Plastilinga kerakli rangdagi quruq bo'yoq massasini qo'shib va puxta aralashtirib bo'yash mumkin.

Uchunchi variant - 1 qism to’prog’iga 1/5 qism ilitilgan mum hamda plastilin qo’lga yopishmaydigan darajaga yetguncha glitserin qo’shib aralashtiriladi.

**Mum –** Plastilin va loydan tashqari narsalar yasashda mumdan ham foydalaniladi. Mum tabiiy va suhniy turlari mavjud. Mum ancha qimmat turadi va undan mayda narsalar yasaladi. Mum bilan ishlash qo’lay, u qo’rimaydi, suv bilan namlashni talab qilmaydi, darz ketmaydi va undan yasalgan narsalar uzoq saqlanadi.

SAVOLLAR.

1. Mehnat darslarida metallning ahamimyati qanday.
2. Neogrnik moddalar qaerdan olinadi.
3. Yog’ochning turlari qanday.

TOPSHIRIQLAR.

1. Turli materiallarning mazmunida namunalar keltiring.
2. Dars ishlanmasini keltiring.

ADABIYoTLAR.

**1.** X.Sanaqulov, M.Haydarov “Boshlang’ich sinflarda qog’ozdan amaliy ishlar” 1996 yil

**2.** R.A.Mavlonova, Goroxova, Ogluzdina O “Mehnat tahlim metodikasi” T., “O’qituvchi” 1986 yil

**3.** SHumulevich N.M.“Qog’ozdan texnik modellar yasash” T.,“O’qituvchi” 1989 y

**4.** Vorobg’yov A.SH. “Konstruktorlik va modellashtirish” T., “O’qituvchi” 1989 yil

**5.** Mavlonova.R.A. “Boshlang’ich sinf mehnat darsliklari”. T. 1996y.

## Mavzu: Loy va plastilin bilan ishlash darslari tashkil etish metodikasi.

Boshlang’ich sinflarda loy va plastilin bilan ishlash mashg’ulotlarining maqsadi va vazifasi bolalarning haykaltoroshlikning elementar asoslari bilan tanishtirish va amaliy ishlashga o’rgatishni nazarda tutadi. Bunday mashg’ulotlarni yuksak saviyada tashkil etish va o’tkazish har bir o’qituvchidan mazkur soha bo’yicha mahlum tayyorgarlikka ega bo’lishni talab etadi. Buning uchun o’qituvchilar o’z ustlarida ko’proq ishlashlari, xaykaltoroshlik va sapoldo’zlik asoslarini yaxshi bilib olishlari kerak bo’ladi

Mehnat darslarida loy, plastilin, mum kabi materiallardan foydalanib, ulardan turli uyinchoqlar, jonivorlar, qushlar, ertak qaxromonlari yasaladi.

Uyinchoq – dekorativ sahnatning eng qadimiy turlaridan biri bo'lib, qadim asarlarda loydan yasalgan narsalar bizgacha yetib kelgan. Mamlakatimizda sanoat va madaniyatning rivojlanib borishiga ko'ra uyinchoqlarni assortimenti, ularning obrazlari yildan-yilga boyib bormoqda. Uyinchoqlar yasaladigan materiallar xilma-xildir. Biroq afzallik loyga beriladi. Loy narsalar yasashda asosiy material hisoblanadi.

CHunki u istalgan joyda topiladi, arzon va qayishqoqdir. Narsalar yasaladigan materialda chet predmetlar, tosh, qum va shu kabilar bo'lmasligi kerak. CHunki ish qo'lda bajariladi. SHuning uchun ish boshlashdan oldin loyni tayyorlash kerak, topilgan matni narsalar yasashga yaroqli yoki yo'qligini oldindan tekshirish kerak. Loy shirali va shirasiz bo'ladi. SHirasiz loy tarkibida qum ko'p bo'lib, unda yopishqoqlik xususiyati yomon bo'ladi.

Loy va plastilin ham turli narsalar yasash uchun juda qulay bo'lib, ayrim xususiyatlariga ko'ra, bir-biridan ajralib turadi. Masalan plastilin rang-barangligi va doimo ishga tayyor holda ekanligi bilan ajralib turadi. Lekin asosiy kamchilik shundaki, plastilin issiqda tez erib ketadi va o'zining qayishqoqlik xususiyatini yo'qotadi. Bundan tashqari plastilindan ishlangan haykalchalarni ochiq joyda saqlash juda qiyin. Undan asosan kichik modellarni yasashda foydalaniladi. U sunhiy plastik massa bo'lib, loydan hech qachon qurimasligi bilan farqlanadi. Plastilin har-xil oddiy va murakkab turlari bo'lib, retseptlari bor.

Birinchi variant – toza quyuq loyga glitserin qo'shib bir turli massa hosil qilguncha aralashtiriladi. Glitserin tayyorlanayotgan massa qo'lga yopishmaydigan holatga kelguncha qo'shiladi.

Ikkinchi variant - quritilgan toza loy mayda qilib tuyuladi va unga vazelin qushib, qulga yopishmaydigan quyuq massa hosil bo'lguncha aralashtiriladi. Plastilinga kerakli rangdagi quruq buyoq massasi qushib va puxta aralashtirib buyash mumkin.

Uchunchi variant- 1 qism tuprog'ida 1/5 qism ilitilgan mum hamda plastilin qulga yopishmaydigan darajaga yetguncha glitserin qushib aralashtiriladi. Plastilin va loydan narsalar yasashni u yaxshilab qulda ezilgandan keyin boshlash kerak.

Plastilin va loydan tashqari narsalar yasashda mumdan foydalaniladi. Mumning tabiiy va suhniy (neftdan olingan) turlari mavjud. Mum ancha qimmat turadi va undan mayda narsalar yasaladi. Mum bilan ishlash qulay, u qurimaydi, suv bilan namlanishni talab qilmaydi, darz ketmaydi va undan yasaladigan narsalar uzoq saqlanadi.

Mehnat darslarida uchun magazinlarda ochdan to to'q rangacha bo'lgan rangli mum tayoqchalari sotiladi.

Loy bilan ishlaganda asosan oddiy asboblar, pichoq, oddiy konstruktsiyadagi yog'och va metall uchli steklardan foydalaniladi. Plastilin va mum bilan ishlaganda metall steklardan foydalaniladi. Ularni qizitish hamda yo'g'on mis, alyumin yoki temir simdan tayyorlash mumkin. TSirkulg', o'lchov, chizg'ich va burchaklar kabi o'lchov asboblari modellarni chizish va o'lchash ishlarida kerak bo'ladi.

Tayyor narsalardagi changlarni yo'qotish, loy narsalarni supurib tashlash, narsani solish va unga narsalar surtish jarayonida har – xil mo'yqalamlar bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

**Haykaltoroshlik** haqida qisqacha mahlumot. Haykaltoroshlik – tahsviriy sahnat turlaridan biridir. Sahnatning bu turining xususiyati tasvirni hajmi – formasidir. Plastik tasvirlar orasida aylana haykaltoroshlik yolg'iz tur emas. Undan tashqari, barelg'ef va gorelg'ef ham mavjud relg'ef aylana haykaltoroshlikdan farq qilib, yassi sathda aks etadi. Bu haykaltoroshlik formalaridan idish – tovoq sathini, binolarning old tomoni, interg'eri va shu kabilarni bezashda foydalaniladi.

Loy va plastilin bilan ishlashda kerak bo'ladigan usullar.

1. Yumoloqlik – bu parcha loydan shar yasash, unga olcha, olma kabilar shaklini berishdir.
2. Bir bo'lak loydan kaftda aylana harakatlar bilan shar yasaladi.
3. SHar yasash, so'ngra uzunasiga harakatlar bilan uni tuxum, ustun kabilarga aylantirish.
4. Yassilash – sharikdan yassi non yasaladi, qulning holati doimo o'zgarib turadi.
5. CHuzish – sharikning bir qismi chuziladi.
6. Surish (yamash) buyumning ayrim qismlarini o'zaro biriktirish.

Loy va plastillin bilan ishlash mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishda ish joyini bekamu-ko'st jihozlanganligi muhim ahamiyatga egadir.

SHuni kayd etish lozimki, Uzbekiston issik iklim sharoitida narsalar yasash buyicha amaliy mashgulotlarni loydan bajargan mahkul, chunki plastilindan yasalgan narsaar issikda uz shaklini tez yukotadi.

Ishni oddiy predmetlar: sabzavot-mevalarni yasashdan boshlash kerak. Bunda tayyor namuna yoki rasm buyicha ishlashni taklif etish mumkin. Ukuvchilar narsalarni yasash usullarini egallab olganlaridan sung uyinchoklar, badiiy bezakli dekorativ idishlarni yasashga utishlari mumkin.

## SAVOLLAR.

1. Haykaltoroshlik sahnati qachon paydo bo'lgan.
2. Loyning xususiyati qanday.
3. Plastilinning tarkibi qanday.
4. Darslarni tashkil qilish usullari.

## TOPSHIRIQLAR.

1. Loydan yasalgan o'yinchoqlardan namunalar kelitiring.
2. Plastilindan yasalgan o'yinchoqlardan namunalar keltiring.

## ADABIYoTLAR.

1.P.Magzumov. ”O’quvchilarning mehnatga tayyorgarlik bo’yicha bilim va ko’nikmalari sifati”.T. 1994y.

**2.** X.Sanaqulov, M.Haydarov “Boshlang’ich sinflarda qog’ozdan amaliy ishlar” 1996 yil

**3.** R.A.Mavlonova, Goroxova, Ogluzdina O “Mehnat tahlim metodikasi” T., “O’qituvchi” 1986 yil

**4.** SHumulevich N.M.“Qog’ozdan texnik modellar yasash” T.,“O’qituvchi” 1989 y

**5.** Vorobg’yov A.SH. “Konstruktorlik va modellashtirish” T., “O’qituvchi”1989 yil

**6.** Mavlonova.R.A. “Boshlang’ich sinf mehnat darsliklari”. T. 1996y.

## Mavzu: Applikatsiya va mozaika bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi.

Applikatsiya tasvirlash texnikasining turli formalarini qirqish va ularni fon tarzida qabul qilingan materiallar hisobiga mustahkamlashga asoslanuvchi turidir.

Bu applikatsiyadan faqat bezash maqsadlarida ko’rgazmali qurollar, turli o’yinlar uchun qo’llanmalar, o’yinchoqlar, bayroqlar, suvenirlar, devoriy gazetalar, stendlar va hakozalarni bezashda ishlatiladi.

Applikatsiya bilan shug’ullanish o’quvchilarni garmonik rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Applikatsiya ijodni rivojlantirishda katta yordam beradi tasavvurni boyitadi, kuzatuvchanlik va diqqatni faollashtiradi, irodani tarbiyalaydi, chamalash va rangni sezishni o’stiradi.

Applikatsiya ishini bajarishda asosiy ehtibor uning umumiy ko’rinishiga qaratilishi kerak. Yaxshi o’ylangan kompozitsiya, yahni tasvirlash lozim bo’lgan narsalarni joylashtirish applikatsiyaning muvaffaqiyatining garovidir.

Tasvirlash lozim bo’lgan narsalar yordamida figura va narsalarning holati aniqlanadi, tasvirlangan hodisalarning uyg’unligiga erishiladi. Tasvirning barcha detallari, hatto eng kichiklari ham qog’ozdan qirqiladi, ularni chizmaslik kerak.

Tayyorlangan detallar yelimlanadigan sath, yahni fonga joylashtiriladi va o’ylangan tasvir hosil qilinadi, agarda bu tasvir mahqul bo’lmasa detallar boshqacha joylashtiriladi. Detallarni yopishtirishda joyni adashtirmaslik uchun ularning o’rnini qalam bilan belgilab qo’yiladi. Misol tariqasida eng oddiy geometrik shakl – kvadratni olib, uning almashinishini hosil qilish uchun turli

holatlarda joylashtirib ko’ramiz. Ishni boshlash uchun markazni topish, simmetriya o’qini o’tkazish va elementlarni shunga ko’ra joylashtirish lozim.

Ish mavzu va fikrni tanlashdan boshlanadi. Ko’pincha ochiq tondagi qog’oz va fon tanlanadi. Applikatsiya mo’ljallangan tasvir va elementlar miqdori qog’ozni tanlashni belgilaydi. Tasvir ustida ishlanganda asosiy ehtibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallar, ularning o’lchamlari, ranglarini tanlashga qaratiladi. Tasvir hajmiga ko’ra eng katta element asosiy tematik element bo’lishi kerak.

Namuna tariqasida 1-sinf o’quvchilari 8 – Mart uchun tabriknoma yasashlari mumkin. Bu ishda bolalar andoza bilan ishlaydilar, taxlash va simmetrik qirqishni eslaydilar, chamalash ko’nikmalarini sinaydilar va rangli qog’ozdan ingichka oq va sariq to’g’ri chiziqlarni qirqadilar. Quyosh uchun kvadrat qog’ozdan doira qirqsa bo’ladi. Bolalar yasagan gullar turlicha bo’lishi mumkin. Novdalar ham qo’lda qirqiladi.

Suhbatni o’qituvchi “8 Mart kuni” haqida olib boradi va bunda sovg’a masalasini eslatib o’tadi. Eng yaxshi sovg’a o’z qo’li bilan yasagan sovg’adir. Suhbatni mehribon buvijonlarimi onajaonlarimiz, opa-singillarimiz haqida bo’lishi mumkin.

SHundan keyin namuna ko’rib chiqiladi, uning elementlari, ish usullari, kerakli materiallar aniqlanadi va ishning borishi belgilanadi.

1. Tabriknoma uchun qog’oz tayyorlanib u ikkiga buklanadi;
2. Ko’k rangdagi qog’ozga to’g’ri burchak chiziladi, uning o’lchami uzunasiga, tabriknoma ustining uzunligidan 1 sm kam, eniga esa enining yarimidan 2sm atrofida kattaroq;
3. Ko’k qog’ozdan qirqilgan to’g’ri burchak taklifnomaning ustiga yopishtiriladi, bunda ko’k qog’oz taklifnomani bo’yashda halaqit bermasligi uchun bukish chizig’ining chap tomonidan ozgina joy qoldirib yopishtiriladi;
4. Endi quyosh va uning nurlari uchun yoy qirqiladi. Buning uchun kvadrat shakldagi qog’ozni kerakli o’lchamda qirqiladi;
5. Namuna asosida quyosh nuri qirqiladi;
6. Och ko’k va jigar rang qog’ozdan ikkita shox qirqib, namunadagidek yopishtiriladi;
7. Gullar qirqib yopishtiriladi.

Ish ijodiy tarzda bo’lganligi uchun o’quvchilar gullarni shoxlarga o’zlari mustaqil joylashtiradilar. Barglarni o’qituvchi tarqatgan andoza bo’yicha qirqadilar. Tabriknomaning ichki tomoni naqsh bilan bezatilib, tabrik so’zi yoziladi.

Mozaika monumental dekorativ sahnat turlaridan biridir. Turli davrlarda va turli mamlakatlarda mozaika qo’llaniladigan materialiga ko’ra ham, naqo’ va rasmlariga ko’ra ham o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lgan. O’rta Osiyo madrasalari, machitlar, hukmdorlarning saroylari mozaika bilan bezatilgan. Mozaika hozirgi kunda monumental sahnatga aylangan. Mozaika bilan binolarning tashqi qismlari, devorlari va halq amaliy sahnati asarlari bezatiladi. Mozaika ishlarida oyna,sapol plitalaridan ofdalaniladi. Loasda rangli ko’zgu

parchalaridan ajoyib mozaika asarlari yaratiladi, ular quyoshda bir-biriga qo'shilib va porlab, shodlik kayfiyatini yaratadi.

Mozaika bu rasm sathida ayrim-ayrim parchalar (qog'oz, oyna, sapo, gul tojibarglari, tuxum po'sti va shu kabilar) qo'yib chiqishdir.

1.Tuxum po'stidan mozaika ishlarini bajarish uchun yuvib qo'ritilgan tuxum po'sti mo'yqalam yordamida akvarel bo'yoqlari bilan kerakli ranglarga bo'yaladi.

2. Bo'yoq qurigandan keyin tuxum po'stini tanlangan rasmga ko'ra mayda va yirik bo'laklarga bo'linadi.

3.Tuxum po'stidan mozaika qilishda shunday tasvirni tanlash kerakki ularning konturlari mumkin qadar tekis va mayda egri-bugrilari bo'lmasligi kerak.

4. Kontur qora qog'oz orqali o'tkaziladi yoki shablondan aylantirib chiziladi.

5. Avval rasm sathining bir qismiga yelim surtiladi. U yerga tuxum po'sti terib siqiladi, keyin ikkinchi qismiga ham shu tartibda davom ettiriladi.

6. Ortiqcha yelim toza latta bilan artib tozalanadi, po'st yaxshiroq yopishishi uchun ustidan sekin bosib qo'yiladi.

Bunday ish odatda eng oddiy konturlardan boshlanadi. Keyinroq konturlar ancha murakkablashadi.

Turli meva va sabzavot, poliz ekinlarining urug'lari, danak, baliq tangalari, chig'anoq, mayda toshlar bilan xilma-xil mozaika ishlarini bajarish mumkin

## SAVOLLAR.

1. Applikatsiya ishlarida nimalarga ehtibor berish kerak.
2. Mozaika qanday sahnat turi.
3. Mozaika ishlaridan nimalar yaratiladi.

## TOPSHIRIQLAR.

1. Applikatsiya ishlaridan namuna keltiring.
2. Mozayka ishlaridan namuna keltiring.

## ADABIYoTLAR.

1.P.Magzumov. "O'quvchilarning mehnatga tayyorgarlik bo'yicha bilim va ko'nikmalari sifati".T. 1994y.

**2.** X.Sanaqulov, M.Haydarov "Boshlang'ich sinflarda qog'ozdan amaliy ishlar" 1996 yil

**3.** R.A.Mavlonova, Goroxova, Ogluzdina O "Mehnat tahlim metodikasi" T., "O'qituvchi" 1986 yil

**4.** SHumulevich N.M. “Qog’ozdan texnik modellar yasash” T.,“O’qituvchi” 1989 y

**5.** Vorobg’yov A.SH. “Konstruktorlik va modellashtirish” T., “O’qituvchi”1989 yil

**6.** Mavlonova.R.A. “Boshlang’ich sinf mehnat darsliklari”. T. 1996y.

## Mavzu: Gazlama bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi.

Tikish darslarida beriladigan politexnik bilim bolalarning bilim doiralarini kengaytiradi. Bolalarni tasavvurlarini insoniyat hayotida muhim o’rinni egallovchi hamda keng tarqalgan materiallar va ularning xususiyatlari, sanoatning gazlama va tolali materiallar ishlab chiqariuvchi tarmoqlari, materiallardan texnika va insonning madaniy hamda maishiy ehtiyojlarini qondiruvchi ishlab chiqarish kabilar bilan boyitadi.

Amaliy mashg’ulotlar jarayonida o’quvchilar turli asboblar hamda moslamalar, asosan qaychi, igna va o’lchov asboblari bilan ishlash malakalarini egallaydilar. Ular bu asbob va moslamalarning har xil turlari bilan tanishadilar.

Gazmol bilan ishlaganda mehnat madaniyati, o’z ishini rejalashtirish hamda tashkil etish ko’nikmasi rivojlanadi va takomillashadi. Bolalarning didlari ham jiddiy o’sadi va takomillashadi. Gazmol, ip va boshqa materiallarni bir-biriga moslab tanlash, o’quvchilarni ranglarni birikishi, gazmol va ipning rangi bir-biriga muvofiq kelishiga ehtibor berishga o’rgatadi.

O’qituvchi o’quv materiallarini darsda o’quvchilarni politexnik tahlim bilan qurollantirish amaliy ishlar bilan birikib ketadigan qilib qurollantiradi. U darsda tahlimni o’quvchilarning faolliklarini, aqliy qobiliyatlarini o’stiradigan metod va usullardan foydalanadi.

1-sinf o’quvchilar qo’yidagi ko’nikma, bilim va malakalarni egallab olishlari kerak:

1. Gazmol haqidagi umumiy tushunchalar bilan tanitirish. O’simlik (paxta, zig’ir)dan tayyorlanadigan gazmollar haqida dastlabki mahlumotlar beriladi. Gazmolning tuzilishi, ulardagi iplarning to’qilishi haqidagi ilk mahlumotlar beriladi.
2. Gazmollar asosan nimalarga mo’ljallanganligi bilan tanishtirish: kiyim-kechak, turmush narsalarga va shu kabilar.
3. Ishlatilishi (tikish, yamash, to’qish iplari) va yo’g’on-ingichkaligiga ko’ra farqlanadigan iplar bilan tanishtirish.
4. Tikish va to’qishda ishlatiladigan asosiy asboblar hamda moslamalar (nina, qaychi, angishvona, to’g’nog’ich) va ularni saqlashning asosiy qoidalari bilan tanishtirish.

5. Sanchiluvchan asbob va moslamalarni ishlatganda xavfsizlik texnikasi qoidalari bilan tanishtirish. Tikish vaqtida to'g'ri o'tirish qoidalari, gigiena talablari.

6. Kerakli uzunlikdagi ipni o'lchash, uni qirqish yo'llari bilan tanishtirish (ularni tishlab, totib uzishga yo'l qo'ymaslik), lentani o'lchash va qirqish.

7. Ip va tolaga ishlov berish usullaridan biri bilan tanishtirish.

8. Yug'on ip va toladan to'qishga o'rgatish.

9. Ninaga ip o'tkazish, tugun solish, ipni mustaxkamlashni o'rgatish.

10. "Baxya", "chok" (biriktiruvchi va bezovchi) tushunchalari bilan tushuntirish.

11. Oddiy andazalar tayyorlash. O'qituvchi chizmasiga muvofiq to'g'ri burchak shaklidagi andazalar qilish.

12. Gazlamani andazaga ko'ra chamalash.

13. Gazlamani qaychi bilan qirqish usullarini tanishtirish.

14. Gazlamani qalam yoki bo'r bilan belgilangan to'g'ri yoki egri chiziq bo'ylab qaychida qirqishni o'rgatish.

15. Gazlamadan narsalar tikishni o'rgatish.

16. Tugma qadash usullarini o'rgatish.

Bu mashg'ulotda o'quvchilar natural ipak va jun tolali materiallarni, to'qimachilik sanoati mahsulotlari bilan tanishadilar. Namuna, rasm, chizma va berilgan o'lchamlar bo'yicha andaza bichish olishni va gazlamaning xususiyatlarini (pishqligi, egiluvchanligi, tuzilish) ni o'rganadilar.

## SAVOLLAR.

1. Qanday gazlama turlari mavjud.
2. O'quvchilar qanday malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak.
3. Qanday tikish asboblarini bilasiz.
4. Asboblardan qanday foydalaniladi.

## TOPSHIRIQLAR.

1. Material turlarini sanab o'ting.
2. CHok turlaridan namuna keltiring.

## ADABIYoTLAR.

1.P.Magzumov. "O'quvchilarning mehnatga tayyorgarlik bo'yicha bilim va ko'nikmalari sifati".T. 1994y.

**2.** X.Sanaqulov, M.Haydarov "Boshlang'ich sinflarda qog'ozdan amaliy ishlar" 1996 yil

**3.** R.A.Mavlonova, Goroxova, Ogluzdina O., "Mehnat tahlim metodikasi" T., "O'qituvchi" 1986 yil

**4.** SHumulevich N.M.“Qog’ozdan texnik modellar yasash” T.,“O’qituvchi” 1989 y

**5.** Vorobg’yov A.SH. “Konstruktorlik va modellashtirish” T., “O’qituvchi”1989 yil

**6.** Mavlonova.R.A. “Boshlang’ich sinf mehnat darsliklari”. T. 1996y.

## Mavzu: Yumshoq o’yinchoqlar yasash darslarini tashkil etish metodikasi.

O’yinchoqlar – bolalar o’yinlari uchun yaratilgan maxsus predmetdir. Biroq bu anik predmetning kichiraytirilgan nusxasi emas, balki uning shartli tasviri, o’ta umumlashtirilgan badiiy obrazdir. Ifodali shakl va harakatlilik, ravshanlik va rangning shartliligi bularning barchasi bolaning o’yinchoqqa jalb qiladi. U bilan o’ynash ishtiyoqini tug’diradi. O’yinchoq bola quvonchining manbaidir.

Yumshoq o’yinchoqlar bilan turli yoshdagi bolalar shug’ullanishlari mumkin. Aytishlaricha, yumshoq o’yinchoq yasab o’ynash faqatgina kichik bolalarga xos deb, lekin tajribalar shuni ko’rsatadiki yumshoq o’yinchoqlar bilan faqat bolar emas, balki katta yoshdagi bolalar ham qiziqadilar.

Kichik o’quvchilar o’yinchoqlarning eng oddiy turlari, kattaroqlari esa qo’g’irchoq teatri qo’g’irchoqlarini turli holatdagi o’qinchoqlarni tayyorlaydilar. O’quvchilarga o’yinchoqlar yasashni o’rgatish uchun avvalo o’qituvchi o’zi bu sahnatni yaxshi o’zlashtirgan bo’lishi kerak. O’zi tayyorlagan chiroyli o’yinchoqlarni o’quvchilarga ko’rsatar ekan, ularda ham o’yinchoqlar yasash qiziqishi paydo bo’ladi.

Yumshoq o’yinchoqni yasashni, uning yasash texnologiyasi uslubi, tayyor shablon asosida boshlash mumkin. O’yinchoq andoza asosida tayyorlanishiga qarab, bolalarni intilishlariga, o’zlari o’ylab qo’shgan g’oyalari uchun rag’barlantirishlari kerak.

Ishni tashkil qilishdan oldin qo’yidagi ashyolar va asboblarni tayyorlash kerak:

Asboblar:

1. Ignalarning turli katta-kichiklari.
2. G’altakli turli rangdagi iplar.
3. Rangli mo’lina iplar.
4. Turli rangdagi ipakli iplar.
5. Qaychi.
6. Bigiz.
7. Ombir.
8. Dazmol.
9. Angishvona.
10. Qalam.

Ashyolar:

Yumshoq o'yinchoq uchun iloji boricha yangi mato yoki avvaldan yuvib, dazmollangan satin, barxat, shtapil, paxmoq, chit, junli matolar zarur.

Hayvonlarni tayyorlash uchun tukli bumaziy, suhniy va tabiiy jun matolaridan foydalaniladi.

Tana yuz ko'rinishini tasvirlovchi o'yinchoqlar uchun shifon, suhniy tolali shoyi matolar, yuz uchun och pushti, och jigarrang matolar olinadi, kiyimlari uchun rangli matolar, soch uchun suhniy iplar, viskoza, qismlarni biriktirishda 1-2 mm yumshoq simlar, o'yinchoqlarni jihozlashda har-xil tugmalar, biser, tisma, lentalar, shnurlar hamda eskiz tayyorlash uchun plastilin zarur. O'yinchoq ichi paxta bilan, tirikotaj chiqindilari, averla qilishda yog'ochdan chiqqan qirindilar bilan to'ldirish mumkin.

Yumshoq o'yinchoq tayyorlashda ishni nimadan boshlash kerak. Dastlab bolalarni ignani ushlashdan, igna to'g'nog'ichdan o'rinli foydalanishdan, so'ng eng oddiy chok turlarini tikishdan boshlash zarur. CHok turlarini o'rgatish uchun amaliy bir nechta ish tavsiya etiladi. (Ro'molcha tikish, xaltacha tikish va boshqalar). Bu esa bolalarni chok turlarini tikish malakasini egallashga shiroit yaratadi. Bolalarda igna bilan ishlash malakasi hosil bo'lgandan keyin oddiy model tayyorlashga o'tiladi. Bolalar qo'lda tikadilar, kattaroq bolalar tikuv mashinasidan foydalanish mumkin.

Yumshoq o'yinchoq tikish izchilligi qo'ydagicha bosqichlardan iborat: Mato tanlash, g'ijim matoni dazmollash, matoga andoza chizish, qismlarni bichish, tikish, ichini to'ldirish, ustini jihozlash.

Andoza kartondan tayyorlanadi, bichishga mato ikkiga buklanadi, uning chap tomoniga andoza qo'yib bichiladi, yaxshi ichi ochiladi, qalam bilan tayyorlanayotgan bo'lsa, andoza har bir bo'lak mato ustiga ipini qiyalab yo'nalgan tomoniga qo'yiladi. Toq mato bo'lsa andoza oq yoki sariq rangi qalam bilan och rangi mato bo'lsa qaro rangli qalamdan tayyorlanadi.

CHizib olingan mato har tomondan 0,5 sm chok uchun qoldirilib, qirqiladi, so'ng qo'lda yoki mashinada tikiladi. Burchaklar o'ng tomonga chiqariladi. Tayyor tikilgan forma metal tayyoqcha yordamida o'tmas tomoni bilan o'ngiga ag'dariladi.

Agar o'yinchoq tabiiy jundan tayyorlanayotgan bo'lsa chok haqqi qoldiriladi, chetlari qalin ipda tikiladi.

Hayvon va qushlarni tikish qo'ydagi qoida bo'yicha: avval tana va qorin qismlari bir-biriga tikiladi. Formani ikki yarmi tayyor bo'lgandan so'ng ularni birga tikiladi. Forma o'ngiga ag'darilib qoldirilgan joydan ichi to'ldiriladi, qismlari bir-biriga ko'rinmas chok bilan birlashtirib tikiladi. O'yinchoq ichi paxta yoki mayda mato qiyqimlari bilan to'ldiriladi.

O'yinchoq tayyorlashni qiyinlik bosqichiga qarab ikki guruhga ajratiladi.

1- guruh: Yengil to'ldiriladigan o'yinchoq (tovuq, marteshka qo'g'irchoq, pigvin, o'rdakcha, kuchukcha, filcha, quyoncha, ayiqcha, xo'tikcha, jirafa).
2- guruh: Qo'g'irchoq teatri uchun qo'g'irchoq (CHo'chqa, kuchukcha, ayiqcha, maymuncha, qo'g'irchoq, mushuk

sim sixga o'rnatilgan o'yinchoq, buratino, tulki va boshqalar).

O'yinchoqlarni yasash bolalarni fikrlash qobiliyatini riojlantiradi, saviyasini kengaytiradi, ijodiyotga qiziqishini tarbiyalaydi. Ular o'zlari yasagan o'yinchoqlarga o'zlarini ajoyib-g'aroyib istaklarini, muhabbatlarini, mehnatlarini sarflaydilar. SHunung uchun ularning mehnatlarini qadrlab va mehnat qilishga qiziqtirish lozim. Bu esa ularda maqsadga intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tirishqoqlik, o'zaro yordam berish, mehnatsevarlik, ehtiborlilik, batartiblikni tarbiyalaydi.

SAVOLLAR.

1. O'yinchoq qanday predmet.
2. Qanday gazlamalarni bilasiz.
3. O'yinchoqdan qanday andoza olinadi.
4. O'yinchoqni tayyorlash nechi xil guruhga ajratiladi.

TOPSHIRIQLAR.

1. Yumshoq o'yinchoqlardan namuna keltiring.
2. O'yinchoq yasashdagi bosqichlarni sanab o'ting.

ADABIYoTLAR.

1.P.Magzumov. "O'quvchilarning mehnatga tayyorgarlik bo'yicha bilim va ko'nikmalari sifati".T. 1994y.

**2.** Nurmatova M.SH "Yumshoq o'yinchoqlar" T. 2005 yil

**3.** R.A.Mavlonova, Goroxova, Ogluzdina O "Mehnat tahlim metodikasi" T., "O'qituvchi" 1986 yil

**4.** SHumulevich N.M. "Qog'ozdan texnik modellar yasash" T., "O'qituvchi" 1989 y

**5.** Vorobg'yov A.SH. "Konstruktorlik va modellashtirish" T., "O'qituvchi"1989 yil

**6.** Mavlonova.R.A. "Boshlang'ich sinf mehnat darsliklari". T. 1996y.

## Mavzu: Konstruktorlik va modellashtirish darslarini tashkil etish metodikasi.

Texnik modellash mashg’ulotlarda namuna rasm va chizmalar berilgan o’lcham konstruktor naborining detallari yoki turli materiallarni qo’llab og’zaki tasvirlash bo’yicha texnik o’yinchoqlar, modellar va maketlar tayyorlash nazarda tutiladi. Bu mashg’ulotlarda o’quvchilar texnik o’yinchoqlar va modellarni ishlatib namoyish qilishlari, ularni boshqarishlari, shuningdek namoyish jarayonida konstruktsiyaning detal va qismlarini aytishlari, ularni nimaga mo’ljallanganligini bilishlari kerak. Mashg’ulotning bu turi o’quvchilarda konstruktorli-texnik tafakkurni, mustaqil rejalashtirish va o’ylab qo’yilgan texnik buyum(kran, avtomashina, bulg’dozer, raketa va shu kabilarni) modelini amaliy bajara olish ko’nikmalarini o’stirishda juda muhim o’rin tutadi.

Moddelash uchun tanlanadigan obhektlar texnikaning zamonaviy yutuqlarini aks ettirilishi lozim. Modellash obhektlari ijtimoiy foydali yo’nalishga ega bo’lishi, tahlim jarayonini ko’rgazmali qurollar bilan jihozlashga yordam berishi kerak.

O’qituvchi chizmachilikka doir ishlarni asta-sekin kiritib boradi.

Texnik modellash metall konstruktor bilan ishlash katta ahamiyatga ega.

1-sinfdagi texnik modellash bo’yicha ishni bajarish jarayonida:

1. O’quvchilar mashina, uning modeli va maketi haqida tasavvurga ega bo’ladilar.

2. Qo’l asboblari va moslamalarning tuzilishi bilan tanishadilar. CHunki ularning har ikkalasi bir izchilikka asos qilib olingan.

3. Qo’l asbablarini tuzilishi va nimalarga mo’ljallanganligini bilish stanoklarni o’rganish uchun asbob bo’lib, ular bolalarning politexnik bilim doiralarini kengaytiradi.

4. O’quvchilar avval o’qituvchi yordamida, so’ngra mustaqil tarzda modelni ko’ra bilishlari: ularning xususiyatlarini, ayrim qismlarini, qismlar o’lchovining bir-biriga munosabatlarini ajrata bilashlari.

5. Modelni tayyorlash uchun qanday material zarurligi aniqlay olishlari.

6. Ish joyini jihozlashlari.

7. Belgilash, o’lchash, ishlov berish, mantaj va pardozlash bosqichlarini bajarishlari.

8. Modelni sozlash va boshqarishni.

9. O’zini-o’zi nazorat qilish va o’z mehnatini hisobga olishlari kerak.

Boshlang’ich sinf mehnat tahlimida texnik modellash – uchadigan, suzadigan, yuradigan texnik o’yinchoqlarni, shunungdek chizmali namuna asosida modellarni yasash mehnatining maxsus turi sifatida ajratilgan.

Dastlabki darslardayoq o’quvchilar tabiiy materiallar, qog’oz va karton, gazlama, turli materiallar bilan ishlar ekanlar, texnik elementlar bilan tanishadilar, qism va detal, oddiy yig’ish, detallarni biriktirishning qattiq, suriladigan, olinadigan usullari va buyumlar haqidagi tasvvurga ega bo’ladilar. O’quvchilar detallarni biriktirishning turli usullari shunungdek, mix bilan tirqish qoldirib biriktirish kabilar bilan tanishadilar. Bir yoki bir nechta detallardan tashkil topuvchi oddiy narsalar misolida bolalar pishiqlikni oshirish, ishqalanishning zararli tahsirini bartaraf etib, foydali tahsirdan

foydalanish, o’zlari ishlayotgan materiallarning tuzilishi haqida tasavvurga ega bo’ladilar. O’quvchilarda narsalarni yasash ustida ishlash tartibini mo’ljallash, tayyorlash, yig’ish, bezash, amalda tekshirish, nuqson va kamchiliklarni bartaraf qilish, ish joyini to’g’ri tashkil qilish kabilar haqida tasavvuri shakllanadi. Bularning barchasidan keyinchalik modellar hamda texnik o’yinchoqlarni yasashda foydalaniladi, ular bolalarning ijodiy fikrini o’stiradi, bolalarga to’plangan mehnat tajribalarini atrofdagilarga texnika bilan bog’lashlariga yordam beradi.

SAVOLLAR.

1. Texnik modellash nima.
2. Modellash ishlarining o’quvchilar tarbiyasidagi ahamiyati.
3. Boshlang’ich sinflarda texnik modellash qanday turidan foydalaniladi.

TOPSHIRIQLAR.

1. Texnik modellar ish bosqichida ish asboblaridan foydalanish qoidalari haqida gapiring.
2. Modellarni turlarini sanab bering.

ADABIYoTLAR.

1.P.Magzumov. “O’quvchilarning mehnatga tayyorgarlik bo’yicha bilim va ko’nikmalari sifati”.T. 1994y.

**2.** X.Sanaqulov, M.Haydarov “Boshlang’ich sinflarda qog’ozdan amaliy ishlar” 1996 yil

**3.** R.A.Mavlonova, Goroxova, Ogluzdina O “Mehnat tahlim metodikasi” T., “O’qituvchi” 1986 yil

**4.** SHumulevich N.M.“Qog’ozdan texnik modellar yasash” T., “O’qituvchi” 1989 y

**5.** Vorobg’yov A.SH. “Konstruktorlik va modellashtirish” T., “O’qituvchi”1989 yil

**6.** Mavlonova.R.A. “Boshlang’ich sinf mehnat darsliklari”. T. 1996y.

# 11-BOB. BOSHLANG’ICH SINFLARDA MEHNAT TAHLIMIDAN AMALIY ISHLAR.

## BOSHLANG’ICH SINFDA QO’L MEHNATINING AHAMIYaTI.

Boshlang’ich sinflarda o’quvchilarni mehnatga tayyorlash ularning qizikishlari, moyilliklari va imkoniyatlariga asoslangan qo’l mehnati hisoblanadi. SHu munosabat bilan Mehnat tahlimi jarayoni o’quvchilarda ushbu yosh uchun bilim, mehnat, ahloqiy, estetik, iqtisodiy-ekologik va aqliy imkoniyatlarni aniq, mehnat jarayonlarida rivojlantirishga qaratilgan, natijada ularni mehnatga tayyorlashning keyingi sinflarda davom ettirilishi uchun zarur aloqadorlik hosil qilinadi.

QO’L mehnati jarayonida bolalar asosan ishlab chiqarish texnologiya chiqindilari (qog’oz, karton, yumshoq sim, yog’och, gazmol va boshqalar) bilan; tabiiy va sung’iy xom-ashyolar (maxsus loy, yog’och va plastmassalar, plastelin, yelim va boshqalar) bilan, keng istehmol mollari va xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, tayyorlash uchun mahalliy xom-ashyolar bilan elektr, radiotexnika to’plamlari va hakazolar bilan ishlashga o’rganadilar.

Bularning hammasi o'quvchilarga qo'l asboblari bilan ishlash, har xil xom ashyolardan foydalanishning mahlum tajribasini tuplashga nmkon beradi, bu esa mehnatning qadrini va mahnosini tushunishga, mehnat kishilariga hurmatda bo'lishga, mehnatning va kasbning u yoki bu turiga qiziqishlarini shakllantirishga yordam beradi.

## QOG'OZ TURLARI

Qog'oz va karton faqat poligraf sanoatidagina emas balki, halq xo'jaligining hamma tarmoqlarida ham keng qo'llaniladi. Hozirgi kunda ishlab chiqarish sanoatida qog'oz va kartonning ikki yuzga yaqin turi ishlab chiqarilmoqda.

Turli xil qog'ozlardan kitoblar, oynomalar, ro'znomalar chiqarish uchun foydalanishini barcha o'quvchilar yaxshi biladilar. SHuning uchun ham mehnat tahlimi darslarida o'qituvchi o'quvchilarning diqqat ehtiborini ular foydalaniladigan qog'ozning turmushda tez-tez uchraydigan va qo'l mehnati darslarida ishlatiladigan turlariga jalb qilib borishlari lozim.

Bu qog'ozlarning turlari qo'ydagilardan iborat:

**Ro'znoma qog'ozi** - eng ko'p tarqalgan qog'oz turlariga kiradi. Sifatiga ko'ra unchalik pishiq emas, namlikni, yelimni o'ziga tez singdiradi.

**Yozuv qog'ozi** – sathi silliq, yelim sindirilgan, namlikni kamroq singdiradi. Narsalarni ixtirolashda, muqovalashda, kartondan yasalgan narsalarni yelimlashda juda qo'laydir.

**CHizmachilik qog'ozi** – eng pishiq va qalin qog'ozdir. Lattadan tayyorlanadi, uning oliy navi qo'lda tayyorlanadi. Undan bayramalar uchun qiziqarli niqoblar tayyorlashda foydalaniladi.

**Rasm qog'ozi** – ikki xil nomerli bo'lib, tselyulozadan tayyorlanadi. Oliy naviga 25% latta qo'shiladi. CHizmachilik chizishda shunungdek qo'l mehnati darslarida foydalaniladi. Rangli va jiloli qog'oz – mehnat darslarida keng qo'llaniladi. Turli xil rangdagi muqovalash ishlarida va turli xil rangda qog'ozlar to'plami chiqariladi.

**Yelimlangan qog'oz** – jilo berilgan qog'oz bo'lib, bir tomoniga yelim surtilgan. Mehnat darslarida ishlatish uchun juda qo'lay materialdir.

**Rangli jild qog'ozi** – turli ranglarda bo'ladi, jilo berilgan rangli qog'ozning o'rinini bosa oladi. Qo'l mehnati darslarida

ko’p ishlatiladi. SHagreng’ naqshdor qog’ozi – muqovasozlikda va tayyor narsalarning ustidan yopishtirishda, archa o’yinchoqlarini yasashda foydalaniladi.

**Gul qog’ozi** – rangi va guli turlicha bo’lib muqovalashda, narsalarning ustidan yelimlashda, bezash ishlarida keng foydalanildi.

**Millimetrli qog’oz** - sathi bosma tur shaklida tayyorlanadi.

**Filg’tr qog’ozi** – karton deb 1 kv mt 250 grammdan ortiq bo’lgan qog’ozga aytiladi.

**Oq karton** – uni qirqish oson, o’zi unchalik pishiq emas, tez sinadi. Bu karton yelimni ko’p shimadi ko’pincha yelimdan shishadi). Undan mayda narsalarni muqovalashda foydalanish mumkun.

**Sariq karton** – oq kartonga ko’ra pishiqroq, egiluvchan yaxshi qirqiladi, yelimdan shishmaydi. Turli ishlarda foydalaniladi.

**Kul rang karton** – oq va sariq kartondan pishiqroq, qirqish qiyin.Pichoq- karton massasidagi qumdan tez o’tmaslashadi. Kartonning bu turidan o’ta pishiqlikni talab qiluvchi narsalar tayyorlanadi.

**Rangli karton** - bu yuqa egiluvchan sathiga turli rangda jilo berilgan, ishlov berish oson va ko’rinishi chiroyli. Hajmi kichik narsalar, papkalar, muqovalar tayyorlash uchun qo’lay bo’lgan karton turidir.

## MEHNAT TAHLIMIDA KOG’OZDAN AMALII ISHLAR.

Boshlang’ich sinflardagi mehnat tahlimi dastur materiallarini tahlil qilar ekanmiz, barcha sinflardagi ish turdaridan biri “Qog’oz va karton bilan ishlash” ekanligini ko’ramiz.

Birinchi sinfda o’quvchilar eng avvalo faqat mehnat darsi mashg’ulotlaridagina emas, balki boshqa darslarda ham to’qnash keladigan materiallar bilan tanishadilar. Bu barcha o’quv anjomlari dafgarlar, kitoblar, o’quv qo’llanmalari, bosiladigai qog’oz turlari: yoziladigan, muqova qilinadigan, bosma, rasm solinadigan, kitob va oynoma qog’ozlaridir. Tahlim jarayonida o’quvchilar turli qog’ozlarning asosiy jismoniy xususiyatlari; rangi, qalinligi, zichligi siyohni shimish xususiyati, sathining xarakteri – siliq g’adir-budirligi bilan tanishadilar.

O’quvchilar mashg’ulotlarda qog’oz varaqlarini buklaydilar va to’g’rilaydilar, ularni qismlarga bo’lib yirtadilar va qirqadilar, bo’yaydilar. SHu bilan birga qog’ozii buklash yo’li bilan turli xil narsalarning shaklini yasaydilar.

"Qog'oz va karton bilan ishlash" o'quvchilarni garmonik rivojlantirishida katga ahamiyatga ega. Ayniqsa, ( rangli qog'oz bilan ishlash ijodni rivojlantirshpga yordam beradi, fantaziyani boyitadi, kuzatuvchanlik, diqqat va tasavvurni aktivlashtiradi, irodani tarbiyalaydi, qo'l mehnati, chamalash va rangni sezishni o'stiradi.

Qog'oz va karton bilan ishlash mashg'ulotlariga oldindan qo'yidagicha tayyorgarlik ko'rishadi: stolning ustiga kog'oz yozib, ung tomoniga qaychi, yelim uchun cho'tka, chizg'ich qalam avtoruchka, old tomonlariga yelim qiyqimlar uchun quti, chap tomonlariga, ish vaqtida xalaqit bermaydigan qilib rangli qog'oz to'plamini qo'yadilar. Har bir mashg'ulot oxirida o'quvchilar keyingi mashg'ulotda kerak bo'ladngan narsalarni yozib oladilar.

O'quvchilar ishlayotgan materiallarga tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishlari, o'z ishlarini rejalashtira bilishlari, materialni tejamkorlik bilan sarflashlari, vaqdan unumli foydalanishlari, o'qituvchi ko'rsatmalariga amal qilishlari, shu bilan birga ish joyini toza va ozoda saqlashlari, mashg'ulotdan so'ng sinfni tozalab qo'yishlari kerak.

Barcha fanlarda qo'llanilgani kabi mexnat darslarida tahlimning ko'rsatmali vositalaridan foydalaniladi. Jumladan, mehnat darslarida turli xil namuna, rasm:, chizma, sxematik namuna, turli predmetlarning modellari, shuningdek texnika vositalaridan foydalaniladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek Qog'oz va karton bilan ishlash mashg'ulotlarida o'quvchilar qog'ozni buklash yo'li bilan turli xil narsalarning shaklini yasashni ham o'rganib boradilar. Ana shunday mashg'ulotlar davomida o'qituvchi quyidagi ko'rsatmali qurollardan foydalanishi mumkin. SHu bilan birga o'quvchilar bu ko'rgazmalarni yasalish bosqichlariga rioya qilgan holda, dars davomida yasashlari ham mumkin.

**1. «Lola» ko'rsatmali quroli**.

Yasash bosqichlari:

1-Bosqich: Rangli qog'ozdan kvadrat qirqib olinadi. Uni dioganallari bo'yicha buklab, bukangan do'ppi shakliga keltiriladi.

2-Bosqich: Buklashdan hosil bo'lgan uchburchakning pastki, asos tomonidagi ikki uchi yuqoridaga uchinchi uchiga qarab, unga yetkazdirib buklanadi. Xuddi shuningdek, orqa tomondagi ikki uchi ham uchinchi uchiga qarab buklanadi.

3-Bosqich: Xosil bo'lgan shaklda cheti o'rtada hosil bulgan chiziqqa tomon buklanadi. SHaklning orqa tomoni ham shunday buklanadi.

4-Boskich: Oxirgi buklangan shakllarning xar biri orqa tomoniga qaytarib buklanadi. Buklangadan so'ng ularning uchlari bir-biriga kiygizdirib qo'yiladi. Keyin shaklning pastki ochiq tomonidan asta puflanadi. SHaklning yukori qismidagi uchlari esa orqaga qaytarib buklanadi. Natijada «lola» shakli hosil bo'ladi.

Lolaning bandini boshka qog'ozni tsilindr shaklida urab, uni lolaning pastki, puflangan qismiga kiritib quyish bilan qilish mumkun. Bu bandga lolaning bargini, g'unchasini ham yopishtirib qo'yish mumkin.

**2. «Qaldirg'och» ko'rgazmali quroli.**

Yasalish bosqichlari.

Buni yasashda birinchi va ikkinchi bosqichlar xuddi «Lola» ko'rsatmali qurolidagidek amalga oshiriladi. Lekin 2-Bosqichda hosil bo'lgan uchburchakning faqat bir tomonidagi pastki ikki uchi yuqoridagi uchinchi uchiga qaratib buklanadi.

3-Bosqich. Hosil bo'lgan shaklni «Lola» dagi kabi chetlari o'rtaga Hosil bo'lgan chiziqqa tomon ham yuqoridan, ham pastdan buklanadi. Bunda o'rtaga qarab buklangan uchi yuqori ko'tariladi.

4-Bosqich. Yuqoriga ko'tarilgan uchidan ushlab, shakl teng ikkiga buklanadi va qaldirg'ochning bosh qismi hamda qanoti hosil qilinadi.

Uning dumi esa to'rtburchak shaklidagi qog'oz bo'yicha 2-3 marta buklanadi. So'ngra, u qaldirg'och yasash jarayonidagi 4-Bosqichni bajarmasdan oldin shaklning buklanmagan tomonidagi uchburchakning ichiga kiritiladi.So'ngra 4- bosqich bajarilsa, «qaldirg'och» hosil bo'ladi.

**3. «Qurbaqa» ko'rsatmali quroli.**

Yasash bosqichlari:

1-Bosqich. Kvadrat shaklidagi rangli qog'oz do'ppi shaklida buklanadi.

2-Bosqich.Hosil bo'lgan uchburchakning bir tomonidagi pastki ikki uchi yuqoriga qaratib buklanadi. Yuqoriga buklangan tomonning pastki qismidagi ikki uchi o'rtadagi chiziqka yetkazdirilib yuqoriga buklanadi.

Z-Bosqich. Uchburchakning orqa tomonidagi ikki uchi esa shaklning yuqori qismidagi uchidan ichkariga qaratib pastga buklanadi. So'ngra buklangan qogozning ichkariga buklangan qirg'og'i orqaga qaytarib, yangi hosil bo'lgan uchburchak chetiga yetkazib buklanadi.

4-Bosqich. Hosil bo'ltan shaklning katta-kichikligiga qarab uning pastki qismidan 1-2 sm qismi ichkariga buklanadi. SHu buklangan qismidan 0,5-1 sm qolirib, avvalgi holatga tomon

yag'ni tashqariga buklanadi. Natijada "Qurbaqa" hosil bo'ladi. Buni, buklangan joyidan salgina bosib, so'ng qo'yib yuborilsa, u xuddi tabiiy qurbaqadek sakraydi. SHuningdek bu shaklga yana qurbaqaning ko'zi va og'zini ham chizish mumkin.

**4. "Xo'rozcha ko'rsatmali quroli**.

Yasash bosqichlari.

1-Bosqich. Kvadrat shaklidagi rangli qog'oz olinadi va uning barcha uchlari kvadrat o'rtasiga qarab buklanadi.

2-Bosqich. Hosil bo'lgan kvadratning orqasi o'giriladi, uning uchlari ham kvadrat o'rtasiga yetikazib buklanadi. SHunday ish yana bir marta bajariladi.

3-Bosqich.Hosil bo'lgan kvadratning uchlari o'rtaga yetkizib buklangan tomonining orqasiga ugriladi va uning qarama-qarshi uchlaridagi shakllar to'rtburchak shaklida tashqariga buklanadi.

4-Bosqich. Kvadratning tashqariga buklanmagan ikki uchidan ushlab uni tashqariga qarab to'ntarilsa, "Xo'rozcha" hosil bo'ladi.

So'ngra hosil bo'lgan shaklning bir uchini buklash bilan xo'rozchaning tumshug'ini hosil qilish mumkin.

**5. "Kobra" ko'rsatmali quroli"**

Yasash bosqichlari.

1-Bosqich. Bu bosqichda xo'rozchadagi birinchi bosqich kabi bajariladi.

2-Bosqich. Hosil bo'lgan kvadratning ikki qarama-qarshi tomoni orqa tomonga kvadratning o'rtasiga yetkazib buklanadi.

3-Bosqich. Orqaga buklangan ikki tomonining yuqori uchlari o'rtasida hosil bo'lgan chiziqqa qarab, uchburchak hosil bo'ladigan qilib pastga tomon buklanadi.

4-Bosqich. SHaklning pasti tomonining o'rtasidan ozgina joy qiyib olib tashlanadi. Va bu yerdan bir nechta marta buklangan eni 1sm, uzunligi 10-15 sm bo'lgan qog'oz shaklning ikkinchi tomoniga yetib borguncha kiritiladi. So'ngra shaklning yuqori tarafidan 3 bosqichda buklangan qismi yana shu buklangan tomonga qaratib buklanadi. Natijada "Kobra" hosil bo'ladi.

Kobraning tanasi kirgan pastki tomonidagi uchi esa ichkariga qaytarib buklab qo'yiladi.

**6- "Baliq" ko'rsatmali quroli**.

Yasalish bosqichlari.

1-Bosqich. Kvadrat shaklidagi rangli qog'oz olinadi. U bitta dioganal bo'yicha teng ikkiga buklanadi. So'ngra yoyib uni bir uchi rangli tomondagi diogonalga yetkazib buklanadi.

2-Bosqich. Hosil bo'lgan shaklning orqasi, qog'ozning rangsiz tomoni o'giriladi. Ichkariga buklangan uchining ikki tomoni dioganalga yetguncha buklanadi.

3-Bosqich. Xuddi shunda qolgan ikki tomoni ham dioganalga yetkizib buklanadi.
4-Bosqich. Hosil bo'lgan shaklda tashqariga buklangan kvadratning uchta uchidan ikkitasi yahni ichkariga buklangan uchining ikki tomonidagi uchlari pastga qaratib, uning qarishisidagi uchi esa avval chap tomonga, keyin shu buklangan uchining o'rtasidan o'ng tomonga qarab buklanadi. Hosil bo'lgan shaklni orqasiga o'girib qaralsa, "Baliq" hosil bo'ladi.

**7. "Qushcha" ko'rsatmali quroli.**

Yasalish bosqichlar.
Bu ham kvadrat shaklidagi rangli qog'ozdan yasaladi. 1- 2- 3-Bosqichlari xuddi "Baliq" ko'rsatmali qurolidek bajariladi.
4-Bosqich. Hosil bo'lgan kvadratning ichkariga buklangan uchi tashqariga, uning ikki tomonidagi uchlari pastga buklansa, "Qushcha" hosil bo'ladi. Keyin unga ko'z, tumshuq chizish mumkin.

**8. "Stakan" ko'rsatmali quroli.**

Yasalish bosqichlari.
1-Bosqich. Kvadrat, shakldagi rangli qog'oz olinib, uni bitta dioganali buyicha teng ikkiga buklanadi.
2-Bosqich. Hosil bo'lgan uchburchakni dioganalida, uchlaridan birining uchi uchburchakning shu uchi qarshisidagi tomonga yetguncha buklanadi.
3-Bosqich. Dioganaliga uchlardan ikkinchisi ham qarshisidagi tomonga yetguncha buklanadi.
4-Bosqich. Hosil bo'lgan shaklning yuqoridagi ikki uchidan biri buklangan uchlar tomonga, ikkinchi uchi shaklning ichkarisiga buklanadi. Natijada "Stakan" hosil bo'ladi.

**9. "Xo'tikcha" ko'rsatmali quroli.**

Yasalish bosqichlari.
1-bosqich. Kvadrat shaklidagi rangli qog'oz dioganal bo'yicha ikkiga buklanadi.
2-bosqich. Qog'ozning dioganaldagi uchlari ustma-ust qili bu yana ikkiga buklanadi.
3-bosqich. Hosil bo'lgan uchburchakning dioganal tarafdagi tomonidan 1 sm qoldirib, dioganalga paralel ravishda uchburchakning berk tomoniga qarab qirqiladi.
Qirqilganda uchburchakning berk tomoniga yetmasdan 1-1,5sm qoldirib qirqish to'xtatiladi.
4-bosqich. Qirqilgan tomondan ko'p qismi qolgan tarafi qiya holda pastga tomon buklanadi. Natijada "Xo'tikcha" hosil bo'ladi.

**10. "Yulduzcha" ko'rsatmali quroli.**

Yasalish bosqichlari.

1-bosqich. Kvadrat shaklidagi rangli qog’oz dioganali bo’yicha ikkiga buklanadi.
2-bosqich. Buklangan qog’ozning dioganal qarshisidagi uchi dioganal tomonga, uchburchakning o’rtasiga yetkazib buklanadi. Dioganal uchidagi uchburchakning qolgan ikki uchi esa buklangan uchunchi uchning chetlariga yetkazib buklanadi.
3- bosqich. Bu hosil bo’lgan shakldan buklangan uchunchi uchi yozib yuboriladi va pastga qaratib buklangan uchlardan chap tomondagisi o’ng tomonga qarab buklanadi. O’ng tomondagi buklangan uchi esa uning ustiga buklanadi.
4-bosqich. O’ng tomondan chap tomonga buklangan uchning oxridagi hosil bo’lgan shaklning uchiga qarab, uchburchak shaklning hosil qiladigan qilib qirqiladi. So’ngra buklangan va qirqib olingan shakl ochib yuborilsa “Yulduzcha” hosil bo’ladi.

**11. “CHo’ntakcha”-ko’rsatmali quroli.**

Yasalish bosqichlari.
1-bosqich. Kvadrat shaklidagi rangli qog’ozning qarama-qarshi ikki tomoni kvadrat o’rtasiga yetkazib buklanadi.
2-bosqich. Buklangan tomonlarning pastdagi va yuqoridagi uchlari buklanishdan hosil bo’lgan chiziqchaga, uchburchak shaklini hosil qiladigan qilib buklanadi.
3-bosqich. Qog’ozning buklangan tomonining pastki va yuqori tomonlari buklanmagan tomonga qarab o’rtaga yetguncha buklanadi.
4- bosqich. Hosil bo’lgan shakl enda bo’ylamasiga ikkiga buklanadi. Natijada “CHo’ntakcha” hosil bo’ladi.

**12.”Quticha” ko’rsatmali quroli.**

Yasalish bosqichlari.
1-bosqich. Kvadrat shaklidagi rangli qog’oz teng uchga buklanadi.
2-bosqich. Buklangan qog’ozning ikki tarafidagi tomonlari yana tashqariga qarab, buklangan hosil bo’lgan chiziqqa yetkazib teng ikkiga buklanadi.
3-bosqich. Buklangan tomonlarning va buklanmagan tomonlarning pastki va yuqori uchlari ichkariga uchburchak shakli hosil qiladigan qilib, buklanishdan hosil bo’lgan chiziqqa yetkazib buklanadi.
4–bosqich. Ikki bosqichda buklangan tomonidan ushlab shakl asta ko’tarilsa, “Quticha” hosil bo’ladi.

**13. “Sichqoncha” ko’rsatmali quroli.**

Buning yasalishi ham xuddi “CHo’chqacha” ko’rsatmali qurolining yasalishi bilan bir xil. Lekin turt bosqichda “Sichqoncha”ning dumi “CHo’chqacha” ning dumidek buklanmaydi, balki “Sichqoncha” yasalayotganda qog’ozning rangi bilan bir xil bo’lgan qog’ozdan sichqon dumiga o’xshash qog’oz

qirqib olinadi va “Sichqoncha”ning dum tomoniga yopishtiraladi. Bunga ham “CHo’chqacha”degidek ko’z, tumshuq chizish mumkin.

**14. «Xaltacha» ko’rsatmali quroli.**

Yasalish bosqichlari.

1-bosqich. Turtburchak shaklidagi rangli qog’ozning bir tomoni ikkinchi tomoniga yetkazdirmasdan 1sm qoldirib buklanadi. Ikkinchi tomondan qolgan 1 sm esa buklangan birinchi tomonning ustiga buklanadi.

2-bosqich. Ikkinchi tomondan buklangan 1 sm yana bir marta birinchi tomon bilan qo’shib buklanadi.

3-bosqich. Hosil bo’lgan shaklning bo’yicha buklanmagan tomoni buklangan tomoniga qarab uchburchak shaklida buklanadi.

4-bosqich. SHaklning 1 sm qilib buklangan tomoni ham xuddi shunday uchburchak hosil qiladigan shaklda qarshisidagi tomonga qarab buklanadi va kley bilan yopishtirib qo’yiladi. Natijada “Xaltacha” hosil bo’ladi.

**15. «Turna» ko’rsatmali quroli.**

Yasalish bosqichlari.

1-bosqich. Kvadrat shaklidagi rangli qog’ozning bir uchiga yopishgan ikki tomoni uchburchak hosil qiladigan shaklda kvadratning o’rtasiga yetkazib buklanadi.

2-bosqich. SHunday holda yana bir marta buklangan tomonlar ichkariga qilib buklanadi.

3-bosqich. SHunday holda yana bir marta buklangan tomonlar ichkariga qilib buklanadi.

4-bosqich. Hosil bo’lgan shaklning ingichka tomoni keng tomoniga qarab, yahni buklangan tomoni tashqariga, buklanmagan tomoni ichkarida qoldirilib, shaklning katta-kichikligiga qarab 7-9 sm uzunlikda buklanadi. SHaklning ingichka uchidan esa 3-4 sm qoldirilib, yuqoriga ko’tarilsa, “Turna” hosil bo’ladi.

**16. “Dars jadvali” ko’rsatmali quroli.**

Yasalish bosqichlari

1-bosqich. To’rtburchak shaklidagi rangli qog’ozning rangli tarafi ichkariga qilib ikki tomoni to’rtburchak o’rtasiga yetkazib buyiga buklanadi.

2-bosqich. Buklangan tomonlarning yuqori va pastdagi uchlarini rangli tomonlari tashqariga qilib, uchburchak hosil qiladigan shaklda buklanadi.

3-boskich. Hosil bo’lgai shaklning orqasi o’girilib uchburchak shaklida buklangan uchlarning balandligiga teng uzunlikda buklangan tomon buklanmagan tomonga buklanadi.

4- bosqich. Hosil bo’lgan shaklning eni va buyiga teng boshqa rangdagi kog’oz olib, uning uchlari buklangan uchlarga kiritib qo’yiladi. Agar shu kog’ozga dars jadvali yozib qo’yilsa, u dars

jadvali uchun ramka vazifasini bajaradi. SHuningdek unga tabrik, turli xil mavzulardagi qizqarli maqolalar axborotlar yozilgan qog'ozlarni ham solib qo'yish mumkin.

**17. "Quloqli shapka" ko'rsatmali quroli.**

Yasalish bosqichlari.

1-bosqich. 'To'rtburchak o'aklidagi rangli qog'ozning rangli tarafiga qarab buyiga uchdan bir qismi buklanadi. SHu buklangan qismning ikki uchi yuqoriga qaratib, uchburchak shaklida buklanadi.

2-bosqich. Qog'ozning rangsiz tarafi o'girilib, uni rangli tomoniga buklangan qismi shu tarafga qaratib uchburchak shaklida buklanadi.

3-bosqich. Rangsiz tomonining buklanmagan pastki qismi 1sm enlikda buklangan joyga yetguncha 1 necha marta buklanadi.

4-bosqich. Hosil bo'lgan shaklning bir necha marta buklangan tarafi, tashqarida qoldirib, ikkiga buklansa " Qulokli shapka" hosil bo'ladi.

**18. «SHapka» ko'rsatmali quroli.**

Yasalish bosqichlari.

1-bosqich. To'rtburchak shaklidagi rangli qog'oz bo'yicha teng ikkiga buklanadi. Uning berk tomondagi uchlari uchburchak shaklida, pastga qarab buklanadi.

2-boskich. Buklashda to'rtburchakning pastki qismida qolgan joyidagi birinchi qavati buklangan uchburchaklarga qarab, ikkinchi esa orqaga qaratib buklanadi. Uchlarining uchlari uchburchakka kleylab qo'yiladi.

3-bosqich. Hosil bulgan shakl o'rtasidan ochilsa to'rchburchak buladi, hosil bo'lgan to'rburchaklardan birining, ochiq uchi o'zini qarshisidagi uchiga qaratib, ustma-ust tushadigan qilib buklanadi.

4-boskich. Hosil bo'lgan shakl o'rtasidan ochilsa, «SHapka» hosil bo'ladi.

**19. «Buzoqcha» ko'rsatmali quroli**

Yasalish bosqichlari.

1-bosqich. Rangli qog'ozdan kvadrat qirqib olinadi. Uni uchburchak ko'rinishiga keltirib buklaymiz.

2-bosqich. Buklangan uch burchakli pastki burchakning yuqoriga to'g'ri chiziq bo'ylab buklab chiqamiz.

3-Boskich. Umumiy ko'rinishdagi kup burchakning yuqori burchakining uchburchak shaklida pastga buklaymiz.

4-Boskich. Ko'p burchakning teskari tomoniga buzoqchaning ko'zi va tumshug'lari chiziladn yoki rangli qog'oz yopishtiriladi.

**20. «Quyon» ko'rsatmali quroli.**

Yasash bosqichlari:

1-Boskich. Kvadrat shaklini dioganaliga buklab olamiz, ikkala yon tomonlardani uch burchak kurinishiga keltirib buklaymiz va pastki qismida ham uchburchak hosil qilamiz.
2-Bosqich. Ikkala uch burchakning yuqorida tutashgan burchaklarini, teskari tomoniga qaratib uchburchak ko'rinishida buklaymiz.
3-Bosqich. Dioganalga buklangan chizik bo'yiga o'rtasidan ikkiga buklab uch burchak va ko'p burchak hosil kilamiz.
4-Bosqich. Uch burchak shaklini yuqoriga 75 burchak chamasida ko'tarib qo'yamiz. So'ngra ko'zlari va tumshug'larini rangli qalam yoki rangli qog'ozda yasab qo'yamiz.

**21. «Pirpirak» ko'rsatmali quroli**.

Yasalish bosqichlari:
1-Bosqich. Kvadratni tent ikkiga buklab, buklangan chiziqqa paralel tomonlarini o'rtaga buklab to'g'ri to'rtburchak yasaymiz.
2-Bosqich. To'g'ri to'rtburchakning pastki burchaklarni uchburchak ko'rinishiga keltiramiz.
3-Bosqnch. Yuqori tomonlarini ham uchburchak ko'rinishida buklab olamiz va pastki uchburchaklarni esa yoyilgan holatdagi uchburchak shakliga keltiramiz.
4-Bosqich. Hosil bo'lgan uchburchaklarni to'rtalasini har tarafga qayirib chiqamiz. SHunda "Pirpirak" hosil bo'ladi.

**22. «Elkanli qayiq» ko'rsatmali quroli** Yasalish boskichlari;

1-Bosqich; Pirpirak ko'rinishidan davom etadi. Pirpirakni umumiy holdagi ko'p burchak ko'rinishiga keltirib olamiz.
2-Bosqich. Ko'pburchakni yarim qismini yuqoriga qaratib buklab to'rt burchaklarning hosil Qilamiz.
3-Bosqich. Yuqori qismidagi to'rt burchaklarning bittasini pastga yahni burchakka tutashtirib buklaymiz shunda yelkanli qayiq hosil bo'ladi.

## QOG'OZDAN APPLIKATSIYa VA UNING TURLARI

Applikatsiya - badiiy asarlar yaratishning eng sodda va oson usulidir. Bu applikatsiyadan faqat bezash maqsadlaridagina ko'rgazmali qog'ozlar turli o'yinlar uchun qo'llanmalar, uyinchoqlar, bayroqchalar, suverinlar, devoriy ro'znomalar, stendlar, ko'rgazmalar va kostyumlarni tayyorlashdagina emas, balki kartina, pano naqshlarni va shu kabilarni yaratishda ham keng qo'llash imkonini beradi.

Applikatsiya tasvirlash texnikasining turli formalarini qirqish va ularni fon tarzida qabul qilingan materiallar hisobiga mustahkamlashga

asoslanuvchi turidir. Applikatsiya 2500 yil muqaddam ko'chmanchi xalklarda paydo bo'lgan. Applikatsiya bilan kiyim-bosh, turar joylar bezatilgan. Applikatsiya ishida asosiy material qog'ozdir, dazmollangan va kraxmallangan gazlama bulakchalaridan ham foydalanish mumkin. Bu materiallar bilan bir qatorda samon qo'ritilgan o'simliklar urug'i - danak, barglar shu kabilardan ham foydalanadilar.

Qog'ozning yaltiraydigan marmar, bosma gul tushurilgan- barxat, kumush va bronza, rasm solish va chizmachilik qog'ozi navlari applikatsiya uchun yaroqlidir.

Applikatsiya ishlari doimo xotirada saqlanishi haqida majburiy qoida sifatida bajarilishi lozim bo'lgan izchillikda ado etiladi. Eng oddiy applikatsiyalar bu goemetrik figuralardan qilingan applikatsiyalardir.

Applikatsiyada avval eskizi tuziladi, so'ngra kerakli detallar o'lchami va miqdori hisoblanadi. Detallarni tayyorlab mahlum tartibda joylashtiriladi va yopishtirishni qaysi detaldan boshlash kerakligi aniqlanadi. So'ngra tayyorlangan materiallar bir-biriga yopishtiriladi.

## GEOMETRIK SHAKLLI APPLIKATSIYaLAR.

Bajarilish texnikasiga ko'ra applikatsiyaning eng oddiy turlaridan biri geometrik shaklli appilkatsiyalardir.1 va 3 sinf o'quvchilari geometrik shaklli applikatsiyani bajarishda qo'yidagi bilimlarni egallaydilar.

1. Geometrik shakllar: kvadrat, to'g'ri burchak, uchburchak, aylanani qog'oz bo'lagidan va o'lchov asboblari yordamida hosil bo'lishi haqidagi mavjud bilimlarni mustahkamlaydilar.
2. Badiiy didni o'stiradi, rasm darslarida polosa, doira, kvadratda ornamentlar tuzish bo'yicha olingan bilimlarni chuqurlashtiradilar.
3. Ayrim predmetlarni detalma-detal tahlil qilib geometrik shakllarni to'g'ri idrok etishni o'rganadilar.
4. Bolalarni "ko'p, kam, uzunasiga, ko'ngdalangiga, qism va qatlam, ikki qismga qirqish, to'rt qismga, teng qismlarga" kabi tushunchalari mustahkamlanadi.
5. Bolalar ranglar uyg'unligini to'g'ri tanlashni o'rganadilar. Ularda estetik did tarbiyalanadi. Geomterik shaklli applikatsiyalarni ham dekorativ-ornament, predmet, syujetli applikatsiyalarga ajratish mumkin.

## GEOMETRIK FIGURALARDAN PREDMETLI APPLIKATSIYa.

Bolalarni predmetlarni fazoviy idrok etishini rivojlantirish kerak. Buni atrofimizni o'rab turgan narsalar: uy, archa, darxt, mashina, idish-tovoq, jonivorlar, gullar va shu kabilarni u yoki bu darajada geometrik shakllar bilan ifodalash mumkin.

Rangli qog'ozlardan olingan doiralar va ularning qismlari bilan applikatsiya bo'yicha juda ko'p geometrik ishlarni bajarish mumkin. Doiralarni har birini shunday joylashtirish kerakki, pufak kabi oddiy shakllarni bajarishni 1-sinfdanoq boshlash mumkin. 2-3 sinflarda murkabroq va atroflicha tasavvurni, badiiy erishish yo'lida
qathiyatlik, tartiblik tarbiyalanadi.

Uyushqoqlik bilan ishlash ko'rsatmalariga rioya qilish, tashabbuskorlik ko'rsatish ko'nikmalari shakllanadi. O'quvchilar tayyorlagan applikatsiyalar ona tili va matematika darslari uchun ajoyib didaktik material, o'quvchilar nutqini o'stirish vositasi bo'lishi, ularning predmetldari shakli, rangi, fazoda joylashishi haqidagi tushunchalarini boyitishga xizmat qilishi mumkin.

## KO'P RANGLI APPLIKATSIYa

Ko'p rangi applikatsiyalarni qirqish ancha murakkab ish bo'lib, tasvirni qismlarga ajratish bilan aloqadordir. Bu turdagi applikatsiyalarni bajarishda fonni tanlash juda muhimdir. Fon ifodalangan predmetlar rangidan ochroq bo'lishi kerak. Ana shunda predmet xuddi bo'rtib turgandek yorqin ko'rinadi. Hammasi o'ylagan asarga bog'liq. Fondda joylashgan detallar rangi ham shunga qarab tanlanadi, detallarning tabiiy joylashishi va o'lchamlarining uyg'unligiga ehtibor berish kerak. Bu ishlarning bajarishning bir necha usullari mavjud: ayrim detallar oldindan belgilamay qirqiladi, ayrim detallar esa belgilangan eskizlar bo'yicha qirqiladi.

Ko'p rangli applikatsiyalardan biri dekorativ applikattsiyalardir. Dekorativ applikatsiya - naqsh gullardan tashkil topib, alohida-alohida tasvirlangan hodisa harakatlar uyg'unligini aks ettiruvchi manzaralardan iborat bo'lishi mumkin.

Dekorativ applikatsiyalarni bolalar kitob, oynoma va boshqa materillardan olishlari, ayrim elementlarni qo'lda yaratishlari mumkin. SHarq naqshi applikatsiyasining bu turi uchun boy material hisoblanadi. Dekorativ applikatsiya bir va ko'p rangli bo'lishi mumkin.

SHakliga ko'ra ornamental cheksiz va cheklangan bo'ladi. CHeksiz ornamentda uni tashkil etuvchi ayrim elementlar ritmik yoki simmetrik almashinib turadi. Bu elementlarning rangi, shakli bir xil bo'lishi mumkin.

CHeklangan ornament bir shakl – kvadrat, to'g'ri burchak, doira, oval, va shu kabilar ichiga joylashadi yoki erkin kompanovka qilinadi. Undagi elementlar ham xuddi shunday fazoviy uyg'unlikda bo'lishi kerak.

## BADIIY APPLIKATSIYa.

Mavzuli ishlarni yaratish faqat mehnatga emas, balki badiiy tayyorgarlikni ham talab qiladi. Mehnat tahlimi darslarida applikatsiya ishlarini bajarilish texnikasi o'rganiladi.

Rangdor surat applikatsiya mavzusining elementlarini o'quvchilar turli bayramlarga bag'ishlangan (tabriknomalar, ochiq xat muqovasini, yo'l

belgilari) ishlarini bajaradilar. Ish mavzu va fikr tanlashdan boshlanadi. Quticha ochiq tondagi qog'oz fon tarzida tanlanadi. Applikatsiyaga qaratilgan asarning yaratilishi va elementlar miqdori qog'ozni tashlashni belgilaydi. Asarni yaratish ustida ishlagan asosiy ehtibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallar, ularning o'lchamlari, ranglarni tanlashga qaratiladi.

Asarni yaratish hajmiga ko'ra eng katta element asosiy mavzu elementi bo'lishi mumkin. Buklash yo'li bilan yasaladigan ko'rsatmali qurollar va ularning yasalishi yo'llari

**MUNDARIJA.**

KIRISH.______________________________________________2

1-BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MEHNAT TAHLIMINING MAZMUNI.

Boshlang'ich sinflarda mehnat tahlimi va tarbiyasining vazifalari.________________________________________3

Boshlang'ich sinflarda mehnat tahlimining mazmuni._____7

Mehnat darsining maqsad va vazifalari._______________11

Mehnat tahlimining shakl va metodlari._______________13

Mehnat darslarida qo'l mehnatining usullari._________21

Boshlang'ich sinflarda mehnat darsining olib borilishi.24

Mehnat darslarida o'quv jarayonini tashkil etish.______27

Boshlang'ich sinflarda mehnat tahlimidan amaliy ishlar.32

Boshlang'ich sinf mehnat darslarida iqtisodiy bilim tushunchalarini shakllantirish.______________________35

Mehnat darslarining ish unumini oshirish usullari.___38

Mehnat tahlimida sinfdan tashqari ishlar.___________40

Applikatsiya ishlarining bajarilishi va uning turlari._45

Qishloq xo'jaligi mehnati darsining mazmuni va undan foydalanish usullari.__________________________________________49

Mutafakkirlar merosida mehnat tarbiyasi._____________53

O’quvchilarni kasb-hunarga qiziqtirishda mutafakkirlar merosidan foydalanish________________________________55
Mehnat darslarining ishlanmasini tuzish_____________58
Qog’oz va karton bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi.________________________________________60
Turli tabiiy materiallar bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi.___________________________________63
Plastilin va loy bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi_________________________________________68
Applikatsiya va mozayka bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi.___________________________________71
Gazlama bilan ishlash darsini tashkil etish metodikasi._74
Yumshoq o’yinchoq yasash darsini tashkil etish metodikasi._76
Konstruktorlik va modellashtirish ishlari darslarini tashkil etish metodikasi.____________________________79

11-BOB. BOSHLANG’ICH SINFLARDA MEHNAT TAHLIMIDAN AMALIY MASHG’ULOTLAR.

2.1 Boshlang’ich sinfda qo’l mehnatining ahamiyati----------82
2.2 Qog’oz turlari-------------------------------------------------82
2.3 Qog’ozdan amaliy ishlar--------------------------------------84
2.4 “Lola” ko’rsatmali quroli.----------------------------------85
2.5 “Qaldirg’och” ko’rsatmali quroli.---------------------------86
2.6 “Qurbaqa” ko’rsatmali quroli.------------------------------86
2.7 “Xo’rozcha” ko’rsatmali quroli.------------------------------87
2.8 “Kobra” ko’rsatmali quroli.---------------------------------87
2.9 “Baliq” ko’rsatmali quroli----------------------------------87
2.10 “Qushcha” ko’rsatmali quroli.-------------------------------88
2.11 “Stakan” ko’rsatmali quroli.-------------------------------88
2.12 “Xo’tikcha” ko’rsatmali quroli.-----------------------------88
2.13 “Yulduzcha” ko’rsatmali quroli.-----------------------------89
2.14 “CHo’ntakcha” ko’rsatmali quroli.----------------------- ----89
2.15 “Quticha” ko’rsatmali quroli--------------------------------89
2.16 “Sichqoncha” ko’rsatmali quroli.-----------------------------90
2.17 “Xaltacha” ko’rsatmali quroli.-------------------------------90
2.18 “Turna” ko’rsatmali quroli.---------------------------------90
2.19 “Dars jadvali” ko’rsatmali quroli.-----------------------90

2.20 “Quloqli shapka” ko’rsatmali quroli.---------------------91
2.21 “Soyabonli shapka” ko’rsatmali quroli---------------------91
2.22 “Buzoqcha” ko’rsatmali quroli.-------------------------------92
2.23 “Quyoncha” ko’rsatmali quroli.--------------------------------92
2.24 “Pirpirak” ko’rsatmali quroli.----------------------------92
2.25 “Elkanli qayiq” ko’rsatmali quroli.----------------------92
2.26 Qog’ozdan applikatsiya va uning turlari -------------------

FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR RUYXATI----------------121

## ADABIYoTLAR RUYXATI

**1.** Tahlim to’g’risidagi O’zbekiston Respublikasining Qonuni (Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. 1997 yil T.,“SHarq” nashriyoti)

**2.** Kadrlar tayyorlash buyicha milliy dastur.( Barkamol avlod- O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. 1997 yil T.,“SHarq” nashriyoti)

**3.** I.A.Karimov O’zbekistonning siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T., “O’zbekiston”

**5.** R.A.Mavlonova ,O.T.To’raeva , K.M.Xoliqberdiev “Pedagogika” T., “O’qituvchi” 1998 yil

**6.** X.Sanaqulov ,M.Haydarov “Boshlang’ich sinflarda qog’ozdan amaliy ishlar” 1996 yil

**7.** R.A.Mavlonova ,Garoxova,Ogluzdina O., “Mehnat tahlim metodikasi” T., “O’qituvchi” 1986 yil

**8.**SHumulevich N.M.“Qog’ozdan texnik modellar yasash” T.,“O’qituvchi” 1989 y

**9.** Vorobg'yov A.SH. "Konstruktorlik va modelleshtirish" T., "O'qituvchi"1989 yil

10. R.Mavlonova "Birinchi sinf mehnat darslari" T. "O'qituvchi" 1986 yil

11. R.Mavlonova "Ikkinchi sinf mehnat darslari" T."O'qituvchi" 1987 yil.

12. R.Mavlonova, G.Maxmudova "Mehnat" Ikkinchi sinf o'quvchilari uchun darslik. T. "O'qituvchi" 1992 yil.

13. R.Mavlonova, G.Maxmudova "Mehnat" Uchinchi sinf o'quvchilari uchun darslik. T. "O'qituvchi" 1993 yil.

14. R.Mavlonova, I.Mannopova "Mehnat" To'rtinchi sinf o'quvchilari uchun darslik. T. "O'qituvchi" 1995 yil.

15. R.Mavlonova "Turtinchi sinfda mehnat darslari" T."O'qituvchi" 1989 y.

16. R.Hasanov, H.Egamov "Tasviriy sahnat va badiiy mehnat"T. "O'qituvchi" 1997 yil.

. 17. Perevertenv. "O'quvchilarda ijodkorlikni shakillantirish".T. "O'qituvchi". 1990y.

18. P.Magzumov. "O'quvchilarning mehnatga tayyorgarlik bo'yicha bilim va ko'nikmalari sifati".T. 1994y.